ISSN 2181-0826

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI ILMIY JURNALI

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYO

TUPROQSHUNOSLIKDAGI ENG DOLZARB MAVZULAR

ВАЖНЕЙШИЕ ТЕМЫ ПОЧВОВЕДЕНИЯ

THE MOST IMPORTANT THEMES IN SOIL SCIENCE

ILMIY JURNAL №4/2025
MAXSUS SON

ISSN 2181-0826

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYO ILMIY JURNAL



MAZKUR JURNAL SAHIFALARIDA RESPUBLIKA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA AGROTUPROQSHUNOSLIK SOHALARIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR NATIJALARI, YANGILIKLAR, ILMIY YUTUQLARGA OID MAQOLALAR CHOP ETILADI.

НА СТРАНИЦАХ ЭТОГО ЖУРНАЛА ПУБЛИКУЮТСЯ СТАТЬИ О РЕЗУЛЬТАТАХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, НОВОСТЯХ, НАУЧНЫХ ДОСТИЖЕНИЯХ В ОБЛАСТИ ПОЧВОВЕДЕНИЯ, АГРОХИМИИ И АГРОПОЧВОВЕДЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ.

ON THE PAGESOFTHIS JOURNAL ARTICLES ARE PUBLISHED ON THE RESULTS OF SCIENTIFIC RESEARCH, NEWS, SCIENTIFIC ACHIEVEMENTS IN THE FIELD OF SOIL SCIENCE, AGROCHEMISTRY AND AGRICULTURAL SOIL SCIENCE IN THE REPUBLIC AND FOREIGN COUNTRIES.

Eslatma: “Tuproqshunoslik va agrokimyo“ ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti muassisligida 2022-yildan buyon nashr etilmoqda.

Endilikda ushbu ilmiy jurnal, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2022 yil 29-dekabrdan 03.00.00-Biologiya fanlari bo‘yicha, 2023 yil 31-yanvardan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy nashrlar ro‘yxatiga kiritildi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi OAK Biologik tadqiqotlar va biotexnologiyalar bo‘yicha (27.12.2022 y., № 12) hamda Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va oziq-ovqat tadqiqotlar bo‘yicha ekspert kengashlarining tavsiyasi (29.12.2023 y., № 1); O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining qarorlari (29.12.2022 y., № 330/5 va 31.01.2023 y., № 332/5).

Ushbu “Tuproqshunoslik va agrokimyo” ilmiy jurnalida nashr etilgan maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Jurnaldan ma’lumotlar ko‘chirib olinganda “Tuproqshunoslik va agrokimyo” ilmiy jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

№4/2025 y.

«TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYO» ILMIY JURNALI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
AGENTLIGIDA 2020 YIL 9 MARTDA 1056 SON BILAN
RO‘YXATGA OLINGAN.

MUASSIS:

QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BOSH MUHARRIR:
SHUHRAT BOBOMURODOV

MUHARRIRLAR:
AKBAR XUDOYQULOV
ZAFAR BAHODIROV
RAVSHAN NURMATOV

ADABIY MUHARRIR:
JALOLIDDIN JO‘RAYEV, FIL.F.D

MAS’UL KOTIB:
MIRAZIZ MIRSODIQOV

TAHRIR HAY’ATI:
1. J.S. Sattarov, q.x.f.d., akademik
2. Sh.S. Namozov, t.f.d., akademik
3. Sh.E. Namozov, q.x.f.d., akademik
4. Q. D. Davranov, b.f.d., akademik
5. Georg Guggunberge, professor *(Germaniya)*
6. Riechel Greamer, professor *(Niderlandya)*
7. M.A. Mazirov, b.f.d., professor *(Rossiya)*
8. A.N. Chervan, q.x.f.n. *(Belorusiya)*
9. Raushan Ramazanova, q.x.f.n. *(Qozog‘iston)*
10. Sh. I. Xo‘jayev, q.x.f.n. *(Tojikiston)*
11. A.X Hamzayev, q.x.f.d., professor
12. Sh.N. Nurmatov, q.x.f.d., professor
13. A.X Abdullayev, t.f.d.
14. R.A. To‘rayev, t.f.d., professor
15. M.I. Ruzimetov, q.x.f.d., professor
16. N.Yu. Abduraxmonov, b.f.d., professor
17. L.A. Gafurova, b.f.d., professor
18. H.T. Artiqova, b.f.d., professor
19. T.A. Abdraxmonov, q.x.f.n., professor
20. M.M. Toshqo‘ziyev, b.f.d., professor
21. R. Kurvontoyev, q.x.f.d., professor
22. A.J. Boirov, q.x.f.n., k.i.x.
23. A.U. Ahmedov, q.x.f.n., k.i.x.
24. A.A. Karimberdiyeva, q.x.f.n, k.i.x.
25. A.J. Ismonov, b.f.n., k.i.x.

JURNAL 2022 YILDAN CHIQA BOSHLAGAN. BIR YILDA TO‘RT MARTA CHOP ETILADI.

BICHIMI 60X841/8 «TIMES NEW ROMAN» GARNITURASIDA OFSET USULDA CHOP ETILDI.
BOSMA INDEKSI: 1410. SHARTLI BOSMA TABOG‘I 1,16 ADADI 10 DONA. BUYURTMA №40“
AGRAR FANI XABARNOMASI”MCHJ BOSMAXONASIDA CHOP ETILDI.

**«TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYO» ILMIY JURNALINING 4-SONI
TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
AXBOROT XIZMATIDA TAYYORLANDI.**

BOSISHGA RUXSAT ETILDI: 30.12.2025 YIL

TAHRIRIYAT MANZILI:
TOSHKENT SHAHAR, OLMAZOR TUMANI,
QAMARNISO KO'CHASI 3-UY
E-MAIL: *JURNAL@SOIL.UZ*
SOILJURNAL@UMAIL.UZ

BOSMAXONA MANZILI:
QIBRAY TUMANI UNIVERSITET
KO‘CHASI №2

TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYO

ABDURAXMONOV IBROHIM YULCHIYEVICH
5 DEKABR – BUTUNJAHON TUPROQ KUNIGA BAG'ISHLANGAN "TUPROQSHUNOSLIKNING TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARI VA ULAR YECHIMINING INNOVATSION USULLARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANIDAGI NUTQI 8-10

BOBOMURODOV SHUHRAT MEHRIBONOVICH
RESPUBLIKAMIZ TUPROQLARI UNUMDORLIGINI OSHIRISH BORASIDA TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTINING SO'NGGI YILLARDAGI FAOLIYATI 11-17

LAURA BERTA REYES SANCHES
5-DEKABR – "BUTUNJAHON TUPROQ KUNI"GA BAG'ISHLAB O'TKAZILGAN XALQARO ILMIY AMALIY ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA TABRIK SO'ZI 18

AKBAR XUDOYQULOV
5-DEKABR «BUTUNJAHON TUPROQ KUNI» GA BAG'ISHLANGAN XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANIGA SHARH 19-23

TUPROQSHUNOSLIK

N. ABDURAXMONOV, O'. SOBITOV
TURLI REGIONLARDA SHAKLLANGAN GIPSLI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING AGREGATLAR TARKIBI 24-30

Н. ШУЛИКО, О. ХАМОВА, Л. ЮШКЕВИЧ
ИНТЕНСИВНОСТЬ И НАПРАВЛЕННОСТЬ ПОЧВЕННО-МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ЛУГОВО-ЧЕРНОЗЕМНОЙ ПОЧВЕ ПОД ВЛИЯНИЕМ МИНИМИЗАЦИИ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ В УСЛОВИЯХ ЮГА ЗАПАДНОЙ СИБИРИ 30-36

M. RUZMETOV, B. BOBONOROV
YUVILISHGA UCHRAGAN SUG'ORILADIGAN BO'Z-O'TLOQI TUPROQDA ORGANIK MODDALAR VA MINERAL O'G'ITLARNING G'O'ZA O'SIMLIGI O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI 37-44

T. ABDRAKHMANOV, Z. JABBAROV, S. MAKHAMMADIEV, Q. NORMURODOVA, M. KARIMBOYEVA, K. IDRISOV
OROL DENGIZINING QURIGAN TUBIDAGI TUPROQ – GRUNTLARINING MORFOLOGIK BELGILARI VA AYRIM KIMYOVIY XOSSALARI 45-55

И.А. САМОФАЛОВА, Н.М. МУДРЫХ, О. ХАКБЕРДИЕВ
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ 56-64

SH. BOBOMURODOV, B.RAMAZONOV, K. IDIRISOV
КРАТКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОЧВ РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В ПРИАРАЛЬЕ В ИХ ЗНАЧЕНИЕ 64-72

M. TOSHQO'ZIYEV, O. KARABEKOV
TOSHKENT VOHASI GIDROMORF TUPROQLARI: GUMUSI TARKIBI, GUMUSLI HOLATI VA ULAR ORQALI EKOLOGIK HOLATINI TASNIFLASH MASALALARI 73-83

Б.Ф. АПАРИН, Е.Ю. СУХАЧЕВА, Е.В. ПЯТИНА, А.А. КУЗЬМИНА
ПОЧВЕННО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА (ГЛОБАЛЬНЫЙ И РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТЫ) 84-88

A. ISMONOV, G. KATTAYEVA, O'. MAMAJANOVA
SURXONDARYO VILOYATI SUG'ORILADIGAN, LALMI VA YAYLOV TUPROQLARI, MONITORING TADQIQOTLARIDA ANIQLANGAN SALBIY HOLATLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI 89-95

L. GAFUROVA, M. MAMASOLIYEVA, M. MAZIROV
IQLIM O'ZGARISHI VA TUPROQ DEGRADATSIYASI SHAROITIDA KREMNIY ASOSLI PREPARATLARNING GUMUS BARQARORLIGI VA G'O'ZADA ANTIOKSIDANT HIMOYANI KUCHAYTIRISHDAGI ROLI 96-101

A. TURDALIYEV, M. XAYDAROVA
QO'RIQ VA SUG'ORILADIGAN BO'Z TUPROQLARDA MAKROELEMENTLARNING TABAQALANISHI 102-107

N. ABDURAXMONOV, M. PULATOV, N. QALANDAROV
SUG'ORILADIGAN GIDROMORF VA YARIM GIDROMORF TUPROQLARNING DEGRADATSIYA JARAYONLARI VA EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI 108-114

M. ISAG'ALIYEV, B. QO'CHQOROV, M. AKTAMOV
SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLARDA ISHQORIY VA ISHQORIY-YER METALLAR GEOKIMYOSI 115-121

Б.Н. ХОЛЗОДА, Ф. КАРИМОВА, Ш. КАРАЕВ, М. МЕРЗОЕВ
ПОВЫШЕНИЕ ПЛОДОРОДИЯ СКЛОНОВЫХ ЗЕМЕЛЬ ТЕМНЫХ СЕРОЗЕМОВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОТИВОЭРОЗИОННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ 122-129

Y. NAZAROVA, G. NABIYEVA, G. GAIBULLAYEVA
TOSHKENT VILOYATI YANGIYO'L TUMANI SUG'ORILADIGAN BO'Z TUPROQLARNING CO_2 EMISSIYASI 129-136

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

№4/2025

TUPROQSHUNOSLIK

Г. ЮЛДАШЕВ, М. ИСАГАЛИЕВ, Н. ХАКИМЖАНОВА
ГАЛОГЕОХИМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ БОЛОТНЫХ СОЛОНЧАКОВ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ГЕОХИМИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ 136-144

С. М. ЛУКИН
ФОСФАТНОЕ СОСТОЯНИЕ ДЕРНОВО-ПОДЗОЛИСТОЙ СУПЕСЧАНОЙ ПОЧВЫ ПРИ ДЛИТЕЛЬНОМ ПРИМЕНЕНИИ УДОБРЕНИЙ 145-152

Y.SUYAROV, A. RUZIYEV, D. O'MIRZOQOV
TOSHKENT VILOYATI SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YER MAYDONI TUPROQLARI UNUMDORLIGINI BAHOLASH 153-160

J. RAXIMOV, SH. NURMATOV, D. SHADMANOV
KULIS POLOSALARI ORASIDAGI MASOFALARNING SHAMOL EROZIYASI VA PAXTA HOSILIGA TA'SIRI 161-165

G. MIRXAYDAROVA, M. RUZMETOV
SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING SIFATI VA SOG'LOMLIK DIAGNOSTIKASI 166-169

AGROTUPROQSHUNOSLIK

N. ABDURAXMONOV, A. QORAYEV
LALMIKOR HUDUDLARDA TUPROQ DEGRADATSIYASINI OLDINI OLISHNING SAMARALI AGROTEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH 170-176

H. ARTIKOVA, S. NAZAROVA, R. KURVANTAYEV
RESEARCH OF THE AGROPHYSICAL CONDITION OF IRRIGATED GRASSLAND SOILS (ON THE EXAMPLE OF KARAKOL DISTRICT) 176-181

О.А. САВОСЬКИНА, М.А. МАЗИРОВ, Н.С. МАТЮК, Р. КУРВАНТАЕВ, О.В. ТИМОФЕЕВ, И.А. ЗАВЕРТКИН
ДЕЙСТВИЕ РАЗНОГЛУБИННЫХ ПРИЕМОВ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ НА ИЗМЕНЕНИЕ МОЩНОСТИ ПАХОТНОГО СЛОЯ 182-189

D. TURDIMURADOV, A. AXMEDOV, J. TURDALIYEV
ISHTIXON TUMANI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARINING XOSSA VA XUSUSIYATLARI 190-193

R. KURVANTAYEV, N.H. KHAKIMOVA, S.M. NAZAROVA, M.A., ISTAMOVA
NUTRIENT CONTENT IN IRRIGATED GRASSLAND SOILS OF THE BUKHARA OASIS 193-197

G. SOTIBOLDIYEVA, M. AKROMJONOVA
KOLMATAJLANGAN TUPROQLARDA O'SIMLIKLARNING BIOLOGIK SINGDIRISH KOEFFITSIENTLARI (BSK) VA ELEMENTLARNING GEOKIMYOVIY DIFFERENSIASIYASI: SHAFTOLI, BODOM VA PISTA MISOLIDA 198-202

SH. OLIMJONOV, G. AMANOVA, U. ISHIMOV, X. XALBEKOVA, I. KOSIMOV, J. ZIYAVITDINOV
OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQLARINING SUVDA ERIYDIGAN TUZLAR TARKIBI 203-208

SH.TURDIMETOV, Z. XUDAYBERDIYEVA
MIRZACHO'L VOHASI SHAROITIDA TURLI AGROSENOZLAR UCHUN TUPROQ BONITIROVKASI NATIJALARI 209-213

AGROKIMYO

J. KO'ZIYEV.
G'O'ZA PARVARISHIDA AZOT, FOSFOR VA KALIYLI O'G'ITLARNI BIR VAQTDA QO'LLASHNING ILMIY ASOSLARI 214-221

А. МАНЖИКОВА, З. СОХОРОВА, Р. БАМБЕЕВА, Л. САНГАДЖИЕВА, О. ТЮЛЮМДЖИЕВА, И. ФАДЕЕВА, Р. КУРВАНТАЕВ
ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И НАКОПЛЕНИЯ МИКРОЭЛЕМЕНТОВ В АРИДНЫХ УСЛОВИЯХ 222-231

Н. НУРМЕТОВ, Х. КАРИМОВ
ШОЛИ ЎСИМЛИГИ ОРГАНЛАРИДА РУХ (ZN) ЭЛЕМЕНТИНИНГ БИОАККУМУЛЯЦИЯСИ 232-235

G. ALEVATDINOVA, T. BERDIYEV
ORGANIK, ORGANOMINERAL O'G'ITLARNI G'O'ZA EKINI MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI 236-239

N. IBRAGIMOV, J. ISMAYILOV, B. TILLABEKOV
TIPIK BO'Z TUPROQLAR SHAROITIDA KALIY MUVOZANATI VA PAXTA HOSILI 240-245

SH. OLIMJONOV, G. AMANOVA, U. ISHIMOV, X. XALBEKOVA, I. KOSIMOV, J. ZIYAVITDINOV
OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQLARINING SUVDA ERIYDIGAN TUZLAR TARKIBI 245-250

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

№4/2025

AGROKIMYO

Ш. ЙУЛДОШЕВ. У. НИЯЗМЕТОВ
ФОРМИРОВАНИЕ ГУМУС ПОДОБНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОКИСЛИТЕЛЬНОЙ ПЕРЕРАБОТКЕ ПТИЧЬЕГО ПОМЁТА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРОДУКТИВНОСТЬ ХЛОПЧАТНИКА 251-259

X. БАТИРОВ, Б. ПАРДАЕВ
ЗИМНИЕ КУЛЬТУРЫ ПРИ ЭФФЕКТИВНОМ ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИИ АГРОЦЕНОЗОВ 259-265

I. SALAYMONOV, B. SHONAZAROV
MINERAL O'G'ITLAR ME'YORLARIGA BOG'LIQ HOLDA TUPROQDAGI ALMASHINUVCHI KALIY DINAMIKASINING O'ZGARISHI 265-270

H. MO'YDINOV, J. BEGZOD
MA'DANLI O'G'ITLARNI KUZGI BUG'DOYDAN QOLADIGAN ILDIZ-ANG'IZ QOLDIQLARI VA DON HOSILDORLIGIGA TA'SIRI 270-272

D. GULBOYEVA, D. OCHILTOSHEVA, M. ALIYEVA, O. NAZIRALIYEV, O. GELDIYEV
SANOAT CHIQINDI SUVLARDAGI CU(II) VA ZN(II) IONLARINING EKOLOGIK TA'SIRI VA ULARNI ANIQLASH MUHIMLIGI 273-279

JELMER BUIJS
RESIDUES OF PLANT PROTECTION PRODUCTS IN SOILS OF THREE FARMING SYSTEMS AT THE SPNA KOLLUMERWAARD EXPERIMENTAL FARM IN THE NETHERLANDS 279-287

O. NORMURATOV
POMIDORNING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA MINERAL, ORGANIK O'G'ITLAR HAMDA ORGANO-MINERAL KOMPOSTLARNING TA'SIRI 287-290

S. MAKHAMMADIYEV, T. ABDRAKHMANOV, D. SATTAROV, Z. JABBAROV, SH. ABDULLAYEV
SALINITY OF SOILS OF THE DRIED-UP BOTTOM OF THE ARAL SEA 291-297

T. SHAMSIDDINOV, G. MIRXAYDAROVA, M. KARIMOV
QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARIDA O'G'ITLAR ISTE'MOLINI OPTIMALLASHTIRISH 298-304

TUPROQ MELIORATSIYASI

Z. JABBAROV, T. ABDRAKHMANOV, S. MAKHAMMADIYEV, SH. ABDULLAEV, O. IMOMOV, U. NOMOZOV, K. IDRISOV, BOGUSŁAW WIŁKOMIRSKI
OROL DENGIZINING QURIGAN TUBI SHARQIY QISMIDA OG'IR METALLARNING MIQDORIY TAHLILI VA GEOKIMYOVIY DINAMIKASI 305-316

D. BERDIYEV, X. BURIYEV
MUBORAK TUMANI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARINING SHO'RLANISH KO'RSATGICHLARI 317-322

Z. JABBAROV, T. ABDRAKHMANOV, PETER KOVÁČIK, SH. ABDULLAEV, O. IMOMOV, U. NOMOZOV, LUBOS SMUTKA
ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF SAND AND SOIL SEDIMENTS ON PLANT GROWTH AT THE BOTTOM OF THE DRY ARAL SEA 322-332

TUPROQSHUNOSLIKDA GAT TEXNOLOGIYALARI

***Ш. БОБОМУРОДОВ,* У. НИЯЗМЕТОВ**
ОПТИМАЛЬНОЕ РАЗМЕЩЕНИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ НА ОСНОВЕ СВОЙСТВ ПОЧВ И ПРИРОДНЫХ ФАКТОРОВ 333-337

B. SHERMANOV
ASSESSMENT OF SOIL EROSION PROCESSES IN THE SANGZAR RIVER BASIN USING GEOINFORMATION SYSTEMS AND EMPIRICAL MODELS 338-343

M. RUZMETOV, Q. BEKCHANOV
QISHLOQ XO'JALIGIDA UCHUVCHISIZ UCHISH QURILMALARI SAMARADORLIGI 344-349

B. ALINAZAROV
DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGI 350-355

M. RAUPOVA, S.TOJIXONOVA, O. OTAJONOVA, H. QURBONBOYEVA
TRANSBOUNDARY CHALLENGES IN SOIL SCIENCE: INNOVATIVE APPROACHES FOR SUSTAINABLE SOLUTIONS 356-361

Qishloq xo‘jaligi vaziri ABDURAXMONOV IBROHIM YULCHIYEVICHning 5-dekabr – «Butunjahon tuproq kuni»ga bag‘ishlangan «Tuproqshunoslikning transchegaraviy muammolari va ular yechimining innovatsion usullari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanidagi NUTQI



Assalomu alaykum, Hurmatli anjuman ishtirokchilari va mehmonlar!

Barchangizni, «Butunjahon tuproq kuni» munosabati bilan tashkil etilgan “Tuproqshunoslikning transchegaraviy muammolari va ular yechimining innovatsion usullari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ko‘rib turganimdan bag‘oyat xursandman.

Jahon miqyosida tuproqlar unumdorligini saqlash va tuproq resurslaridan barqaror foydalanishga e’tiborni kuchaytirish maqsadida 2014 yildan boshlab, 5-dekabr Butunjahon tuproq kuni sifatida nishonlab kelinmoqda.

Dunyo bo‘yicha bir yilda 24 mlrd tonna unumdor tuproq va 15 mlrd daraxt yo‘qotilmoqda. Bu pulga aylantirilganda 40 mlrd dollarni tashkil etadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, 100 dan ortiq mamlakatlardagi 2,6 milliard odam tuproq degradatsiya va cho‘llanish ta’siridan aziyat chekmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda so‘nggi 30 yilda kuzatilgan tuproq gumus miqdorining 15 foizgacha pasayishi natijasida 2,7 mln gektar (74%) sug‘oriladigan tuproqlarida unumdorlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelgan.

Butun dunyoni tashvishga solayotgan iqlim o‘zgarishi yerlar degradatsiyasi jarayonlarini kuchaytirib, qishloq xo‘jaligi yerlari mahsuldorligi va tuproq unumdorligini pasaytirmoqda. Tuproq ustki qoplamining degradatsiyaga uchrashi global darajada oziq-ovqat xavfsizligiga, ekotizimlar salomatligiga va

qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu sababdan, dunyo hamjamiyati BMTning Cho‘llanishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasi (1JSSB) va iqdim o‘zgarishi konferensiyalarining yig‘ilishlarida yer degradatsiyasiga qarshi kurashish va tuproq unumdorligini oshirish bilan bog‘liq masalalar asosiy yo‘nalish sifatida alohida sessiyalarda muhokama qilinmoqda. Bunga misol, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirligida o‘tkazilgan BMTning iqlim o‘zgarishi konferensiyasining ochilish marosimidagi o‘z nutqlarida, mintaqamizda tuproq yemirilishi jarayonlari 30 milliondan ziyod aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi, kuchli chang va qum bo‘ronlari oddiy holga aylanib borayotganligi, ichimlik suvi tanqisligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligida hosildorlikning keskin pasayishi kabi muammolar tobora avj olib borayotganligiga alohida e’tibor qaratdilar.

Shu o‘rinda, tuproqni muhofaza qilish, tuproq degradatsiyasi bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlarini olimlar va amaliyotchilar ishtirokida ko‘rib chiqish hamda ilmiy va innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish va zaruriy tadbirlarni amalga oshirishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Bu borada, mamlakatimizda tuproq degradatsiyasi bilan bog‘liqholda yuzaga kelgan salbiy jarayonlarni bartaraf etish va uning oqibatlarini kamaytirish maqsadida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Hurmatli, Prezidentimizning 2022 yil 10 iyundagi PQ-277-son qaroriga muvofiq tuproqlarni saqlash, unumdorligini oshirish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab berildi.

Soha olimlari va mutaxassislarning birgalikdagi sa’y-harakati natijasida "Tuproqdarni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (02.02.2024 yildagi, O‘RQ-903-son) qabul qilindi.

Tuproqshunoslik yo‘nalishidagi faoliyatni yagona tizimga birlashtirish, ilm va amaliyot integratsiyasini ta’minlash maqsadida tuproq tadqiqotlarini amalga oshirish ishlari Tuproqshunoslik instituti tarkibida yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimizning 2024 yil 13 fevraldagi PQ-71-son qaroriga muvofiq paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish maqsadida 13 ta tuman tanlab olinib, joriy yilda 1692 nafar fermerlarning 54,2 ming gektar paxta maydonlarida gumusli o‘g‘itlarni qo‘llashga Davlat budjetidan 32,5 mlrd so‘m (1 ga uchun 1 mln so‘m/ subsidiya ajratildi.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ushbu ishlarni amalga oshirishga katta hissa qo‘shdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan, tarkibida gumusli bioo‘g‘itlarni qo‘llash uchun subsidiya ajratish amaliyoti ham tuproqshunoslik yo‘nalishidagi olimlarning uzoq yillik tajribalariga tayangan takliflariga asosan sinov tariqasida joriy etildi.

Natijada, 2024 yilga nisbatan g‘o‘za hosildorligi Popda - 16,2 s/ga (78,2 foiz), Jarqo‘rg‘onda - 14,8 s/ga (59,2 foiz), Ulug‘norda - 11,8 s/ga (46,4 foiz], Vobkentda - 8,2 s/ga (31,6 foiz], Sayxunobodda - 6,5 s/ga (43,5 foiz) oshgan.

Birgina, tuproq unumdorligi va paxta hosildarligini oshirish bo‘yicha erishilgan natija, ilmiy asoslarga tayanib, joriy etilgan tajribalarning naqadar samarali ekanligini amalda yana bir bor isbotladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, shu o‘rinda tuproqshunoslik yo‘nalishida raqamlashtirish ishlariga ham

to‘xtalib o‘tishni lozim deb hisoblayman, "Raqamli qishloq xo‘jaligi" yagona integratsion platformasida "Yer degradatsiyasi" geoportali yaratilib, unda 3,3 mln ga tuproq sifati (bonitet balli), 2,8 mln ga sho‘rlanishi (juda kuchli, kuchli, o‘rta va kam) va 3,1 mln ga agrokimyoviy kartogrammasi (gumus va mineral moddalar miqdori) natijalari GIS xaritalarida aks ettirildi.

Shu bilan birga, Geoportalda tuproq tadqiqot ishlarini o‘tkazish uchun namunalar olinadigan maydonlarni geolokatsiyaga bog‘langan holda onlayn rejimda kuzatish maqsadida "IeSh Marz" mobil ilovasi ishga tushirilib, 14689 ta tuproq sifati, 16269 ta tuproq sho‘rlanishi, 331729 ta agrokimyoviy tahlil va 63 ta tuproq monitoringi uchun namunalar olingan nuqtalar geolokatsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.

Bugungi kunda, tuproqlarimiz bo‘yicha majud ma’lumotlarga tayangan holda yerdan foydalanuvchilarga sho‘r yuvish, o‘g‘itlash, ishlov berish va boshqa agrotexnik tadbirlarni bajarishda ilmiy asoslangan takliflarni elektron ko‘rinishda taqdim etish imkoniyatini yaratish davr talabi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Institut ilmiy faoliyatida ham o‘sishga erishildi, jumladan so‘nggi 3 yilda fan doktorlari soni 30 foizga, falsafa doktori (RO) 35 foizga va yosh olimlar 1,6 barobarga oshgan bo‘lsa, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ajratiladigan mablag‘lar hisobidan 9 ta "Tuproq klinikasi" mobil laboratoriyalari tashkil etildi hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun Jahon banki mablag‘lari hisobidan 1,9 mln dollar miqdoridagi mablag‘ yo‘naltirildi.

Mazkur anjuman doirasida muhokama qilinadigan tuproqshunoslik sohasidagi ilg‘or ilmiy yutuqlar va innovatsion yechimlar mamlakatimizning bebaho boyligi bo‘lgan tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan sifatli va yuqori hosil olishga o‘z hissasini qo‘shishiga ishonaman.

So‘zimning yakunida, insoniyat va barcha jonzotlar uchun tabiiy ozuqa yaratish vositasi bo‘lgan tuproqning tabiatdagi o‘rni beqiyos va uni hech narsa bilan almashtirib bo‘lmasligini ta’kidlagan holda, tabiatning noyob ne’matlaridan biri bo‘lgan tuproq qoplamini saqlash, asrash, muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish orqali mamlakatimizning oziq-ovqat havfsizligini ta’minlash, organik (ekologik toza) mahsulot ishlab chiqarishga hamda halqimizning turmush farovonligini yanada oshirishga o‘z hissasini qo‘shayotgan soha mutaxassislari va barcha qishloq xo‘jaligi xodimlarini 5-dekabr Butunjahon tuproq kuni bilan tabriklayman hamda bugungi anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

RESPUBLIKAMIZ TUPROQLARI UNUMDORLIGINI OSHIRISH BORASIDA TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTINING SO‘NGGI YILLARDAGI FAOLIYATI

Yer – tabiiy resurslar tarkibida jamiyat uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Yer va tuproq resurslari eng asosiy tabiiy boyliklar hisoblanib, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish mamlakat qishloq xo‘jaligi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Yer sharining umumiy quruqlik maydoni – 149,94 mln. km² (≈ 14,994 mlrd gektar)ni tashkil etadi. FAO va boshqa manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan maydon 4 780 mln. gektar bo‘lib, shundan ekin ekiladigan yerlar 1 570-1 580 mln. gektarni, ya’ni umumiy quruqlik maydonning taxminan 10-11% ini tashkil etadi.



Bobomurodov Shuhrat Mehribonovich,
direktor, biologiya fanlari doktori, professor

Bugungi kunda sayyoramizda yuzaga kelgan vaziyat, birinchi navbatda, atrof-muhitning ekologik jihatdan buzilishi, iqlim o‘zgarishlari, qurg‘oqchilik va sahrolanish jarayonlarining davom etayotganligi va kuchayotganligi, bevosita tuproqlar unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda. Bu muammoni barcha davlatlarning birgalikda harakati natijasida hal etish mumkin.

FAOning ma’lumotlariga ko‘ra bugungi kunda dunyo tuproqlarning deyarli 40 foizi, Markaziy Osiyo tuproqlarining esa 50 foizdan ko‘prog‘i eroziya, zichlashish, sho‘rlanish, organik moddalar hamda, oziqa elementlarining yuvilishi, ifloslanish va boshqa jarayonlar tufayli degradatsiyaga uchragan.

Yerlar degradatsiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlari duch kelayotgan eng jiddiy ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Mintaqadagi tuproqlar asosan chorva mollarini keragidan ortiq boqilishi, o‘rmonlarning kesilishi, sho‘rlanish va eroziya tufayli buzilmoqda. Bu holat mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi, bioxilma-xilligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi tuproqlaridagi yuzaga kelgan muammolarni birgalikda hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki mutaxassislari fikriga ko‘ra, 2050 yilga borib, mintaqada qishloq xo‘jaligi hosildorligi 20-40 foizga pasayishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi tuproqlarida sahrolanish, suv va shamol eroziyasi, degumifikatsiya va sho‘rlanish kabi degradatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Jumladan, mamlakat sug‘oriladigan yerlarining 1,94 mln. ga (45%) ikkilamichi sho‘rlanish jarayonlariga, 800 ming ga (18,6%) sug‘oriladigan yerlar irrigatsion eroziyaga va 2,15 mln. ga (65%) ekin maydoni shamol eroziyasiga uchragan.

Masalan, Orolbo‘yi hududida joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlari jami 766 ming gektar sug‘oriladigan yerlarining 91,4 foizi

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.

turli darajada sho‘rlangan. Shu bilan birga, mintaqamizning eng katta fojiasi bo‘lgan Orol dengizining qurishi, nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarining, balki butun dunyo davlatlarining dolzarb ekologik muammosiga aylangan. Qurigan dengiz tubidan har yili ko‘tarilayotgan 140 mln. tonnaga yaqin tuz Norvegiya, Grenlandiya va hatto Antarktidada ham uchramoqda.

O‘zbekiston Respublikasida tuproq muhofazasi va undan oqilona foydalanish sohasida izchil davlat siyosati olib borilmoqda. Mamlakatimizda 2020-2025 yillar mobaynida tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish, tuproqlarda sodir bo‘layotgan salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida 50 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-fevraldagi «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5065-son hamda, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi PQ-4575-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 25-martdagi PQ-179-son «Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-son «Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.07.2022 yildagi 389-son “Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 20-fevraldagi 97-son «Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda, 2025-yil 22-yanvardagi 33-son «Tuproq monitoringini amalga oshirish hamda tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari shular jumlasidan.

Ushbu yo‘nalishda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan ham bir qator ilmiy-amaliy loyihalar hamda, amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2020-yilda respublika sharoitida ilk bor tuproq tadqiqotlarni tez va sifatli o‘tkazish, joyning o‘zida natijalar olish imkonini beruvchi, tuproqning kimyoviy tarkibi bo‘yicha birlamchi tezkor va sifatli ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida jahon andozalariga mos keladigan «Tuproq klinikasi» mobil laboratoriyalari tashkil etildi. Ushbu mobil laboratoriya respublikamizda faoliyat yuritayotgan agroklaster, fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar uchun tezkor ravishda yer maydonlarining meliorativ holatini, agrokimyoviy xossa-hususiyatlarini aniqlash va zarur agrotexnik tadbirlarni qo‘llash imkonini beradi.

2022-yilda institutning Andijon, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm mintaqaviy bo‘linmalari tashkil etildi. Mintaqaviy bo‘linmalarda tuproq tadqiqotlarini sifatli o‘tkazish, yerdan foydalanuvchilarga tuproq xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida jami 7,1 mlrd.

so‘m miqdorida tuproq tahlillari uchun laboratoriya asbob-uskunalari va «Tuproq klinikasi» mobil laboratoriyalari xarid qilindi. Hozirgi kunda institut va uning tizim tashkilotlarida jami 9 ta shunday mobil laboratoriyalari faoliyat yuritmoqda.

2020-2024 yillar mobaynida institutda jami 92 nafar xodim, shundan 42 nafar ilmiy xodim (8 nafar fan doktori, 16 nafar fan nomzodlari va falsafa doktorlari) 21 ta amaliy va innovatsion loyihalar doirasida tadqiqotlar olib borgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida geoaxborot texnologiyalari asosida Orol dengizi qurigan tubi degradatsiyaga uchragan tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini aniqlash va o‘rta masshtabli tuproq xaritasini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

26 ta «ISO/TC 190/SC 2 Sampling» uslublari va «ISO/TC 190/SC 3 Chemical and physical characterization (tuproqning kimyoviy va fizikaviy tavsifi)» xalqaro usullari sinab ko‘rildi va respublikamizda qabul qilingan usullar bilan solishtirma o‘rganildi.

Halqaro standart uslublarini respublikamiz tuproq-iqlim sharoitlarida qo‘llash texnologiyasi hamda «Xalqaro tuproq kimyoviy tahlillari standarti (ISO/TC 190 SOIL QUALITY) uslublaridan tuproq tadqiqotlarida foydalanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma» ishlab chiqildi.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Yevropa davlatlari, Xitoy va boshqa ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda tuproq sifatini kompleks baholashning zamonaviy uslubi sifatida foydalanilayotgan tuproq sifati indekslari (SQI) ko‘rsatkichlari O‘zbekistonda ham foydalanish joriy etildi. Respublikamiz sharoitida tuproq sifati indekslari (SQI) ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda tuproq sifatini baholash bo‘yicha dastlabki ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston sharoitida birinchi marotaba sho‘rlangan tuproqlarni kimyoviy melioratsiyasi tizimiga yangi usul – «Biosolvent» polimer kompozitsiyasi yordamida yuvish kiritildi. Shuningdek, ushbu jarayonlarni o‘rganishga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish yuzasidan «Sho‘rlangan tuproq» mobil ilovasi ishlab chiqildi va undan keng miqyosda foydalanilmoqda.

«Tuproqqa turli xil mineral o‘g‘itlarni bir vaqtning o‘zida qo‘llash bilan birga kultivatsiya qilish universal kultivatori»ning chizmasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan patent olindi. Bu mineral o‘g‘itlarni avtomatik ravishda ekinlarga individual (personal) geofazoviy-smart o‘g‘itlash tizimini amalga oshirish va yangi turdagi agregat avlodini yaratilish imkoniyatini bergan, pirovard natijada dala konturining oziqa elementlari bilan tengligini ta’minlaydi va tuproqlarning ekologik ifloslanishini oldini olishga hamda, yerdan foydalanuvchilarning iqtisodini tejashga xizmat qiladi.

Mirzaobod tumani tuproqlarini kompleks tahlil qilish asosida ushbu hudud tuproq holati ma’lumotlari bazasi ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan tegishli mualliflik guvohnomasi olingan.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer maydonlarining ftor birikmalari bilan zaharlanish darajasidan kelib chiqqan holda nisbatan chidamli bo‘lgan o‘simliklarning tur va navlarini tavsiya etilgan, mahalliy xom-ashyolar asosida (organomineral) ftor birikmalarini toksik xususiyatlarini kamaytiruvchi bioprepa-ratni qo‘llash orqali ekologik toza mahsulotlar olish agrotexnologiyasi ishlab chiqildi.

Tuproq tarkibidagi pollyutantlarning o‘simlik vegetativ organlariga va hosiliga ta’siri, o‘zaro bog‘liqligi, miqdoriy o‘zgarishlar aniqlandi. Turli darajada zaharlangan tuproqlarda ularni sog‘lomlashtirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalar qo‘llanildi.

Mirzaobod tumani tuproq holati ma’lumotlari bazasi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan mualliflik guvohno-

masi olindi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi tahlil qilish uslublaridan foydalangan holda tuproq holatini aniqlashga qaratilgan 400 dan ortiq intellektual modellar ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda institut va tizim tashkilotlarida jami 325 nafar, shundan, markaziy institutda 121 nafar xodim, shu jumladan, 56 nafar ilmiy xodim faoliyat yuritmoqda. Shulardan, 1 nafar akademik, 8 nafar fan doktori, 31 nafar fan nomzodlari va falsafa fanlari doktorlari. Institutning bugungi kundagi salohiyati 71,4% ni tashkil etmoqda.

Joriy 2025 yilda institut olimlari tomonidan kompleks ishlov berish orqali tuproq unumdorligini oshirishning agrotexnologiyasini ishlab chiqish, sug'orma va lalmikor hududlarda tuproq degradatsiyasini oldini olishning samarali agrotexnologiyasini ishlab chiqish, sug'orish eroziyasi jarayonida tuproqdagi organik moddalarni yuvilishini oldini olishga qaratilgan agrotexnologiya ishlab chiqish, to'g'ridan-to'g'ri o'lchovlar hamda masofadan zondlash, sun'iy intellekt va tuproq spektroskopiyasi usullarini o'zaro birlashtirish orqali tuproqdagi organik uglerodni baholash, shuningdek, bashorat qilish texnologiyasini ishlab chiqish, degradatsiyaga moyil tuproqlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarini yaratish, tuproqlar sho'rlanishiga qarshi kurashishning integratsiyalashgan agrotexnologiyasini ishlab chiqish, masofadan zondlash va geoaxborot tizimlari texnologiyalari yordamida eroziyaga uchragan hududlarning zamonaviy monitoring texnologiyasini yaratish kabi yo'nalishlardagi 12 ta ilmiy-amaliy loyihalar doirasida izlanishlar olib borilmoqda.

Mazkur izlanishlar natijasida so'nggi 5 yilda jami 1064 ta ilmiy nashrlar chop etilgan. Shundan, 10 ta monografiya; 6 ta o'quv qo'llanma; 26 ta ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar va ilmiy uslubiy qo'llanmalar; Scopus va Web of Science bazasida indeksatsiyalanadigan nashrlarda – 42 ta, mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda – 980 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, 2 ta patent va sohani raqamlashtirish yo'nalishida Intellektual mulk agentligining 12 ta dasturiy ta'minot guvohnomalari olingan.

Tuproqshunoslik yo'nalishida respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy izlanishlarni keng yoritish maqsadida institut huzurida ilk bor «Tuproqshunoslik va agrokimyo» ilmiy jurnali tashkil etildi. Mazkur ilmiy jurnal, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2022-yil 29-dekabrdan 03.00.00-Biologiya fanlari bo'yicha, 2023-yil 31-yanvardan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritildi.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida oliy malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, institut huzurida DSc.25/30.12.2019. Qx/B.43.01 raqamli qishloq xo'jaligi va biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) va falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengash faoliyat yuritmoqda.

2020-2025 yillar mobaynida institutning 27 nafar ilmiy xodimi, jumladan 4 nafari fan doktori va 23 nafari falsafa fanlari doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Shuningdek, so'nggi 6 yil mobaynida institutning 4 nafar ilmiy xodimi «Professor» va 14 nafar ilmiy xodimi «Katta ilmiy xodim» ilmiy unvonini oldi.

Har yili respublikamizdagi tuproqshunoslik yo'nalishidagi oliy ta'lim mussasalarining bakalavr va magistr talabalari institutda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashmoqda.

Shu bilan birga, 2020-2025 yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Namangan, Buxoro, Andijon, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi jami 2519,0 ming gektar sug'oriladigan

tuproqlar sifat jihatidan baholandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Namangan, Buxoro, Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi jami 2199,8 ming gektar sug‘oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy kartogrammalari tuzildi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan, Sirdaryo, Navoiy, Farg‘ona, Andijon, Jizzax, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlarining jami 2426,2 ming gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari sho‘rlangan tuproqlarini xaritaga tushirish ishlari bajarildi hamda. ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar agroklasterlar, fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilarga taqdim etildi.

So‘nggi yillar mobaynida Institut olimlari tomonidan respublikaning barcha viloyatlarida faoliyat yuritayotgan klasterlar va ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari ishtirokida hududlarda tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish, tuproqlarda kechayotgan degradatsiya jarayonlarini oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil olishda tuproqlarda o‘tkaziladigan agrotexnik tadbirlarga bag‘ishlangan 220 dan ortiq amaliy seminarlar tashkil etildi va bunda 9500 dan ortiq yerdan foydalanuvchilar ishtirok etdi.

Institutda dunyoning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy markazlari bilan xalqaro hamkorligi yanada rivojlanib, AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston, Tojikiston, Ozarbayjon kabi davlatlar tuproqshunos olimlari bilan o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ushbu mamlakatlarda tuproqshunoslik sohalarida erishilgan yutuqlarni respublika tuproqlariga keng joriy qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yaponiya davlatining «Japan Conservation Engineers & Co.LTD» kompaniyasi, Tsukuba universiteti Hayot va atrof muhit fanlari fakulteti Tuproq muhiti kimyosi laboratoriyasi (Yaponiya) hamda Germaniyaning Gannover shahridagi Leybnis universiteti tizimidagi Tuproqshunoslik instituti (Germaniya) bilan tuproqshunoslik sohasida hamkorlik to‘g‘risida anglashuv memorandumlari, Xitoy qishloq xo‘jaligi akademiyasi G‘arbiy qishloq xo‘jaligi instituti (Xitoy) bilan o‘zaro kelishuv va hamkorlik memorandumi, shuningdek, Xitoy o‘rmon xo‘jaligi akademiyasi Cho‘l o‘rmon xo‘jaligi tajriba markazi (Xitoy) va U.U. Uspanov nomidagi tuproqshunoslik va agrokimyo instituti (Qozog‘iston) bilan qo‘shma ilmiy hamkorlik shartnomasi imzolangan.

Institut va tizim tashkilotlarining bir qator xodimlari dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Germaniya, Portugaliya, Yaponiya, Xitoy, Misr, Hindiston, Tailand Qirolligi, Butan Qirolligi kabi davlatlarda malaka oshirib qaytishdi.

2022-yildan buyon 2 nafar institut xodimi ISO «Xalqaro standartlashtirish tashkiloti»ning «ISO/TC 190 Soil quality – Tuproq sifati» texnik qo‘mitasiga kuzatuvchi a’zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Shu bilan birga, institut tomonidan Birlashgan millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu loyihalar natijasida Navoiy va Buxoro viloyatlari sug‘oriladigan tuproqlarining holati va ularning degradatsiya jarayonlari Trends. Earth vositasi yordamida tahlil qilingan va baholangan.

Buxoro viloyati Buxoro tumanining degradatsiya xaritalari geoaxborot tizimi texnologiyalari yordamida ishlab chiqildi. Buxoro viloyatining Buxoro va Kogon tumanlari qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlari tuproqlarini tahlil qilingan va ushbu hududning mavjud tuproq tahlillari natijalari asosida tuproq holati ma’lumotlar bazasi yaratildi. Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tahlil usullaridan foydalangan holda tuproq holatini aniqlashga qaratilgan aqlli modellar ishlab chiqildi. Ushbu

modellar asosida tuproq resurslarini tez va samarali baholash, monitoring qilish ularni boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beruvchi dasturiy mahsulot (interaktiv veb-dastur) ishlab chiqildi. Yerdan foydalanuvchilar (fermerlar) uchun ishlab chiqilgan interaktiv veb-ilovadan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil etildi.

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlarining tuproqlari tahlil qilingan va ushbu hududning mavjud tuproq tahlillari natijalari asosida tuproq holati ma’lumotlar bazasi yaratildi. Dala sharoitida olingan natijalar va sun’iy intellekt tahlili va kalibrlash ishlari natijalari o‘zaro taqqoslandi. Ishlab chiqilgan modellar asosida tuproq resurslarini tez va samarali baholash, monitoring qilish va boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beruvchi dasturiy mahsulot (interaktiv veb-dastur) ishlab chiqildi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida intervensiya hududi uchun RECSOIL ish rejasi ishlab chiqildi.

Intervensiya sohalarida tegishli texnik manfaatdor tomonlar aniqlangan va jalb qilindi. Mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan salohiyatni oshirish tadbirlari amalga oshirildi. Tegishli mahalliy SLM amaliyotlarining dastlabki ro‘yxati aniqlandi.

Hozirda BMTning Oziq-ovqat va Qishloq Xo‘jaligi Tashkiloti FAO/GEF tomonidan moliyalashtirilayotgan «Recarbonization of Agricultural Soils (RECSOIL) data collection, analysis, and project implementation (Phase 2)» loyihasi doirasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda tuproqshunoslik sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimini keng joriy etish yuzasidan institutda «Tuproq geografik axborot tizimlari va pedometrika bo‘limi» tashkil etildi. Mazkur bo‘lim tomonidan tuproqshunoslikda sun’iy intellekt texnologiyalarini tadbiq etish yuzasidan Sirdaryo viloyatida ilmiy-amaliy loyiha bajarildi.

BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlik doirasida 2022-yilda institutda «Raqamli geoaxborot tizimi texnologiyalari markazi» tashkil etildi. Tadqiqotlarda olingan barcha tuproq ma’lumotlari Qishloq xo‘jaligi vazirligining «Onlayn» tarzdagi «Geoportal» va «CropAgro» geofazoviy axborot tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuborilmoqda.

Institutda sohani raqamlashtirish yo‘nalishida «Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tuproq resurslarini tezkor, aniq va samarali tahlil qilish, baholash va monitoring qilish bo‘yicha dasturiy mahsulot yaratish» mavzusidagi maqsadli amaliy loyiha amalga oshirildi.

Ushbu loyiha doirasida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida tahlil qilish uslublaridan tuproqlarni monitoring qilish va boshqarishda qo‘llash bo‘yicha xorijiy davlatlar ilg‘or tajribalari asosida Mirzaobod tumani tuproqlari misolida sun’iy intellekt texnologiyalari asosidagi tahlil qilish uslublaridan foydalangan holda tuproq holatini aniqlashga qaratilgan 400 dan ortiq intellektual modellar ishlab chiqilgan hamda, ishlab chiqilgan modellar asosida tuproq resurslarini tezkor, aniq va samarali tahlil qilish, baholash, monitoring qilish hamda boshqarish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar beruvchi dasturiy mahsulot UzSoilAI (interaktiv tizim) ishlab chiqilib, mazkur dasturiy ta’minotga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan tegishli mualliflik guvohnomasi olingan.

Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar davom ettirilib, BMTning Oziq-ovqat va Qishloq Xo‘jaligi Tashkiloti FAO/GEF tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida Buxoro viloyati Buxoro va Kogon tumanlari, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani uchun ham tuproq resurslarini tahlil qilish, baholash, monitoring qilish hamda boshqarish

yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar beruvchi dasturiy mahsulot UzSoilAI dasturi takomillashtirildi.

UzSoilAI dasturi qishloq xo‘jaligi sohasidagi resurslarni boshqarishda texnik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishni maqsad qiladi. Tuproq ko‘rsatkichlari haqida tezkor va aniq ma’lumotlar fermerlarga o‘g‘itlarni samarali qo‘llash, sho‘r yuvish me’yorlarini optimallashtirish imkonini beradi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va hosildorlikni oshiradi.

Mamlakatimizda tuproq resurslarini muhofaza qilish, ularning unumdorligini saqlash va oshirish borasida izchil davlat siyosati olib borilmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar tuproqlarda kechayotgan degradatsiya jarayonlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish va agrar sohada barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar mamlakatimiz tuproqlarining hozirgi holatini baholash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va tuproq unumdorligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga institutning mintaqaviy bo‘linmalari faoliyati joylarda ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining so‘nggi yillardagi faoliyati mamlakatimizda tuproq resurslarini muhofaza qilish va unumdorligini oshirish sohasida mustahkam ilmiy-amaliy bazani yaratdi. Umuman olganda, Institut olimlari tomonidan olingan ilmiy natijalar, yaratilgan innovatsion agrotexnologiyalar va ishlanmalar, sohani raqamlashtirish, sohaga xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilishi agrar sohaning barqaror rivojlanishi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va tuproq degradatsiyasining oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tuproqshunoslar jamiyati a'zosi, professor LAURA BERTA REYES SANCHES 5- dekabr – “Butunjahon tuproq kuni”ga bag‘ishlab“TUPROQSHUNOSLIKNING TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARI VA ULAR YECHIMINING INNOVATSION USULLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjuman ishtirokchilariga tabrik so‘zi

Hurmatli xonimlar va janoblar, 2002-yildan boshlab, ya’ni Xalqaro tuproq-shunoslar ittifoqining Tailandda bo‘lib o‘tgan 17-Butunjahon tuproqshunoslik kongressida 5 dekabrni «Butunjahon tuproq kuni» deb e’lon qilganidan buyon Xalqaro tuproqshunoslar ittifoqi uchun 5-dekabr eng muhim bayramlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

5-dekabr, barchamiz uchun juda muhim kun. Tuproq resurslari hayot uchun asosdir. Ammo butun dunyo bo‘ylab unumdor tuproqlarni yo‘qotish muammosi juda katta muammolardan biridir. Uni turli salbiy jarayonlardan saqlab qolish uchun kurashish zarur. Shunday ekan, insoniyat uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan barcha tuproqlardan unumli foydalanish uchun ularni o‘rganish va tadqiq etish bizning ustuvor vazifa-miz bo‘lishi kerak. Unumdor tuproqsiz barqaror hayot yo'q. Men maslahat beraman-ki, rivojlanish tuproqni qanday ekanligini o‘rganishni talab qiladi.

Tuproqlar yer osti va yer usti biologik xilma-xilligini saqlash va tuproq salomatligini ta’minlash nafaqat ekotizim uchun balki butun sayyoramiz hayoti uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda transchegaraviy muammo uning barqarorligini ta'min-lash va kelajak avlodlar uchun yashash sharoitlarini kafolatlash uchun juda muhimmi? – degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Biz bilamiz-ki, bugungi kunda dunyo tuproqlarining butunlay barqaror emasligi degradatsiyaning salbiy oqibat-lari insoniyat hayoti uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgani bor haqiqat. Shuning uchun ham bu global xalqaro muammoga birgalikda aql, ilm bilan innovatsion yondashuv orqali yechim topish juda



muhimdir. Bunda yeng kuchli qurol – bu ilm hisoblanadi.

Tuproq degradatsiyasi 21-asrning eng jiddiy muammosi sifatida va tuproq salomatligi uchun yangi sohani boshlash uchun men o'smirlarni Xalqaro tuproq fanlari ittifoqining "Ta'lim loyihasi" doirasida maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarni maktabga tayyorlash uchun birgalikda ishlashga taklif qilaman. Biz kelajak avlodlarni tuproqqa g'amxo'rlik qilishlari va o'g'itlar bilan ta'minlashlari, shuningdek, ilmiy bilimlarga, tuproqni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Chunki ular 10 va 15 yildan keyin dunyoning kelajakdagi fan siyosatchilari va olimlari bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tuproqshunoslar ittifoqi nomidan Tuproqshunoslik va agro-kimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan tuproqlar unumdorligini oshirish bo‘yicha barcha sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlayman. Shuningdek, O‘zbekiston Tuproqshunoslar jamiyati va tuproqshu-nos olimlari bilan tuproqlar barqarorligi-ga erishish yo‘nalishida hamkorlik qilish-dan mamnunman. Shu sababli, barchani «Butunjahon tuproq kuni» bilan samimiy muborakbod etaman. Vaqtingiz va e’tiboringiz uchun rahmat.

5-dekabr «Butunjahon tuproq kuni» TUPROQSHUNOSLIKNING TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARI VA ULAR YECHIMINING INNOVATSION USULLARI mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjumaniga sharh



Tuproqlar - yerdagi hayotning asosidir.

Tuproq resurslari inson hayotida, davlat farovonligida, shuningdek, sayyora ekotizimining barqarorligini ta'minlashda o'rni beqiyos.

Har yili dunyo bo'ylab "5-dekabr Butunjahon tuproq kuni" keng nishonlanadi. Joriy yil ushbu tadbir 4-dekabr kuni Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institut binosida yuqori saviyada o'tkazildi.



Mazkur tadbirning o'tkazishdan maqsad — tuproqshunoslik sohasida olimlar tomonidan bajarilgan ishlar, tadqiqot natijalari, tuproqlarni asrab-avaylash muhimligini anglash, tuproq resurslarining inson farovonligini oshirishdagi ahamiyatini eslatish, ekotizimlarni saqlash, xabardorlikni oshirish hamda keyingi qadamlar yuzasidan aniq va batafsil ma'lumotlar olishdan iborat.

Ha – albatta, go'yo bunday ogohlantirish bongiday yangragan chaqiriqlar ortida kelajakda katta ekologik fojialar haqida ko'z ko'rib, quloq eshitmagan haqiqatlar yashiringandek.

Keyingi yillarda «transchegaraviy muammo»si degan ibora barcha sohalarda qo'llanila boshlandi. Transchegaraviy muammo - bu transchegaraviy miqyosdagi ekologik muammo. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bu bir mamlakatda paydo bo'lgan yoki unga hissa qo'shgan va boshqasiga tasir qiladigan

chegaralanmagan ekologik muammodir. Bu kun mavzusi sifatida anjuman ishtirok-chilarining diqqat markazida bo‘ldi.

Anjuman jonli tarzda va ZOOM dasturi orqali yuqori saviyada o‘tkazildi. Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan tashkillashtirilgan ushbu tadbirda respublikamiz bo‘ylab 20 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari hamda tegishli tashkilotlardagi hududiy studiyalaridan jami 300 dan ortiq va 10 ga yaqin xorijiy davlatlarda qishloq va suv xo‘jaligi bo‘yicha soha olimlari, xalqaro tashkilotlar hamda, nufuzli oliy o‘quv yurti professor o‘qituvchi va talabalari ishtirok etdi. Anjuman ishi dastlab ishtirokchilar guvohligida institutning qayta ta’mirlangan binosining ochilishi rasmiy lenta qirqish marosimidan boshlandi. Shundan so‘ng, mehmonlar institut direktori Shuhrat Bobomurodov hamda, institut ma’muriyati xodimlari hamrohligida qishloq xo‘jaligida, xususan yer resurslarining asosini tashkil yetuvchi tuproqlardan samarali va oqilona foydalanish, mavjud muammolarning yechimini topishda eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan «Analitik sinov laboratoriyasi» bo‘limida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi. Ishtirokchilar bu yerda real ish jarayonlari, tuproq tahlillarini amalga oshirishda yuqori aniqlik va tezlikka ega bo‘lgan yangi zamonaviy uskunalardan keng foydalanish tizimli yo‘lga qo‘yilganligiga amin bo‘lishdi.

Ochilish marosimi va faoliyat tanishuvidan so‘ng anjuman ishiga start berilib, ishtirokchilariga navbat bilan tabrik so‘zi berildi.











Shuningdek, markaziy institut muhtasham majlislar zalida taklif etilganlar qatorida Oliy majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi Ravshan Mamutov, Qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Qahramon Yuldashev, Qishloq xo'jaligi vazirligi «Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi» boshlig'i Oybek Soatov, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar vakillari ham hozir bo‘lishdi.

Ishtirokchilar ushbu qutlug‘ sana bilan barcha qatnashchilarni qizg‘in muborakbod etish bilan birga oxirgi yillarda respublikamizning qishloq xo‘jaligi tizimida, ayniqsa, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti olimlari tomonidan muhim ahamiyatga ega samarali ilmiy tadqiqotlar, amaliy va innovatsion loyihalar amalga oshirilayotganini aniq misollar yordamida tilga olib o‘tishdi. O‘z navbatida hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumli foydalanish, unumdor yerlarni muhofaza qilish borasida olib borilayotgan keng qamrovli ishlar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Shundan so‘ng 5-dekabr Butunjahon tuproq kuniga bag‘ishlab tayyorlangan videolavha taqdim etildi. Lavhada mamlakatimizda va qishloq xo‘jaligi tizimida olib borilayotgan izchil islohotlar, xorij davlatlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha ayni kunlarda institut tomonidan bajarilayotgan ishlar aks etgan yorqin videolavha anjuman ishtirokchilarini mamnun etdi.










ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.

Anjuman davomida mahalliy va xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan hamda ZOOM dasturi orqali ishtirok etgan agrar soha ilmiy-tadqiqot institutlari va nufuzli institut professor olimlariga so‘z navbati berildi. Jumladan, Germaniya Respublikasining nufuzli Gannover Universiteti Tuproq-shunoslik instituti direktori, professor Georg Guggunberger, Moskva davlat universiteti Tuproqshunoslik fakulte-ti Prezidenti, RFA muxbir a’zosi, professor Sergey Alekseevich Shoba, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi, D.N. Pryanishnikov nomidagi Butunrossiya agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy direktori Aleksey Anatolyevich Zavalin, Rossiya davlat agrar universiteti – K.A. Timiryazev nomidagi Moskva qishloq xo‘jaligi akademiyasi professori Mazirov Mixail Arnoldovich, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, Andrey Gennadievich Bolotov, Butunrossiya organik o‘g‘itlar va torf ilmiy-tadqiqot instituti - Yuqori Volga Federal qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot markazi rahbari Sergey Mixaylovich Lukin, «V.V.Dokuchayev nomidagi Tuproqshunoslik instituti» professori Boris Fedorovich Aparin, Niderlandiya davlatidan «Buijs Agro-Services» rahbari Elmer Beys, O‘zMU «Biologiya fakulteti» dekani, professor To‘xtasin Abdrahmonov, «O‘zdaverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti direktori, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi Ruhiddin To‘rayev, Farg‘ona davlat universiteti professori G‘ulomjon Yuldashev, «AgroEkoBiotexnologiya» Ilmiy markazi rahbari, O‘zbekiston Milliy universiteti professori Gafurova Lazizaxon Akramovna, O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya va ekologiya fakulteti, Tuproqshunoslik kafedrasi mudiri, professor Zafarjon Jabbarov va boshqa qishloq xo‘jaligi tarmog‘i vakillari o‘z ma’ruzalarida qishloq xo‘jaligining, xususan tuproqshunoslik sohasida keyingi yillarda erishilgan yutuqlari va muammolari, ilmiy hamkorlikni kuchaytirish kabi masalalar bo‘yicha atroflicha fikr yuritdi.









Ma’ruzalardan so‘ng, anjuman kun tartibiga ko‘ra, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti rivojiga katta hissa qo‘shgan xodimlar va yosh mutaxassislarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Taqdirlash marosimidan so‘ng, tadbirning asosiy qismida, bir nechta ma’ruzalar tinglandi. Anjumanda e’tirof etilganidek, hozirgi kunda dunyo bo‘ylab yerlar degradatsiyasining abgor ahvolga uchrashi tufayli 100 dan ortiq davlatlarda taxminan 2,6. milliard odamlar aziyat chekmoqda, bu raqamlar esa yer yuzining 33% dan ko‘prog‘iga ta’sir qiladi. Darvoqe, turli sanoat tizimlari faoliyati, foydali qazilma konlarini qazish, ulardan turli sohalarda foydalanish jarayonlari va antropogen omillar ta’sirida tuproq qoplamining kimyoviy ifloslanishi, ularning xossa-xususiyatlarini o‘zgarishi hamda unumdorligining pasayishi kuzatilmoqda. Yana tuproqlarning ifloslanishi turli shakllarda vujudga kelib, ularning degradatsiyasiga, unumdor tuproqlar hosildorligining sifat va miqdor jihatdan pasayishiga, ekotizim hamda transchegaraviy muammolarni shakllanishiga olib kelmoqda.







Muxtasar qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi tizimining rivojlanishi ko‘p jihatdan tuproqshunoslik va agrokimyo sohasi bilan bog‘liq. Shunday ekan bu ilmiy dargohda orttirilgan bebaho tajriba, zamonaviy yondashuvlar, yangi-yangi innovatsion g‘oya va usullar asosida mamlakatimiz agrar sohasida bugungi va kelajakdagi muhim, shuningdek, dolzarb bo‘lgan masalalarni ijobiy hal etish uchun xizmat qiladi.

Binobarin, bir hovuchi oltinga teng tuproqlarimizning davlat tomonidan g‘amxo‘rlik qilinishi ayni muddaodir. Kelajak avlodlarga sog‘lom tuproqlar qoldirish esa har birimizning burchimizdir...

Akbar XUDOYQULOV, jurnalist

TURLI REGIONLARDA SHAKLLANGAN GIPSLI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING AGREGATLAR TARKIBI

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich,*
biologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich,**
bo‘lim boshlig‘i, b.f.f.d, katta ilmiy xodim

**Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti*
***Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi*

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona, Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani hamda Samarqarqand viloyatining Jonboy tumani hududidlarida keng tarqalgan sug‘oriladigan o‘tloqi saz, bo‘z-o‘tloqi va tipik bo‘z tuproqlarning agregatlar tarkibi keltirilgan. Shuningdek, makroagregatlar va suvga chidamli agregatlar tuproqlarning gipslashganlik darajasiga bog‘lik holda va ularning regionlar kesimida o‘zgarishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘oriladigan o‘tloqi saz, bo‘z-o‘tloqi va tipik bo‘z tuproqlar, makroagregatlar va suvga chidamli agregatlar va gipslashganlik darajalari.

Аннотация. В статье приведен агрегатный состав орошаемых лугово-сазовых, сероземно-луговых почв и типичных сероземов, широко распространенных на территории Центральной Ферганы Ферганской области, Мирзаабадского района Сырдарьинской области и Джамбайского района Самаркандской области. Также изложены изменения макроагрегатов и водопрочных агрегатов в зависимости от степени гипсированности почв и в разрезе их регионального распространения.

Ключевые слова: орошаемые лугово-сазовые, сероземно-луговые почвы, типичные сероземы, макроагрегаты и водопрочные агрегаты, степень гипсированности.

Annotation. The article presents the general physical properties of irrigated meadow-saz, meadow–serozem and typical serozem soils widely distributed in the Central Fergana area of the Fergana region, the Mirzaobod district of the Syrdarya region, and the Jomboy district of the Samarkand region. The changes in macroaggregates and water-stable aggregates depending on the degree of gypsum content of soils and in the context of their regional distribution are also presented.

Key words: irrigated meadow–saz; meadow–serozem; typical serozem; macroaggregates and water-resistant aggregates, degree of gypsum content.

Kirish. Respublikada sug‘orishga yaroqli, unumdorligi nisbatan yuqori bo‘lgan tuproqlarning deyarli hammasi o‘zlashtirilib bo‘lingan. Keyingi yillarda o‘zlashtirilgan va yaqin yillarda o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan tuproqlar – unumdorligi past, sho‘rlangan, gipsli, toshloqli qiyin o‘zlashtiriladigan tuproqlar kategoriyasiga mansubdir. Ularni o‘zlashtirish juda mukammal har tomonlama chuqur o‘ylab amalga oshirilishi lozim. Shu ma’noda hozirgi kunda respublikamiz qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan sug‘oriladigan gipsli yerlardan samarali foydalanish, bunday qiyin melioratsiyalanadigan yerlardagi gips shakllari, gips chuqurligi va gipsli qatlam qalinliklarini hisobga olgan holda tuproqlarning gipslashganlik darajalarini aniqlash, ularning unumdorligini qayta tiklash, oshirish va boshqarish maqsadida tuproqlarning xossa-xususiyatlarini va meliorativ holatini yaxshilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tuproqshunoslikda tuproq unumdorligini belgilashda tuproqning agregatlar tarkibini o‘rganish yetakchi o‘rinda turadi, shu sababli tuproq fizikaviy

xossalarini o‘rganishdagi asosiy holatlar, respublikamizning yetakchi olimlari Q.M.Mirzajonov [1], L.Tursunov [2] R.Qurvantayev [3,4], Sh.Nurmatov [5] X.F.Botirov va boshqalarning [6] ilmiy ishlarida izohlab berilgan.

Tadqiqot obyekti - Tadqiqotlar obyekti sifatida turli regionlarda shakllangan turli darajada gipslashgan sug‘oriladigan o‘tloqi saz, bo‘z-o‘tloqi va tipik bo‘z tuproqlar tanlangan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tuproq strukturasi tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini belgilovchi muhim agronomik ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pgina izlanishlar natijasida hozirgi kunda tuproqlar agregat holatini izohlovchi ma’lumotlar to‘plangan. G‘o‘za-beda-g‘alla almashlab ekish tizimini, siderat, qo‘shimcha organik o‘g‘itlar va struktura hosil qiluvchi moddalar joriy qilish orqali sug‘oriladigan tuproqlarda makrostruktura hosil qilish va uning sabablarini aniqlash imkoniyatlari o‘rganilgan. sug‘oriladigan tuproqlarning struktura tarkibining o‘zgarishiga ko‘p yillik o‘tlar va beda ekish orqali ijobiy tomonga o‘zgarishi isbotlangan.

Q.M.Mirzajonov [1. B. 249] olib borgan tadqiqot natijalarida Sirdaryo viloyatining kam deflyatsiyaga uchragan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida sug‘orish va kollektor-zovur tarmoqlarini tozalashda chiqqan “il” zarrachalarni gektariga 600 t miqdorda solinganda tuproqning suv-fizikaviy xossalari yaxshilanib, unumdorligi ijobiy tomonga o‘zgargan, shu bilan birga granulometrik tarkibi og‘irlashib agregatlar miqdori ortgan, natijada tuproqlarning eroziyalanish jarayoni pasayishiga erishilgan.

L.Tursunovning [2. B. 101-167] o‘zoq yillik olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, agregatlar miqdori o‘z navbatida tuproqdagi suv, havo va issiqlik harakatiga yoki ularda sodir bo‘ladigan barcha jarayonlarga tasir ko‘rsatadi deb ta’kidlaydi.

R.Qurvantayev [3, 4. B. 24-26] va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarida, Xorazm viloyatida tarqalgan tuproqlarning suvga va granulometrik chidamli 5-3 va 3-2 mm kattalikdagi makroagregatlar miqdorlari tavsiflangan bo‘lib, granulometrik tarkibi og‘irligi hamda chirindi miqdorini haydov qatlamida pastki qatlamlarga nisbatan birmuncha ko‘pligi sababli 3-2 va 5-3 mm kattalikdagi suvga chidamli makroagregatlarning miqdori 3-5 va 4-6% ni va granulometrik chidamlilik 295 -503 g/sm2 tashkil etishi aniqlangan.

Sh.Nurmatov [5. B. 236] tomonidan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning suvga chidamli makro va mikroagregatlari o‘rganilganda, ular tuproqlarning deflyatsiyaga uchraganlik darajalariga ko‘ra turlicha bo‘lishi aniqlangan. Bunda suvga chidamli makroagregatlarning eng ko‘p miqdori shamol eroziyasiga uchramagan tuproqlarda 24,64% va eng kam miqdori 12,08%, kuchli darajada shamol eroziyasiga chalingan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.


X.F.Botirov va boshqalar [6. B. 100-102] ma’lumotlarida makrostrukturali agregatlar bilan bir qatorda tuproq unumdorligida <0,25 mm o‘lchamdagi mikrostrukturali agregatlarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ushbu agregatlarning tuproq strukturasidagi qulay ulushi O‘zbekistoning bo‘z tuproqlarda ekinlardan yuqori hosil olishni ta’minlaydi, biroq <0,25 mm li makrostrukturali agregatlar ko‘p bo‘lgan tuproqlarda havo almashinuvi yomonlashadi. Bunday tuproqlar tez namiqadi, quriganda esa zichlashib, qatqaloq hosil bo‘ladi.

Makroagregatlar (0,25 mm dan katta) biologik omillar, ya’ni o‘simlik ildizlarining qoldiqlari, zamburug‘lar va mikroorganizmlar ta’sirida mikroagregatlarni o‘zaro bir-biriga birikishidan hosil bo‘ladi.


Tadqiqot olib borilgan tuproqlarning agregatlar (quruq elash) tarkibi (10,11,12-rasmlar va 4-ilova keltirilgan. Jadval ma’lumotlariga asoslanib shuni aytish

mumkinki, o‘rganilgan turli darajada gipslashgan tuproqlarning agregatlar tarkibi turlicha ekanligi aniqlandi. Tuproq-larning agregatlik holatini o‘rganish juda katta amaliy ahamiyatga ega. Chunki agregatlarni, ayniqsa suvga chidamli makro - va mikroagregatlarni, mavjudligi tuproqdagi suv, havo, qolaversa issiqlik tartibini boshqarishda asosiy rolni o‘ynaydi.


O‘rganilgan tipik bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi saz tuproqlarning haydalma va haydalma osti qatlamlarida 10 mm dan katta agregatlar gipslashmagan tuproqlarda 41,99-52,81, 20,30-31,49, 28,02-37,63% ni, 0,25 mm dan kichik agregatlar miqdori esa profil bo‘ylab mos ravishda 2,98-3,43, 2,24-13,81, 2,23-11,36% ni, kuchsiz gipslashgan tuproqlarda mos ravishda 29,12-30,18, 26,86-45,92,29,87-43,80% ni, 0,25 mm dan kichik agregatlar miqdori 19,31-20,29, 2,58-21,58, 2,14-10,70% ni, o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda esa bu ko‘rsatkich biroz yuqoriroq 51,53-53,53, 35,51-45,36, 42,08-51,50% ni, 0,25 mm dan kichik agregatlar miqdori esa 2,91-3,30, 3,09-18,41, 2,84-9,45% ni tashkil etadi (1, 2, 3-rasmlar).



1-rasm. Avtomorf tuproqlarning makroagregat tarkibi, %



2-rasm. Yarim gidromorf tuproqlarning makroagregat tarkibi, %



3-rasm. Gidromorf tuproqlarning makroagregat tarkibi, %

Sug‘oriladigan o‘tloqi saz, tipik bo‘z va bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning gumus miqdorini hisobga olgan holda, gipslashmagan tuproqlarga nisbatan o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda 10 mm dan katta bo‘lgan makroagregatlar tarkibi va kesak miqdorining birmuncha yuqoriligi kuzatiladi. Bundan tashqari, o‘rganilgan zarrachalardan <0,25 mm o‘lchamli mikrostrukturali agregatlar tuproqning yuqori qatlamlardagiga nisbatan ayrim hollarda quyi qatlamda ko‘p hosil bo‘lganligi o‘tkazilgan tahlillarda aniqlandi. Bu hol sug‘orishlar natijasida mikrostrukturali agregatlarning tuproqning quyi qatlamlariga yuvilib tushishi va kalloid massa hosil qilishi bilan izohlanadi.

Agronomik nuqtai nazaridan eng qimmatli bo‘lgan 0,25 mm dan 10 mm gacha kattalikdagi agregatlar miqdori ham o‘rganilgan tuproqlarning gipslashganlik darajasiga bog‘liq holda farqlanadi. Eng ko‘p agronomik qimmatli agregatlar miqdori tuproqlarning haydalma va haydalma osti qatlamida 60,78-65,89% gipslashmagan yarim gidromorf tuproqlarda aniqlandi.

O‘‘rganilgan o‘tloqi saz hamda bo‘z-o‘tloqi tuproqlardagi agronomik nuqtai nazaridan eng qimmatli bo‘lgan 0,25 mm dan 10 mm gacha o‘lchamli va suvga chidamli agregatlar miqdori o‘rganilgan tuproqlarning gipslashganlik darajasiga va tuproqlarning mintaqaal xususiyatiga bog‘liq holda o‘zgarishi kuzatildi. Jumladan, gipslashmagan tuproqlarda eng ko‘p agronomik qimmatli agregatlar miqdori 65,89% tashkil etib, o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda esa bu ko‘rsatkich – 51,56% ga teng bo‘lib, gipslashmagan tuproqlarga nisbatan o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda agronomik qimmatli bo‘lgan agregatlar 24,33 % kamligi aniqlandi.

Sug‘oriladigan tuproqlarning suvga chidamli agregatlar tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, tuproqlarning gipslashganlik darajalariga ko‘ra turlicha ekanligi aniqlandi.

Suvga chidamli 3-2 mm va 5-3 mm o‘lchamdagi makroagregatlar miqdori gipslashmagan tipik bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi saz tuproqlarining haydov qatlamida 9,98-5,94-16,58 va 10,14-10,82-18,38% ni, kuchsiz gipslashgan tuproqlarda mos ravishda 9,82-5,82-12,78 va 10,66-6,94-13,98% ni, o‘rtacha gipslashgan tipik bo‘z, bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi saz tuproqlarning haydalma qatlamida esa

7,48-3,26-11,86 va 8,54-6,26-13,66% ni tashkil etib, gipslashmagan tuproqlarga nisbatan kuchsiz va o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda suvga chidamli makroagregatlar yarim gidromorf tuproqlarga nisbatan avtomorf va gidromorf tuproqlarda suvga chidamli makroagregatlar soni yuqoriligi aniqlandi. O‘rganilgan o‘tloqi saz va tipik bo‘z tuproqlarda suvga chidamli makroagregatlar miqdori bo‘z-o‘tloqi tuproqlarga nisbatan yuqori bo‘lib, buning asosiy sababi o‘tloqi saz tuproqlarning gumus miqdorining yuqoriligi, tipik bo‘z tuproqlarda il zarrachasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Umuman olganda turli darajada gipslashgan tuproqlarning haydov qatlamida suvga chidamli makroagregatlar miqdori, tuproqning quyi qatlamlarga nisbatan ularning miqdorlari kamayib borishi kuzatildi (1-jadval).

Tadqiqot olib borilgan gipslashmagan tipik bo‘z, bo‘z-o‘tloqi hamda o‘tloqi saz tuproqlarda suvga chidamli 5-3 mm kattalikdagi agregatlar tuproq kesmasining yuqori qatlamidan quyi tomon kamayib boradi va bu qonuniyat 3-2 mm kattalikdagi makroagregatlarda ham kuzatiladi.

XULOSA

Tadqiqot hududlarining tipik bo‘z, o‘tloqi saz hamda bo‘z-o‘tloqi tuproqlaridagi agronomik nuqtai nazaridan eng qimmatli bo‘lgan 0,25 mm dan 10 mm gacha o‘lchamli va suvga chidamli agregatlar miqdori tuproqlarning gipslashganlik darajasiga va regional xususiyatiga bog‘liq holda o‘zgarishga uchragan. Bunda gipslashmagan tuproqlardagi agregatlar miqdori 65,89% ni va o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda – 51,56 foizni tashkil etib, gipslashmagan tuproqlarga nisbatan o‘rtacha gipslashgan tuproqlardagi agronomik qimmatli bo‘lgan agregatlar miqdori 24,33 foizga kam. 3-2 mm suvga chidamli 1-0,25 mm o‘lchamdagi makroagregatlar miqdori gipslashmagan tipik bo‘z, o‘tloqi saz va bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning haydalma qatlamida mos ravishda 5,36; 4,66 va 6,16 foizni, o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda esa 4,52; 1,64 va 4,12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, gipslashmagan tuproqlarga nisba-tan o‘rtacha gipslashgan tuproqlarga 3-2 mm suvga chidamli 1-0,25 mm o‘lcham-dagi makroagregatlar mos ravishda 0,84-2,04-3,02% yuqoriligi kuzatiladi. Ushbu holatlar karst va suffoziya jarayonlari bilan bog‘liqdir.

1-jadval

Turli darajada gipslashgan sug‘oriladigan tuproqlardagi suvga chidamli makroagregatlar tarkibi, %

Kesma ragami, tuproq nomi	Chuqurlik, sm	Agregatlar miqdori, %								Kesma ragami, tuproq nomi	Chuqurlik, sm	Agregatlar miqdori, %							
		3-2 mm			5-3 mm							3-2 mm			5-3 mm				
		>0,25	1-0,25	Jami	>0,25	1-0,25	Jami					>0,25	1-0,25	Jami	>0,25	1-0,25	Jami		
Gipslashmagan																			
2 – kesma. Tipik bo‘z	0-30	4,62	5,36	9,98	4,72	5,42	10,14	37 – kesma. Bo‘z-o‘tloqi	0-24	1,28	4,66	5,94	4,80	6,02	10,82	41 -kesma. O‘tloqi-saz	0-26	10,42	6,16	16,58	11,2	7,14	18,38
	30-49	3,24	4,58	7,82	3,56	4,6	8,16		24-40	1,42	4,36	5,78	2,46	6,82	9,28		26-43	9,42	5,86	15,28	10,00	8,23	18,27
	49-75	3,1	4,22	7,32	3,48	4,54	8,02		40-70	2,44	3,16	5,60	1,76	5,70	7,46		43-70	8,76	5,54	14,30	9,88	6,10	15,98
	75-115	2,74	4,24	6,98	2,98	4,36	7,34		70-98	0,72	3,64	4,36	1,28	3,64	4,92		70-112	7,10	4,21	11,31	8,12	5,24	13,36
Kuchsiz gipslashgan																			
1A– kesma. Tipik bo‘zi	0-30	4,14	5,68	9,82	4,92	5,74	10,66	153– kesma. Bo‘z-o‘tloqi	0-24	2,54	3,28	5,82	2,36	4,58	6,94	1 – kesma. O‘tloqi-saz	0-27	7,12	5,66	12,78	8,00	5,98	13,98
	30-48	4,22	4,76	8,98	4,68	5,52	10,20		24-47	1,10	3,98	5,08	0,74	4,46	5,20		27-37	6,22	5,70	11,92	7,14	5,84	12,98
	48-68	3,16	4,74	7,90	4,22	4,98	9,20		47-85	1,02	2,76	3,78	1,36	3,48	4,84		37-60	5,96	5,10	11,06	6,14	5,28	11,42
	68-105	3,28	4,56	7,84	4,1	4,76	8,86		85-110	0,46	1,57	2,03	0,64	1,94	2,58		60-89	5,42	5,76	11,18	5,58	6,12	11,70
O‘rtacha gipslashgan																			
4 – kesma. Tipik bo‘z	0-27	3,42	4,52	7,94	3,64	4,9	8,54	131 – kesma. Bo‘z-o‘tloqi	0-26	1,44	1,64	3,26	1,82	4,62	6,26	71– kesma. O‘tloqi-saz	0-35	7,74	4,12	11,86	8,12	5,54	13,66
	27-45	3,24	4,24	7,48	3,52	4,98	8,50		26-41	0,72	1,24	2,96	2,24	3,94	5,18		35-51	6,12	3,42	9,54	7,18	4,02	11,20
	45-82	3,42	4,36	7,78	3,64	4,76	8,40		41-63	0,32	1,44	1,76	0,56	1,72	2,28		51-69	5,24	3,58	8,82	6,14	3,98	10,12
	82-115	3,14	4,38	7,52	3,22	4,82	8,04		63-82	0,46	1,24	1,70	0,36	1,48	1,84		69-110	5,10	3,46	8,56	6,1	3,79	9,89

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzajonov K.M. Lik sentralno Ferganы v prejnee i nastoyaщee vremya// – Tashkent. 2014 249 s.

2. Tursunov L. Tuproq fizikasi // – Toshkent. Mexnat. 1988 y. 101-167-b

3. Qurvantayev R., Yaxshibayev G.M., Fayziyev K.I. Xorazm vohasi tuproqlaridagi suvga chidamli agregatlar holati. O‘zbekiston Zamini Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. 4/2020. – B 24-26

4. Qurvontoyev R., Musurmonov A., Usmonova G. – Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining agregatlik holati. // Agrar sohada suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda tuproq unumdorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Guliston, 2011 B. 108.

5. Nurmatov Sh.N. Dehqonchilikda tuproq agregatlari va kolloid – il zarrachalarining ahamiyati // – Toshkent. “Navro‘z” nashriyoti, 2019. 236 bet

6. Botirov X.F., Fayziyev T. Sideratlar va lavlagining urug‘ xosildorligi // Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlar va ularning yechimlari. Professor-o‘qituvchilar ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Samarqand, 2011. – B. 100-102.

7. Sobitov O‘.T., Abduraxmonov N.Yu., Yuldoshev I.Q., Pulatov M.K., Yunusova D.I.. Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarining mexanik va mikroagregat tarkibi / «TIQXMMI» MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Qishloq va suv xo‘jaligida innovatsion resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash”mavzusidagi Respublika iimiy-amaliy anjuman. – Buxoro shahri. 2022. 26-dekabr - V. 32-36.

8. Abduraxmonov N.Yu., Sobitov O‘.T., Yuldoshev I.Q., Kurdashev Q.D., Pulatov M.K. Turli darajada gipslas’hgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining mexanik va mikroagregat tarkibi / Turli tuproq-iqlim sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va o‘simliklarni himoya qilishda innovatsion yondashuvlar mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 2023-yil 12-dekabr. - V. 127-130.

9. Sobitov O‘.T. Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan o‘tloqi-saz tuproqlarining agregatlar tarkibi // Tuproqshunoslik va agrokimyo jurnali. – Toshkent, 2023. - №2. - V. 55-60.

УДК 631.95 : 631.5 : 633.11 (571.1)

ИНТЕНСИВНОСТЬ И НАПРАВЛЕННОСТЬ ПОЧВЕННО-МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ЛУГОВО-ЧЕРНОЗЕМНОЙ ПОЧВЕ ПОД ВЛИЯНИЕМ МИНИМИЗАЦИИ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ В УСЛОВИЯХ ЮГА ЗАПАДНОЙ СИБИРИ

Шулико Наталья Николаевна,
канд. с.-х. наук, ведущий научный сотрудник лаборатории микробиологии ФГБНУ Омский АНЦ,
e-mail: shuliko-n@mail.ru
Хамова Ольга Федоровна,
Юшкевич Леонид Витальевич

Аннотация. Исследования проводили в стационарном многофакторном опыте закладки 1972 г. в пятипольном зернопаровом севообороте со следующим чередованием культур: пар – пшеница – пшеница - пшеница - ячмень под первой пшеницей после пара. Установлено, что минимизация обработки положительно влияла на численность микроорганизмов,

активность ферментов и нитрификационную способность лугово-черноземной почвы в сравнении со вспашкой в слое 0-20 см. Применение комплексной химизации усиливало биологическую активность почвы.
Ключевые слова: численность микроорганизмов, почвенные ферменты, нитратный азот, нитрификационная способность, обработка почвы, средства химизации, пшеница.

Annotatsiya. Tadqiqotlar 1972-yilda besh qavatli donli almashlab ekishda quyidagi ekinlar almashinuvi bilan statsionar ko'p faktorli yotqizish tajribasida o'tkazildi: bug ' – bug'doy – bug'doy - bug'doy - bug'dan keyingi birinchi bug'doy ostidagi arpa. Qayta ishlashni minimallashtirish mikroorganizmlar soniga, fermentlarning faolligiga va o'tloq-qora tuproqli tuproqning nitrifikatsiya qobiliyatiga 0-20 sm qatlamda shudgorlash bilan taqqoslaganda ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Kompleks kimyoviylashtirishdan foydalanganda tuproqning biologik faolligi oshishi kuzatildi.
Kalit so'zlar: mikroorganizmlar soni, tuproq fermentlari, nitrat azot, nitrifikatsiya qobiliyati, ishlov berish, kimyoviy moddalar, bug'doy.

Annotation. The research was carried out in a stationary multifactorial experiment in 1972 in a five–field grain–steam crop rotation with the following crop alternation: steam - wheat - wheat - wheat - barley under the first wheat after steam. It was found that minimizing tillage had a positive effect on the number of microorganisms, enzyme activity, and nitrification ability of meadow-chernozem soil compared with plowing in a 0-20 cm layer. The use of complex chemicalization enhanced the biological activity of the soil.
Key words: number of microorganisms, soil enzymes, nitrate nitrogen, nitrification ability, tillage, chemicals, wheat.

Минимизация механической обработки почвы с сохранением стерни и оставлением соломы приводит к накоплению органических остатков и питательных веществ в верхней части пахотного горизонта, обуславливая тем самым его дифференциацию по биологической активности [9].

Установлено, что отказ от вспашки оказывает негативное влияние на фитосанитарную обстановку в агроценозе, усиливает засоренность и недостаток минерального азота в почве [12]. Решение этих проблем вызывает необходимость применения соответствующих пестицидов и рациональных доз минеральных удобрений, что существенно влияет на интенсивность и направленность почвенных биологических процессов в сторону минерализации или иммобилизации продуктов разложения органических остатков и образования гумуса [10].

Целью исследований было изучение изменений численности почвенных микроорганизмов и направленности мобилизационных процессов почвы под влиянием применения длительных минимальных (почвозащитных) обработок почвы в комплексе со средствами химизации в широко распространенных лугово-чернозёмных почвах южной лесостепной зоны. Проблема ресурсосбережения является актуальной в современных экономических условиях, а её почвенно-микробиологическое обоснование имеет практическое и теоретическое значение, поскольку непосредственно связано с мониторингом эффективного и потенциального плодородия почвы и её токсичности.

Исследования проводили в стационарном многофакторном опыте закладки 1972 г. в пятипольном зерно-паровом севообороте пар – пшеница – пшеница - пшеница - ячмень под первой пшеницей после пара.

Почва – лугово-чернозёмная среднемощная среднегумусовая тяжелосуглинистая с содержанием гумуса 6-7 %, реакция среды – нейтральная.

Система обработки почвы (фактор А): отвальная на глубину 20-22 см под все культуры, плоскорезная на глубину 10-12 см, минимально-нулевая, без осенней обработки ежегодно. На этих

фонах применяли средства химизации (фактор В): контроль (без применения удобрений и пестицидов), гербицид «Пума-супер 100», комплексная химизация (под пшеницу по пару - P_{60}, гербицид «Пума-супер 100», фунгицид ТИЛТ-250, ретардант ТУР).

Образцы почвы отбирали в слое 0-20 см три раза в течение вегетации зерновых – кущение-выход в трубку (июнь), колошение (июль), налив зерна (конец августа). В свежих образцах учитывали численность микроорганизмов путем высева на твердые питательные среды [6].

Нитрификационную способность почвы определяли по Кравкову с инкубацией 21 день, азот нитратов – по Грандваль-Ляжу с дисульфофеноловой кислотой [1]. В воздушно-сухих образцах были проведены определения ферментативной активности почвы: уреазы – по Гофману, каталазы – газометрически [7].

Погодные условия лет исследований были в основном благоприятны для роста и развития растений и микроорганизмов и отличались теплом и достаточным увлажнением.

Со снижением интенсивности обработки от вспашки до минимально-нулевой наблюдалась тенденция повышения численности микроорганизмов, что связано с увеличением количеств оргостатков в пахотном слое почвы при минимизации обработки. Так, по данным, полученным ранее в этом же стационарном опыте, где проводились настоящие исследования, количество пожнивно-корневых остатков при плоскорезной и минимально-нулевой обработках в слое 0-20 см превышало вспашку в паровом поле на 69,5 и 80,3 % соответственно [11].

Под пшеницей по пару при минимально-нулевой обработке в сравнении со вспашкой достоверно увеличилось количество фосфатмобилизующих бактерий, а также почвенных грибов, участвующих в разложении органических остатков и биохимических превращениях различных органических соединений в почве.

Длительное систематическое применение гербицидов не оказало существенного негативного воздействия на общую численность микроорганизмов под культурой пшеницы. Наиболее чувствительными к ним оказались фосфатмобилизующие бактерии, количество которых уменьшилось на 19 % к контролю.

Комплексная химизация, где гербициды, фунгициды и ретарданты применялись на фоне минеральных удобрений, способствовала увеличению численности всех групп почвенных микроорганизмов. В сравнении с контролем под пшеницей достоверно возросло количество аммонификаторов на МПА, а также почвенных грибов (таблица 1).

Таблица 1

Численность микроорганизмов в лугово-чернозёмной почве под пшеницей по пару в зависимости от интенсивности обработки и применения средств химизации, (n=9)

Вариант	Бактерии, растущие на МПА, млн/г	Микроорганизмы, растущие на КАА, млн/г	Олигонитрофилы, млн/г	Бактерии мобилизующие минеральные фосфаты, млн/г	Нитрификаторы, тыс/г	Грибы, тыс/г
Средняя по фактору А: - отвальная	33,4	28,2	104,8	93,0	4,2	48,0

Вариант	Бактерии, растущие на МПА, млн/г	Микроорганизмы, растущие на КАА, млн/г	Олигонитрофилы, млн/г	Бактерии мобилизующие минеральные фосфаты, млн/г	Нитрификаторы, тыс/г	Грибы, тыс/г
- плоскорезная	37,2	27,8	109,0	90,0	3,6	70,3*
- минимально-нулевая	35,7	28,5	109,4	113,0*	3,7	71,2*
$НСР_{05}$ по А	7,3	4,3	23,0	19,8	0,98	14,2
Средняя по фактору В: - контроль	33,5	29,0	102,0	109,4	3,7	52,5
- гербициды	32,5	26,7	101,7	89,0*	3,4	64,1
- комплексная химизация	40,3*	29,0	119,5	97,1	4,4	73,0*
$НСР_{05}$ по В	7,3	4,3	23,0	19,8	0,98	14,2

Улучшение питательного режима почвы при внесении минеральных удобрений снижает ингибирующий эффект пестицидов [2].

Обилие осадков в годы исследований сгладило разницу в численности микроорганизмов между вариантами обработок почвы. Общее количество микробов по фактору обработки было в пределах 259-286 млн/г и превышало вспашку на стерневых фонах на 5-10 %. В более засушливые годы проведения исследований (в предыдущих исследованиях) эти показатели составляли 19-31 % [8]. Преимущество безотвальных обработок по содержанию влаги в почве в сравнении со вспашкой отражалось на численности микробиоты.

Для характеристики мобилизационных процессов в почве определяли потенциальную способность почвы к нитратонакоплению, которая позволяет учесть в виде нитратов азот, образованный за счёт минерализации мобильных соединений органического вещества при благоприятных условиях (рисунок).




Рис. Нитрификационная способность почвы под пшеницей по пару в зависимости от интенсивности обработки и применения средств химизации, мг/кг, (n=9)

Наблюдения показали, что нитратонакопление в оптимальных условиях (нитрификационная способность почвы) в вариантах с минимизацией обработки почвы выше в сравнении со вспашкой под пшеницей по пару на 31-36%. Применение комплексной химизации достоверно повышало нитрификационную способность почвы по отношению к контролю при плоскорезной обработке. В вариантах с систематическим применением гербицидов отмечена тенденция к снижению потенциального нитратонакопления, что связано с уничтожением сорняков, как дополнительной биомассы и энергетического материала для микроорганизмов.

Увеличение нитрификационной способности в вариантах с минимально-нулевой и плоскорезной обработками почвы в слое 0-20 см, на наш взгляд, можно объяснить локализацией растительных остатков и прижатостью корневых систем растений к поверхности почвы.

В биохимических превращениях по разложению и синтезу органических веществ в почве участвуют различные ферменты. По их активности можно судить об интенсивности биологических процессов.

Фермент уреаза катализирует в почве гидролиз промежуточного продукта разложения белков мочевины до аммиака - непосредственного источника образования нитратов - основа азотного питания растений.

Под пшеницей по пару активность уреазы по мере минимизации обработки увеличивалась на 14,3-21,4% в сравнении со вспашкой. Подобный рост уреазной активности при безотвальных обработках некоторые исследователи объясняют повышением плотности грибного населения почвы [4], что характерно и для лугово-чернозёмной почвы региона.

Применение средств химизации не привело к увеличению активности фермента уреазы. Возможной причиной была высокая обеспеченность почвы азотом нитратов после парования, которая в период кущения пшеницы составляла 22-29 мг/кг.

Синтез гумусовых компонентов почвы связан с окислительно-восстановительными процессами, в которых участвуют ферменты оксидоредуктазы, в т.ч. один из широко распространенных в почве – каталаза.

На фоне без применения средств химизации активность каталазы при безотвальных обработках достоверно возрастала в сравнении со вспашкой, что связано с сосредоточением органических остатков и усилением биологической активности в поверхностных слоях почвы (таблица 2). При внесении минеральных удобрений по фону комплексной химизации активность фермента снижалась, что по литературным данным имеет химическую природу и происходит под влиянием анионов минеральных удобрений [3].

Таблица 2

Ферментативная активность пахотного слоя лугово-черноземной почвы при разной интенсивности обработки и применении средств химизации, (n=9)

Обработка почвы (фактор А)	Химизация (фактор В)			Среднее по обработке (А) $НСР_{05}$ А-0,054
	Контроль	Гербициды	Комплексная химизация	
Уреаза, мг NH_4/г				
Отвальная	0,45	0,42	0,39	0,42
Плоскорезная	0,53	0,43	0,49	0,48
Минимально-нулевая	0,53	0,52	0,47	0,51
Среднее по химизации (В) $НСР_{05}$ В – 0,052	0,50	0,46	0,45	0,47

Обработка почвы (фактор А)	Химизация (фактор В)			Среднее по обработке (А) $НСР_{05}$ А-0,054
	Контроль	Гербициды	Комплексная химизация	
Каталаза, $см^3$ O_2 в мин/г, $НСР_{05}$ А – 0,147				
Отвальная	1,57	1,78	1,59	1,65
Плоскорезная	1,81	1,74	1,46	1,67
Минимально-нулевая	1,74	1,85	1,51	1,70
Среднее по химизации (В) $НСР_{05}$ В – 0,052	1,71	1,79	1,52	1,67

Судя по коэффициенту минерализации (КАА/МПА), разложение органических остатков под пшеницей по пару проходило с неодинаковой интенсивностью. Коэффициент минерализации (К мин.) снижался в ряду обработок: отвальная (0,84) > минимально-нулевая (0,80) > плоскорезная (0,74).

Коэффициент иммобилизации, определяемый по соотношению групп микроорганизмов МПА/КАА, превышал коэффициент минерализации и увеличивался с сокращением числа и глубины обработки, составляя 1,18 при вспашке, 1,25 при минимально-нулевой обработке и 1,33 – при плоскорезной.

О глубине микробиологических превращений азотсодержащих соединений в почве в зависимости от обработки судили по коэффициенту трансформации органического вещества $П_м$ = (МПА + КАА) х (МПА/КАА) [5]. Наиболее высокая величина при плоскорезной обработке – 86, наименьшая - при вспашке 73, при минимально-нулевой обработке – 80. Повышенные значения $П_м$ означают, что при применении ресурсосберегающей мелкой плоскорезной обработки растительные остатки интенсивно трансформируются в органическое вещество почвы. Подобную направленность процесса подтверждает и более значительное накопление гумуса при плоскорезной обработке в сравнении со вспашкой, по данным, полученным ранее в этом же стационарном опыте [13].

Применение комплексной химизации под пшеницей по пару повышало численность аммонифицирующей микрофлоры. Происходило снижение коэффициента минерализации и рост коэффициента иммобилизации органического вещества. При этом существенно, с 72 на контроле до 96 на фоне с комплексной химизацией, повышался $П_м$, коэффициент трансформации органического вещества.

Таким образом, минимизация обработки положительно влияла на численность микроорганизмов, активность ферментов и нитрификационную способность лугово-черноземной почвы в сравнении со вспашкой в слое 0-20 см. Применение комплексной химизации усиливало биологическую активность почвы.

Коэффициент трансформации органического вещества, рассчитанный по соотношению групп почвенных микроорганизмов, увеличивался в ряду обработок почвы от отвальной к плоскорезной (73 и 86 соответственно), а также при применении комплексной химизации (96, при 72 на контроле). Следовательно, при безотвальных обработках и применении химизации растительные остатки более интенсивно трансформируются в органическое вещество почвы в сравнении со вспашкой, что способствует сохранению и накоплению гумуса.

Список использованных литературы:

1. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв./ Е.В. Аринушкина. – М.: Изд-во МГУ, 1970. – 325 с.

2. Балабанова Н.Ф. Влияние длительного применения отдельных элементов агротехнологии на плодородие серой лесной почвы в подтаежной зоне Омского Прииртышья / Н. Ф. Балабанова, Н. А. Воронкова, С. Ю. Храмов // Агрохимия. – 2025. – № 5. – С. – 27-34. – DOI 10.31857/S0002188125050036.

3. Галстян А.Ш. Ферментативная активность почв Армении/ А.Ш.Галстян. - Ереван: Айастан, 1974. – 275 с.

4. Данилова А.А. Биологические свойства чернозёма выщелоченного при многолетней минимизации механической обработки: автореф. дис. ...докт. биол. наук/Данилова Альбина Афанасьевна. – Москва, 2007 – 37 с.

5. Коробова Л.Н. Особенности сукцессии микробных сообществ в чернозёмах Западной Сибири: автореф. дис. ...докт. биол. наук/ Коробова Лариса Николаевна. - Новосибирск, 2007. – 42 с.

6. Теппер, Е.З. Практикум по микробиологии учебное пособие для вузов / Е.З. Теппер, В.К. Шильникова; под ред. В.К. Шильниковой.- 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Дрофа, 2004. – 256 с.

7. Хазиев Ф.Х. Методы почвенной энзимологии./ Ф.Х. Хазиев – М.: Наука, 1990. – 189 с.

8. Хамова О.Ф. Биологическая активность чернозёма выщелоченного при минимизации основной обработки почвы в южной лесостепи Западной Сибири / О.Ф. Хамова, Л.В. Юшкевич, В.В. Леонова // Агрохимия, 2002. - № 4. – С. – 11-16.

9. Шулико Н.Н. Влияние агротехнологии возделывания гороха на биологические и агрохимические свойства лугово-черноземной почвы / Н.Н. Шулико, Е.В. Тукмачева, И.А. Корчагина [и др.] // Вестник КрасГАУ. – 2024. – № 8(209). – С. –24-33. – DOI 10.36718/1819-4036-2024-8-24-33.

10. Шулико Н.Н. Влияние применения средств интенсификации на биологическую активность и фитосанитарное состояние почвы под посевом гороха / Н.Н. Шулико, И.А. Корчагина, О.Ф. Хамова [и др.] // Вестник КрасГАУ. – 2024. – № 7(208). – С. 82-91. – DOI 10.36718/1819-4036-2024-7-82-91.

11. Юшкевич Л.В. Агроэкологические особенности возделывания яровой пшеницы по паровому предшественнику в лесостепи Западной Сибири / Л. В. Юшкевич, О. Ф. Хамова, А. Г. Щитов, Е. В. Тукмачева // Плодородие. – 2020. – № 4(115). – С. – 63-68. – DOI 10.25680/S19948603.2020.115.18.

12. Юшкевич Л.В. Влияние средств химизации на засорённость и биологическую активность почвы под посевом ячменя / Л.В. Юшкевич, Н.Н. Шулико, О.Ф. Хамова, Е.В. Тукмачева // Плодородие. – 2021. – № 6(123). – С. 62-65. – DOI 10.25680/S19948603.2021.123.17.

13. Юшкевич Л.В. Ресурсосберегающая система обработки и плодородие чернозёмных почв при интенсификации возделывания зерновых культур в южной лесостепи Западной Сибири: автореф. дис...докт. с.-х.наук/Юшкевич Леонид Витальевич. – Омск, 2002. – 31 с.

UDK:631.452.

YUVILISHGA UCHRAGAN SUG‘ORILADIGAN BO‘Z-O‘TLOQI TUPROQDA ORGANIK MODDALAR VA MINERAL O‘G‘ITLARNING G‘O‘ZA O‘SIMLIGIDA O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA’SIRI

Ruzmetov Maqsud Ismoilovich,
q.x.f doktori, professor
Bobonorov Bekzod Boymirzayevich,
b.f.f.d (PhD), kichik ilmiy xodim
e-mail: bekzodbobonorov427@gmail.com

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotasiya. Ushbu maqolada suv toshqini natijasida tekislik hudud tuproqlarida yuvilish darajasi ortgan sayin tuproqning gumus va oziqa elementlari miqdori ham mos ravishda kamaygan. Tuproq unumdorligini qayta tiklash uchun suv toshqini natijasida yuvilgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarga organik va mineral o‘g‘itlar bilan birga qo‘llanilgan. Qisqa fursatda unumdorligini qayta tiklashinishi natijasida tuproq xossalari, g‘o‘za o‘simligini ko’rsatgichi bayon etilgan. Natijada dala tajriba maydonining g‘o‘za vegetatsiyasi tugagandan keyin yuqori ko‘rsatgichdagi olingan tuproq namunalarida ya'ni zoogumus qo‘llanilganida 0-30, 30-50 smli qatlamlarda gumus miqdori 0,576-0,733%, harakatchan fosfor 23,6-41,6 mg/kg, almashunuvchi kaliy 228-277 mg/kg o‘zgarganligi aniqlandi.

Kalit so‘zlari: Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar, turli darajada yuvilgan tuproqlar, haydalma va haydalma osti qatlamlari, tuproqni qayta tiklash.

Аннотация. В данной статье показано, что по мере увеличения степени размыва почв пойменных территорий в результате паводка содержание гумуса и питательных элементов соответственно снижается. Для восстановления плодородия на паводком размытых орошаемых сероземно-луговых почвах совместно применялись органические и минеральные удобрения. В результате относительно короткого периода восстановления плодородия были проанализированы изменения свойств почвы и показатели растений хлопчатника. В результате установлено, что в почвенных образцах, отобранных после окончания вегетации хлопчатника на опытном участке, при внесении зоогумуса в слоях 0–30 и 30–50 см содержание гумуса изменилось и составило 0,576–0,733%, подвижного фосфора - 23,6–41,6 мг/кг, обменного калия - 228–277 мг/кг.

Ключевые слова: орошаемые серо-луговые почвы, почвы различной степени размытости, пахотный и подпахотный горизонты, восстановление почвенного плодородия.

Annotation. In this article, as the level of leaching increased in the soils of the plain area as a result of flooding, the amount of humus and nutrients in the soil decreased accordingly. To restore soil fertility, organic and mineral fertilizers were applied to irrigated serozem-meadow soils washed out as a result of flooding. As a result of restoring fertility in a short time, soil properties and cotton plant indicators were described. As a result, it was found that in soil samples obtained after the completion of cotton vegetation in the field experimental area with high indicators, i.e., when zoohumus was applied, the humus content in the 0-30, 30-50 cm layers changed by 0.576-0.733%, mobile phosphorus by 23.6-41.6 mg/kg, and exchangeable potassium by 228-277 mg/kg.

Key words: Irrigated meadow soils, soils with varying degrees of leaching, arable and sub-arable layers, soil restoration.

Kirish. Dunyoda tuproqlarning hozirgi holatini aniqlashda degumifikatsiya, eroziyalanish, sho‘rlanish, biologik xilma xillikning yo‘qolishi kabi salbiy holatlarni oldini olish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Eroziyalangan tuproqlarning

gumusli holatini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini va toshqin jarayonlari natijasida yo‘qotilgan tuproq unumdorlik holatini tiklashning samarali usullarini yangi agrotexnologiyasini ishlab chiqishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu maqsadda ushbu ofatdan kuchli zarar ko‘rgan hudud tuproqlarining unumdorligini qayta tiklash uchun turli xil usullardan foydalangan holda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish zarur. Sirdaryo viloyatida 2020-yilning 1 may kuni tabiiy ofat yuz berib, viloyatining Sardoba tumani hududidagi “Sardoba suv ombori” tug‘onining ma’lum bir qismiga shikast yetishi oqibatida to‘g‘ondan suv toshib, viloyatning Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi bir qancha aholi punktlari, turar joylar, ijtimoiy soha ob’ektlari, qishloq xo‘jalik ekinlari sug‘oriladigan yerlari, shu jumladan paxta, g‘alla, poliz va boshqa ekinlar maydonlari jiddiy talofatga uchradi. Shularni hisobga olgan holda talofat ko‘rgan massivlar tuproqlarini unumdorligini qayta tiklash, tuproqlarni organik moddaga boyitish, ekinlarni almashlab ekishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, siderat ekinlar yetishtirish kabilar.

Tadqiqotning joyi va uslublari. Tadqiqotlar Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Mirzacho‘l massivi Bek klasteri xo‘jalik hududida prolyuvial-allyuvial, ko‘l-allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, Jettisoy va Sardoba cho‘kmalari sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda dala-tajribalar davom ettirildi. Yer osti sizot suvi 2,5-3,0 metr chuqurlikda bo‘lib, dala tajribasi yettita variant uch qaytariqdan iborat. G‘o‘za-kuzgi bug‘doy ekilishi jarayonida qo‘yidagi ketma-ketlikda ishlar bajarildi:

Tajriba tizimi.

1. N_{180} P_{126} K_{90} (FON)-- Nazorat nisbat $N_{1,0}$ $P_{0.7}$ $K_{0.5}$
2. FON + 200 ml/ga Bioenergiya –M biopreparat
3. FON + Biogumus 10 t/ga
4. FON + Zoogumus 10 t/ga
5. FON + Go‘ng 20 t/ga
6. FON + OMO‘ 15 t/ga
7. FON + OMO‘ 10 t/ga

1-tajriba sxemasi

I-qaytariq							II-qaytariq							III-qaytariq						
1	2	3	4	5	6	7	1	2	3	4	5	6	7	1	2	3	4	5	6	7

Tajriba 3 takrorlanishda sistemali (tartibli) usulda o‘tkazildi (1-sxema). Tajriba maydonining uzunligi 20 metr, har bir delyanka kengligi 91,2 metr (6 qator, shundan 4 tasi hisobga olinadigan, 2 tasi himoya qatorlar; qator oralig‘i 0,76 sm). Bitta delyankaning maydoni 91,2 m^2ga teng yoki 0,0912 gektar. Tajribaning umumiy maydoni 1915,2 m^2 ga teng yoki 0,1915 gektarni tashkil etadi. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari [2]. Tuproqni umumiy kimyoviy tahlillari umumqabul qilingan uslublar bo’yicha Ye.V.Arinushkina [3] qo’llanmalari asosida bajarilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. AQSh olimi Jayson-Klark tavsiyalarida suv toshqinidan keyin tuproq va tuproq unumdorligini qayta tiklashni boshqarish bo‘yicha suv bilan to‘yingan tuproqlardagi azot denitrifikatsiya jarayonida gazsimon shakllarga aylanib atmosferaga uchib ketadi. Mavjud toshqin natijasida mikroorganizmlar populyatsiyasi kamayadi. Suv toshqini paytida dalalarda turli miqdorda eroziya cho‘kindi qoldiqlari to‘planishini kuzatish mumkin. Agar katta miqdordagi qoldiqlar yoki cho‘kindilar to‘plangan bo‘lsa, unda chuqurroq shudgorlash kerak bo‘ladi [4.].

Yaponiyaning Miagi prefekturasining sunami suv toshqini ostida qolgan qishloq xo‘jalik yerlarida tuproq sho‘rlanishi ortib, unumdorligi va fizik loyligi kamaygan, ba’zi yerlardan olib kelib to‘plangani kuzatilgan. Shu qatorida sunami toshqinidan oldingi

tuproqqa oid ma'lumotlar taqqoslanganda tuproq xossalari farqlanishi aniqlangan. Suv bosgan hududlarda tuproq unumdorligini qayta tiklashda fitoremediatsiyadan foydalanib, C:N nisbatini o'zgartirishga erishgan. Qishloq xo'jaligida arzon, sho'rlanish darajasini pasaytiruvchi paxta chiqindilari, kul, ko'mir va galofit o'simliklar tuzlarni yuqotish va zararsizligi bo'yicha tavsiyalar bergan [5; 39-48-b., 6; 19-24-b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi F-5569-son farmoyishi qabul qilindi [1]. Sardoba suv ombori toshqinidan keyingi sug'oriladigan yerlarning eko-meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha, ya'ni sho'rlangan tuproqda uch xil joyda moyli va yem-xashak ekinlarini yetishtirishda tuproq tarkibidagi oziqa moddalarning tez fursatda o'zgarishi bo'yicha dala tajribasi o'tkazilgan. Unda suv toshqini ta'sirida vujudga kelgan loyqa cho'kindilari ostida qolgan eski tuproq haydalma qatlamidagi gumus 0,032-0,102%, azot 2,7-9,9 mg/kg, harakatchan fosfor 5,1-5,3 mg/kg gacha yuvilib ketganganligi aniqlangan. Shu qatorida loyqa bosgan hududni shudgor, chizel, boranalangandan oldin va keyin har xil chuqurlikda tuproq namunalari olib o'rganilgan. O'rganilgan tuproq mexanik tarkibi fraksiyalarni miqdorini solishtirib, fizik loy miqdori aralashganligini kuzatilgan [7; 71-74-b., 8; 40-42-b., 9; 36-39-b].

Har xil darajada yuvilgan tuproqlarning mexanik tarkibi suv toshqindan oldingi bilan keyingi holati taqqoslanganda fizik loy va il zarrachalari (0,5-10 va 0,4-7 foiz) kamaygan, aksincha, yirik qum (0,4-12 foiz) ko'paygan, yuvilib to'plangan hududlarda esa fizik loy va il zarrachalari (2 va 0,5 foiz) ko'paygan, aksincha yirik qum kamaygan bo'lib, shu asosida takomillashgan tasnif ishlab chiqildi. Oziqa elementlar miqdori dala tajriba maydonning dastlabki ma'lumotlarga taqqoslanganda tuproq unumdorligi qayta tiklanish bo'yicha dala tarjibasida 3 va 4 variantlarda o'rtachasi 0-30 smli qatlamda gumus miqdori 0,099-0,168%, umumiy fosfor 0,027-0,036%, umumiy kaliy 0,111-0,149 foizga, o'simliklar o'zlashtira oladigan oziqa elementlar miqdori o'rtachadan, ko'pga, ko'pdan juda ko'p tomon o'tishiga sabab bo'ldi [10; 45-b., 11; 49-56-b].

Toshqin natijasida kuchsiz yuvilishga uchragan tuproqlarda unumdorligini qayta tiklash bo'yicha sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarida N_{180} P_{126} K_{90} (FON)- nazorat mineral o'g'it bo'lib, NPK nisbat 1,0:0,7:0,5 keyingi variantlarga nazoratga qo'shimcha turli miqdorda har xil zoogumus, biogumus, organik mineral o'g'it (OMU) larning qora mol go'ngi va biopreparat qo'llanildi. Dala-tajriba tadqiqotlarida Sulton navli g'o'za texnik ekini ekildi. Bunda 3 ta qaytariqdan iborat 7 ta dala-tajriba variantlarida olib borildi.

O'tkazilgan dala-tajriba maydonida ekishdan avval olingan tuproq namunalarida gumus, umumiy azot, fosfor, kaliy va harakatchan fosfor, almashunuvchi kaliy laboratoriya sharoitida miqdori aniqlandi.

Fon nazorat - faqat mineral o'g'itlar qo'llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o'rtachasi gumus miqdori 0,628 va 0,446% kam va juda kam ko'rsatgichga, umumiy azot 0,049 va 0,037%, umumiy fosfor 0,134 va 0,129%, harakatchan fosfor 17,1 va 10,4 mg/kg kam va juda kam guruhiga, umumiy kaliy 1,024 va 1,015%, almashunuvchi kaliy 194 va 179 mg/kg ta'minlanishiga ko'ra kam guruhiga mansubligi kuzatildi;

Fon nazorat tarkibi – mineral o'g'itlar sof holda gektariga Azot- 180 kg (N_{180}), fosfor – 126 kg (P_{126}), kaliy – 90 kg (K_{90}), NPK nisbat 1,0:0,7:0,5.

Fon + Bioenergiya-M biopreparati 200ml/ga qo'llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o'rtachasi gumus miqdori 0,633 va 0,550% kam, umumiy azot 0,04 va 0,043%, umumiy fosfor 0,130 va 0,127%, harakatchan fosfor 15,8 va 11,9 mg/kg

juda kam, umumiy kaliy 1,028 va 1,008%, almashinuvchi kaliy 197 va 194 mg/kg kam guruhiga mansub;

“Bioenergiya-M” tarkibi – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya institutining Tuproq mikrobiologiya va biotexnologiya laboratoriyasi tomonidan ishlab chiqilgan, rizobakteriyalar va yashil mikrosuvo‘tlar asosida kompleks ta’sir etuvchi bakterial o‘g‘it hisoblanadi. Tuproqda foydali mikroorganizmlarning miqdorini oshirish orqali o‘simlik simbiozi va tuproqdagi mikroblar uyushmasini yani tuproq va o‘simiklar uchun funksional zarur bo‘lgan, erkin yashovchi azotfiksatorlar, fosfor va kaliy parchalovchi, sellyuloza parchalovchi, nitrifikatsiyalovchi va boshqa turdagi mikroorganizmlarni kuchayishini ta’minlaydi.

Fon + Biogumus 10 t/ga qo‘llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi gumus miqdori 0,627 va 0,538% kam, umumiy azot 0,048 va 0,046%, umumiy fosfor 0,116 va 0,114%, harakatchan fosfor 16,8 va 13,8 mg/kg kam, juda kam, umumiy kaliy 1,022 va 1,008%, almashunuvchi kaliy 188 va 175 mg/kg kam guruhiga kiradi;

Biogumus tarkibi - gumus uglerodi 33,10%, umumiy shakldagi azot (N-NH_4,) - 0,52%, fosfor (P_2O_5) 3,0%, kaliy (K_2O) 1,81%, harakatchan shakldagi azot (N-NH_4,) - 158,9 mg/kg, fosfor (P_2O_5) 267 mg/kg, kaliy (K_2O) 3985 mg/kg, namligi 24,2% ni, pH 6,52.

Fon + Zoogumus 10 t/ga qo‘llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi gumus miqdori 0,667 va 0,550% kam, umumiy azot 0,051 va 0,044%, umumiy fosfor 0,115 va 0,107%, harakatchan fosfor 16,9 va 8,87 mg/kg kam, juda kam, umumiy kaliy 1,040 va 1,020%, almashunuvchi kaliy 195 va 174 mg/kg kam ta’minlangan guruhga mansubligi kuzatildi;

Zoogumus tarkibi - gumus uglerodi 61,25%, umumiy shakldagi azot 1,33%, fosfor 6,7%, kaliy 3,95%, harakatchan shakldagi azot 385,5 mg/kg, fosfor 1200 mg/kg, almashunuvchi kaliy 7253 mg/kg, namligi 16,4 %, pH - 6,85.

Fon + go‘ng 20 t/ga qo‘llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi gumus miqdori 0,599 va 0,487 kam, juda kam umumiy azot 0,048 va 0,041%, umumiy fosfor 0,126-0,124%, harakatchan fosfor 14,0 va 11,3 mg/kg kam, umumiy kaliy 1,056 va 1,049%, almashunuvchi kaliy 196 va 186 mg/kg kam ta’minlangan guruhga mansubligi kuzatildi;

Go‘ng tarkibi - gumus uglerodi 12,3%, umumiy shakldagi azot 0,45%, fosfor 0,59%, kaliy 0,77%, harakatchan shakldagi azot 0,28 mg/kg, fosfor 68 mg/kg, almashunuvchi kaliy 498 mg/kg, namligi 12,1%, pH 6,19.

Fon + OMO‘ 15 t/ga qo‘llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi gumus miqdori 0,608 va 0,595% kam, umumiy azot 0,045 va 0,045%, umumiy fosfor 0,128 va 0,126%, harakatchan fosfor 16,7 va 13,6 mg/kg kam, juda kam, umumiy kaliy 0,999 va -0,986%, almashunuvchi kaliy 177 va 169 mg/kg kam ta’minlanganligi bilan harakterlandi.

Organik mineral o‘g‘it tarkibi (OMO‘) - umumiy fosfor 1,33 %, fosforning trilon B eritmasi bo‘yicha o‘zlashuvchan 0,74 %, P_2O_5 limon kislotasida o‘zlashuvchan 14,45%, umumiy organik moddalar 3,17%, gumin kislotalari 3,29%, fulvokislotalar 3,05 %, suvda eriydigan organik moddalar 0,32 %, azot 0,48 %, K_2O 3,89%, umumiy CaO 1,33 %, namlik 72,5% tashkil etadi.

Fon + OMO‘ 10 t/ga qo‘llanilgan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtacha gumus miqdori 0,556 va 0,531 kam, umumiy azot 0,044 va 0,043%, umumiy fosfor 0,127 va 125%, harakatchan fosfor 10,6 va 9,00 mg/kg juda kam, umumiy kaliy 1,051 va 1,048%, almashunuvchi kaliy 176 va 147 mg/kg kam ta’minlanganligi aniqlandi.

Dala-tajriba maydonining g‘o‘za vegetatsiyasi tugagandan keyin olingan tuproq namunalarida gumus, umumiy va harakatchan oziqa moddalari miqdori aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra;

Nazorat 1-variant qaytariqlarida 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi gumus miqdori 0,628 va 0,484% umumiy azot 0,049 va 0,040% ni, fosfor 0,133 va 0,130% ni, kaliy 1,026 va 1,015% ni, harakatchan fosfor 25,2 va 14,1 mg/kg, almashinuvchi kaliy 200 va 179 mg/kg aniqlandi.

Nazoratga nisbatan eng kam o‘zgarishi bo‘lgan 2 va 7-variant qaytariqlarning 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi gumus miqdori 0,643 - 0,558% va 0,557-0,563% ni, umumiy azot 0,049-0,044% va 0,044-0,045%, fosfor 0,135-0,129% va 0,133-0,130 %, harakatchan fosfor 27,7-23,9 va 25,6-20,5 mg/kg, kaliy 1,031-1,011 va 1,089-1,054%, almashinuvchi kaliy 205-197 va 164 - 168 mg/kg bo‘lganligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotni 4-variant qaytariqlarida nazoratga nisbatan 0-30 sm va 30-50 sm li qatlamda o‘rtachasi eng ko‘p oziqa elementlar gumus miqdori 0,733 va 0,576%, umumiy azot 0,056 va 0,046%, fosfor 0,138 va 0,121%, harakatchan fosfor 41,6 va 23,8 mg/kg, kaliy 1,099 va 1,060%, almashunuvchi kaliy 277 va 228 mg/kg ko‘pligi kuzatildi.

Birinchi yilda dala tajribani g‘o‘za o‘simligini vegetatsiyasi davomida o‘sishi bo‘yicha rivojlanishi, hosil elementlarini to‘planishi bo‘yicha fenologik kuzatuv 3 qaytarilishda olib borildi (1-jadval).

Unda chin barg fazasidagi fenologik kuzatuvlar (8.06.2021) oyidagi mineral o‘g‘it qo‘llanilgan nazorat o‘rtachasi bo‘yi 20,1 sm ni, barg donasi 8,7 ta ni tashkil etadi. Nazoratga nisbatan 2-variant poya bo‘yi 0,7 sm ni, barg donasi 0,2 donani, Biogumus qo‘llanilgan poya bo‘yi 0,2 sm kam, Zoogumus 1,1 cm ko‘p, va Go‘ng qo‘llanilgan 0.2 sm ko‘p, o‘sha variantlar barg donasi 0,1 va 0,2 dona ko‘pni, OMO‘ 15t/ga va 10 t/ga qo‘llanilgan variantlar poya bo‘yi 0,3 va 0,2 sm ni, barg donasi 0,1 donani ko‘pligi aniqlandi. Nazoratga nisbatan eng yaxshi natija olingan asosiy poya bo‘yi, bargi sonlari 10 t/ga hisobida zoogumus qo‘llanilgan 4-varianti 1,1 sm va 0,2 dona yuqoriligi kuzatildi.

1-Jadval. Suv toshqini yuz bergan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida vegetatsiya davomida olib borgan g‘o‘za o‘simligining fenologik kuzatuvi jarayonlari 2021-yil

№ vari, qaytari-lish.	Variantlar nomi	8 iyun		12 iyul				12 Avgust					5 sentyabr		
		Asosiy poya bo‘yi, sm	Bargi dona	Asosiy poya bo‘yi. sm	Hosil shoxi, dona	Gul son, dona	Ko‘sak soni, dona	Asosiy poya bo‘yi. sm	Hosil shoxi, dona	Gul son, dona	Ko‘sak dona, o‘rtachasi		Asosiy poya bo‘yi. sm	Ko‘sak dona, o‘rtachasi	
											umumiy	Ochilgani		Umumiy	Ochilgani
1-I	$N_{180}P_{126}K_{90}$ (FON)-Nazorat	20,2	8,2	48,4	5,6	3,1	3.2	73,3	7,6	0,38	7,4	0,80	75,5	7,60	6,80
1-II		19,8	8,5	50,2	3,2	2,9	3.9	68,3	6,5	0,43	7,0	0,65	69,3	7,10	5,50
1-III		20,3	9,5	49,2	3,3	2,5	3.9	70,9	7,9	0,20	7,2	0,80	71,9	7,50	5,20
O‘rtacha		20,1	8,7	49,3	4,0	2,8	3.7	70,8	7,3	0,34	7,2	0,75	72,2	7,40	5,80
2-I	FON + 200 ml/ga Bio-energiya –M biopreparat	18,8	8,9	54,8	6,0	2,6	4.8	82,6	7,5	0,63	8,4	0,54	85,6	9,90	7,10
2-II		22,2	7,9	52,1	4,2	3,1	4.9	74,3	6,3	0,48	8,6	0,40	75,3	9,50	6,40
2-III		21,5	9,8	49,5	w	2,7	3.6	66,4	9,0	0,20	7,8	0,56	67,6	9,10	6,50
O‘rtacha		20,8	8,9	52,1	4,4	2,8	4.4	74,4	7,6	0,44	8,2	0,50	76,2	9,50	6,70
3-I	FON + Biogumus 10t/ga	17,8	9,8	54,6	6,9	3,6	5.1	88,2	8,4	1,00	12,52	0,80	92,2	15,4	10,8
3-II		19,5	9,6	53,1	4,2	3,2	4.5	83,2	8,1	0,98	12,5	0,95	87,9	15,5	11,9
3-III		22,3	7,1	55,8	3,6	2,5	3.9	75,3	8,3	0,68	12,7	0,39	79,8	15,3	10,3
O‘rtacha		19,9	8,8	54,5	4,9	3,0	4.5	82,2	8,3	0,90	12,6	0,71	86,6	15,4	11,2
4-I	FON +Zoogumus 10 t/ga	22,0	9,5	56,1	5,7	3,1	5.9	77,0	7,2	0,68	14,7	0,45	89,1	18,9	12,4
4-II		23,3	9,1	53,8	6,0	3,2	4.8	88,3	11,2	0,80	14,6	0,29	89,9	18,5	12,2
4-III		18,2	8,2	52,7	4,5	2,9	4.5	76,1	7,9	0,28	14,5	0,62	89,8	18,7	12,0
O‘rtacha		21,2	8,9	54,2	5,4	3,1	5.1	80,5	8,8	0,60	14,6	0,45	86,6	18,7	12,2
5-I	FON + Go‘ng 20t/ga	19,2	8,8	57,6	4,7	3,6	5.5	77,0	6,0	0,35	11,6	0,96	90,8	12,5	9,90
5-II		20,2	7,9	52.1	5,1	2,8	4.3	76,1	8,9	1,10	11,8	0,54	86,1	12,2	10,4
5-III		21,5	9,9	49,8	5,2	2,9	4.1	68,3	8,3	0,35	11,5	0,55	79,9	12,5	10,5
O‘rtacha		20,3	8,9	53,2	5,0	3,1	4.6	73,8	7,7	0,60	11,6	0,68	85,6	12,4	10,3
6-I	FON + OMO‘ 15 t/ga	18,6	8,9	52,9	5,1	3,2	5,0	88,2	8,3	0,91	12,2	0,80	91,2	12,8	9,90
6-II		22,1	8,8	56,2	4,9	3,0	4,9	80,2	8,1	0,78	11,3	0,96	86,9	12,6	9,90
6-III		20,5	8,7	49,9	5,1	2,8	3,9	72,3	7,9	0,68	11,9	0,32	77,8	12,6	10,4
O‘rtacha		20,4	8,8	53,0	5,0	3,0	4,6	80,2	8,1	0,79	11,8	0,69	85,3	12,7	10,1
7-I	FON + OMO‘ 10 t/ga	20,9	8,9	53,1	5,0	3,0	5,1	77,0	5,9	0,60	10,5	0,86	90,0	11,1	8,30
7-II		20,1	8,7	52,6	5,1	2,8	4,9	75,1	8,4	0,60	9,50	0,54	85,1	11,2	9,20
7-III		19,9	8,6	50,8	3,9	2,9	3,5	68,3	8,1	0,50	10,0	0,55	79,9	10,1	9,10
O‘rtacha		20,3	8,7	52,2	4,7	2,9	4,5	73,5	7,6	0,57	10,0	0,65	85,0	10,8	8.80

Keyingi gullash fazasida fenologik kuzatuvlar (12.07.2021) bo‘lib, nazorat poya bo‘yi o‘rtachasi 49,3 sm ni, hosil soni 4,0 donani, gul soni 2,8 dona, ko‘sak soni 3,7 donadan iborat. Nazoratga nisbatan 2 variant poya bo‘yi o‘rtachasi 2,8 sm ni, hosil soni 0,4 dona, gul soni oshmagan, ko‘sak soni 0,7 donani, 3-variant poya bo‘yi o‘rtachasi 5,2 sm ni, hosil soni 0,9 dona, gul soni 0,2 dona, ko‘sak soni 0,8 dona, 4 va 5-variant poya bo‘yi o‘rtachasi 4,9 va 3,9 sm ni, hosil soni 1,4 va 1,0 donani, gul soni 0,3 dona, ko‘sak soni 1,4 va 0,9 dona, 6 va 7-variant poya bo‘yi o‘rtachasi 0,7 va 0,3 sm ni, hosil soni 1,0 va 0,7 donani, gul soni 0,2 va 0,1 dona, ko‘sak soni 0,9 va 0,8 donani tashkil etgan.

Nazoratga nisbatan eng yaxshi olingan biogumus qo‘llanilgan 5,2 sm asosiy poya bo‘yi baland, zoogumus qo‘llanilgan hosil shohi 1,4 dona, gul soni 0,3 dona, ko‘sak soni esa 1,4 dona ko‘p. Nazorotga nisbatan eng kami elementlari Bioenergiya –M biopreparat qo‘llanilganda 52,1 sm asosiy poya bo‘yi, hosil shohi 4,4 dona, gul soni 2,8 dona, ko‘sak soni esa 4,4 dona tashkil etadi (1-jadval).

Shu bilan navbatdagi hosil to‘plash bosqichida (12.08.2021) fenologik kuzatuv jarayonida nazorat 1-variant 70,8 sm ni, hosil shoxi 7,3 dona, gul soni 0,34 dona, ko‘saklar 7,2 dona ochilgani 0,75 donani tashkil etadi. Nazoratga nisbatan 10 t/ga hisobida biogumus qo‘llanilgan 11,4 sm asosiy poya bo‘yi baland, hosil shohi 1 donaga gul soni 0,56 dona, 10 t/ga hisobida zoogumus qo‘llanilganda hosil shohi 1,5 dona, ko‘sak soni esa 11,3 dona ko‘pligi aniqlandi. Nazoratga nisbatan eng kami esa 200 ml/ga Bioenergiya–M biopreparat bilan OMO‘ 10 t/ga qo‘llanilganda 74,4 va 73,5 sm asosiy poya bo‘yi, hosil shohi 7,6 dona, gul soni 0,44 va 0,57 dona, ko‘sak soni esa 8,2 va 10,0 donaligi kuzatildi.

Keyingi fenologik kuzatuv jarayoni (05.09.2021) 10 t/ga hisobida biogumus qo‘llanilgan 3-variantda asosiy poya bo‘yi 86,6 sm, 10 t/ga hisobida zoogumus qo‘llanilgan 4-variantida asosiy poya bo‘yi 86,6 sm, ko‘saklar soni 18,7 dona, paxta ochilgani esa 12,2 donani tashkil etgan OMO‘ 10 t/ga qo‘llanilganda 70,8 sm asosiy poya bo‘yi, hosil shohi 7,3 dona, gul soni 0,34 dona, ko‘sak soni esa 7,2 dona eng yaxshi natijalar olinganligi kuzatildi.

Olingan tajriba natijalar ko‘ra; nazorat mineral o‘g‘it qo‘llanilgan 1-variantlarni o‘rtacha 25 s/ga hisobida hosil to‘plangan. Nazoratga nisbatan eng kami 200 ml/ga Bioenergiya–M biopreparat qo‘llanilgan 2-variantni o‘rtacha 2,8 s/ga ko‘p; 3-variantni o‘rtacha 10 t/ga hisobida biogumus qo‘llanilganda 7,8 s/ga ko‘p; dala-tajriba olib borilgan variantlar ichida eng yaxshi hosil olingan 10 t/ga hisobida zoogumus qo‘llanilgan 4-variantda 10 s/ga ko‘p olingan; 5-variantda 4,2 s/ga; 6-variant 4,8 s/ga; 7-variant 3,2 s/ga ko‘pligi aniqlandi (2-jadval).

Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida olib borilgan paxta hosiliga ta’siri bo‘yicha matematik ishlov berishning bir omilli usulida ishlab chiqildi. Unda paxta hosili bo‘yicha NSR_{05}= 0,99 s/ga, aniqlandi.

2-jadval

Suv toshqini yuz bergan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida olib borilgan g‘o‘za hosildorlik tajribasi 2021-yil.

№ vari, qaytari lish	Variantlar nomi	Terimlar bo‘yicha, kg/bo‘lakcha			s/ga hisobida	Nazoratga nisbatan qo‘shimcha, s/ga
		I	II	Jami		Minnimal.
1-I	$N_{180}P_{126}K_{90}$ (FON)-Nazorat	17,34	1,80	19,14	25,18	
1-II		17,61	1,65	19,26	25,35	
1-III		17,20	1,38	18,59	24,46	
O‘rtacha		17,38	1,61	19,00	25,00	0
2-I	FON 200ml/ga mikrobiologik preparat	19,21	2,55	21,76	28,63	
2-II		17,91	3,18	21,10	27,77	
2-III		19,78	0,73	20,51	26,99	
O‘rtacha		18,97	2,15	21,12	27,80	2,78

№ vari, qaytari lish	Variantlar nomi	Terimlar bo‘yicha, kg/bo‘lakcha			s/ga hisobida	Nazoratga nisbatan qo‘shimcha, s/ga
		I	II	Jami		Minnimal.
3-I	FON Biogumus 10t/ga	19,61	5,95	25,56	33,64	
3-II		17,12	7,40	24,53	32,27	
3-III		22,10	2,67	24,77	32,60	
O‘rtacha		19,61	5,34	24,95	32,84	7,84
4-I	FON Zoogumus 10t/ga	23,47	3,79	27,27	35,89	
4-II		24,03	3,15	27,18	35,76	
4-III		22,95	2,40	25,35	33,36	
O‘rtacha		23,48	3,12	26,60	35,00	10,0
5-I	FON Go‘ng 20t/ga	21,18	1,99	23,17	30,49	
5-II		19,48	2,46	21,94	28,87	
5-III		19,48	2,09	21,58	28,39	
O‘rtacha		20,04	2,18	22,23	29,25	4,20
6-I	FON OMO‘ 15t/ga	19,55	3,38	22,93	30,17	
6-II		19,38	3,12	22,50	29,61	
6-III		19,97	2,50	22,48	29,58	
O‘rtacha		19,63	3,00	22,64	29,79	4,80
7-I	FON OMO‘ 10t/ga	19,29	2,21	21,50	28,29	
7-II		19,46	2,15	21,62	28,45	
7-III		18,61	2,44	21,06	27,71	
O‘rtacha		19,12	2,27	21,39	28,15	3,20

Xulosa. Tabiiy ofat oqibatida yuvilib ketgan tuproqlarni unumdorligini qayta tiklashga qaratilgan dala tajribada olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, nazoratga nisbatan oziqa elementlari va vegetatsiya davomida olib borilgan g‘o‘za o‘simligining fenologik kuzatuvi jarayonlari hamda paxta hosili eng kam miqdori Bioenergiya–M biopreparat qo‘llanilgan 2-variantda aniqlangan. Biogumus va zoogumus qo‘llanilgan variantlarida esa eng ko‘p kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi F-5569-son farmoyishi, 2020 yil 1 may, – Toshkent sh.
2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari // O‘zPITI. – Toshkent, 2007 y. – B. – 1-146.
3. Аринушкина. Ye.B. Руководство по химическому анализу почвы. M.: 1970 г.
4. Jason C. Managing Soil and Soil Fertility After Flooding, SDSU Extension. – 2019. – S. – 1-7
5. Kingshuk Roy. et al. Post-tsunami salinity status of reclaimed and nonreclaimed farmlands in Miyagi Prefecture, Japan //J. Environ. Information Sci. – 2015. – T.: 43. – S. – 19-24.
6. Kingshuk Roy et al. // The Yeffects of Land Restoration on Soil Fertility in Tsunamiin-undated Farmlands of Miyagi Prefecture in Japan IJERD – International Journal of Environmental and Rural Development (2017) 8-1 – pp. –39-48.
7. Norqulov U., Shamsiev A.,Eshonqulov J. Sardoba suv ombori toshqinidan keyingi tuproq tarkibidagi oziqa moddalarining o‘zgarishi // O‘zbekiston zamini. Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal 2 –son. – Toshkent, 2023 y. - B. –71-74.
8. Norqulov U., Izbosarov B.,Tuxtashev B.,Yeshonqulov J.. 4 Yeffects of Sardoba Reservoir Flood on Irrigated Land. //International Journal of Innovative Analyses and Yemerging Technology |ye-ISSN: 2792-4025 | http://openaccessjournals.yeu | Volume: 2 Issue: 2. 2 in. February-2022. – R. – 40-42.
9. Norkulov U, Tuxtashev B, Eshonkulov J. Change of Mechanical Composition of Soils after Flood of Sardoba Water Reservoir, International Journal of Innovative Analyses and Yemerging Technology ye-ISSN: 2792-4025 Volume: 2 Issue: 2 2022. – R. – 36-39.
10. Бобоноров Б.Б., Tabiiy ofat yuz bergan hudud tuproqlarining holati, unumdorligini qayta tiklash yo‘llari (Sardoba suv ombori ta’siri misolida) (PhD) dissertatsiya avtoreferati 21.05.2025 y. – B. 45.
11. Бобоноров Б.Б., Рузметов М.И . Улучшение состояния и продуктивности заводненных почв. International conference on analysis of mathematics and exact sciences, – Polsha, 2024. – №1(3). – P. – 49-56.

UO‘T: 63-057.2.631.4

OROL DENGIZINING QURIGAN TUBIDAGI TUPROQ – GRUNTLARINING MORFOLOGIK BELGILARI VA AYRIM KIMYOVIY XOSSALARI

Tokhtasin Abdrakhmanov,
Biologiya va ekologiya fakulteti
Tuproqshunoslik kafedrasi, professori
e-mail: to.abdraxmonov@nuu.uz

Zafarjon Jabbarov,
Biologiya va ekologiya fakulteti
Tuproqshunoslik kafedrasi, professori
e-mail: zafarjonjabbarov@gmail.com

Samad Makhammadiev,
Biologiya va ekologiya fakulteti
Tuproqshunoslik kafedrasi, dotsenti
e-mail: mahammadiev3@gmail.com

Qunduz Normurodova
Biologiya va ekologiya fakulteti biotexnologiya va mikrobiologiya kafedrasi, professori
e-mail: normurodovak@gmail.com

Maftuna Karimboyeva
Biologiya va ekologiya fakulteti Tuproqshunoslik kafedrasi, mustaqil izlanuvchi doktoranti
e-mail: karimboyevamaftun2@gmail.com

Kamoliddin Idirisov,
qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Quyida maqolada Orol dengizining qurigan tubidagi tuproq – gruntlarining morfologik belgilari va ayrim kimyoviy xossalari keltirilgan. Tadqiqot uchun tuproq namunalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani “Kemalar qabristoni” yonidan boshlab Nolovoy nuqtagacha har 20 km masofadan turli relief va landshaftga ega joylardan olindi. Tahlil natijalariga ko‘ra ushbu tuproq – gruntlari gumus bilan juda kam ta’minlangan. Namunalarning pH muhiti kuchsiz kislotali, neytral, kuchsiz ishqoriyligi, EC miqdoriga qarab sho‘rlanish darajasi kuchsiz o‘rtacha, kuchli, sho‘rxok tiplarga mansubligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: tuproq evolutsiyasi, tuzlar migratsiyasi, sho‘rlanish darajasi, pH, gumus, EC (dS/m) elektr o‘tkazuvchanlik, qurg‘oqlanish indeksi, potensial evopotranspiratsiya.

Аннотация. В статье представлена морфологическая характеристика и некоторые химические свойства почв и грунтов высохшего дна Аральского моря. Образцы почв для исследования были отобраны на участках с различным рельефом и ландшафтом на расстоянии 20 км от «Кладбища кораблей» Мойнакского района Республики Каракалпакстан до мыса Ноловой. По результатам анализа установлено, что данные почвы и грунты крайне бедны гумусом. По pH проб определены слабокислые, нейтральные, слабощелочные, а по уровню засоления, в зависимости от содержания электролитов, – слабо-, средне-, сильно- и солоноватые.

Ключевые слова: эволюция почвы, миграция солей, уровень засоления, pH, гумус, электропроводность EC (dS/m), индекс засушливости, потенциальное испарение.

Annotation. The article presents the morphological characteristics and some chemical properties of the soil and subsoil of the dried-up bottom of the Aral Sea. Soil samples for the study were taken from areas with different relief and landscape at a distance of 20 km from

the "Ship Graveyard" of the Moynaq district of the Republic of Karakalpakstan to the Nolovoy point. According to the results of the analysis, these soil and subsoils are very poorly supplied with humus. The pH of the samples was determined to be weakly acidic, neutral, weakly alkaline, and the salinity level, depending on the EC content, was weakly, moderately, strongly, and brackish.

Key words: soil evolution, salt migration, salinity level, pH, humus, EC (dS/m) electrical conductivity, drought index, potential evapotranspiration.

Kirish. O‘tgan 60 yildan ortiq vaqt davomida Orol dengizi lanshaftlarning bosqichma - bosqich shakllanishi ro‘y bermoqda, ya’ni landshaftlar doimo o‘zgarishda bo‘ladi. Orol bo‘yi va Orolning qurigan tubi mintaqasidagi landshaftlar ham o‘zgarishda davom etmoqda. Hududdagi landshaftlarning shakllanishini 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

· shakllanishning boshlang‘ich bosqichi (qurigandan keyingi 1-5 yilgi vaqt);

· shakllanish davom etayotgan bosqich (6 - 20 yil);

· landshaftlarning nisbatan shakllanib ulgurgan bosqichi (21 - 45 yil).

Shakllanishning boshlang‘ich bosqichidagi landshaftlar quriyotgan dengiz bo‘ylab joylashgan juda yosh, hali strukturasi shakllanib ulgurmagan landshaftlar hisoblanadi. Yangi qirg‘oq chizig‘idan kengligi 2 - 4 km bo‘lgan maydonlarda 1-2 yilda marsh sho‘rxoklari shakllanib, grunt suvlari 30 - 70 sm chuqurlikda yotadi, tuproq profili barcha chuqurliklarida nam. 3 - 5 yil vaqt o‘tgandan keyin marsh sho‘rxoklarining dengiz bo‘yi sho‘rxoklariga aylanishi kuzatilmoqda. Dengiz suvidan bo‘shaganiga 8 -10 yil bo‘lgan yerlarda dengiz bo‘yi qumli sho‘rxoklari hosil bo‘lib, taxminan 1 m chuqurlikkacha sho‘rsizlanmoqda va bu landshaftlar 10 - 20 % gacha siyrak holda o‘simlik bilan qoplanganligi aniqlangan [10].

Hozirgi kunga kelib tuproq evolutsiyasi hali davom etmoqda. Orol dengizining qurigan tubi hududlarida shakllanayotgan tuproqlarning xossalari turli hududlarda turlicha natijani ko‘rsatadi. Chunki hali evolutsiya jarayoni davom etmoqda hamda, bu jarayonga ta’sir qiluvchi biotik va abiotik omillar mavjud. Masalan Orol dengizi qurigan tubi tuproq - gruntlarining sho‘rlanganlik darajasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, namuna olingan masofasi yaqin bo‘lsada, tuzlar miqdori farqli bo‘lib chiqadi. Bunga bir tomondan mintaqada iqlim quruq va harorat yuqoriligi, namlik kamligi, bug‘lanish yuqoriligi hamda, o‘simlik qoplami siyrakligi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mintaqada qurg‘oqlanish hukm surishi qishloq xo‘jaligi va dehqonchilikka bevosita ta'sir ko‘rsatuvchi xavfdir. Hozirgi kunda Yer sharining qariyib 40 % i qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil zonalarga to‘g‘ri keladi (Schlaepfer va b., 2017). Iqlim o‘zgarishi, yog‘ingarchilikning kamayishi, haroratning oshishi va qurg‘oqlanish jarayoni tuproq xossalariga, shuningdek, hosil miqdori va sifatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biridir [9].

Iqlim o‘zgarishi – bu sayyoradagi ob-havoning uzoq muddatli statistik o'zgarishi bo‘lib, tabiiy va inson faoliyati natijasida yuzaga keladi. O‘zbekistonda 1880 - yildan hozirgi vaqtgacha o‘rtacha yillik harorat 1,6°C ga oshdi (13,2°C dan 14,8°C gacha). Mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra, 2030-2050 - yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°C ga ko‘tarilishi mumkin [6]. O‘zbekiston hududida qurg‘oqlanish hukm surayotgan hududlardan biri Orol dengizi hududlaridir. Olib borilayotgan tadqiqotlarda Orol dengizi hududining qurg‘oqlanish indeksini (aridlik ko‘rsatkichi) va potensial evopotranspiratsiya jarayonlari o‘rganilmoqda [2,3,4].

Aridlik ko‘rsatkichi asosida tasniflar ham ishlab chiqilgan. Bu usul FAO tomonidan 1980-yillarda qurg‘oqlanishni baholash va suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan va hozirda dunyo bo‘ylab iqlimni o‘lchashda keng qo‘llaniladi [2,8].

Potensial evapotranspiratsiyani aniqlashda Penman-Monteith, Thornthwaite, Blaney-Criddle, Turc, Priestley-Teylor,

Hargriaves, Jensen-Haise va Abtew empirik tenglamalaridan foydalaniladi. Penman-Monteith usuli — bu (PET) ni hisoblashda eng aniq va keng qo‘llaniladigan metodlardan biridir. Bu usul FAO-56 standarti asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u shuningdek, FAO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) tomonidan tavsiya etiladi [7,9,12].


Iqlim o‘zgarishining tuproq mikro-biomlariga va ularning ekotizimga ta’sirini o‘rganish va bashorat qilish sayyoramiz oldida turgan eng dolzarb muammolar-dan biri hisoblanadi [5].

Ayrim tadqiqotlarda qurigan Orol dengizi hududlarini ekologik holatini yaxshilash tuz qumlarning ko‘chishini kamaytirish maqsadida turli amaliy loyihalar olib borilmoqda. Jumladan, Orolning qurigan tubi qumliklarida o‘sishga moslashgan o‘simliklarning urug‘i o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash maqsadida turli biopreparatlardan foydalanilmoqda. Bunda Yer malhami, Imbikom, Bist, Bioazot biopreparatlaring ta’siri o‘rganilgan. Natija esa Yer malhami o‘simliklar urug‘ining unuvchanligi va o‘sib rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilishi aniqlangan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Orolning qurigan tubi hududlaridan kimyoviy, fizik va biologik tahlillarni o‘tkazish maqsadida tuproq gruntlarida namunalar olindi. Tuproq namunalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani “Kemalar qabristoni” dan boshlab Nolovoy nuqtagacha har 20 km lik masofadan olindi. Tuproq namunalarini olish, saqlash, laboratoriya tajribalar o‘tkazish ГОСТ:17.4.3.01–83 suvli so‘rim, pH - muhiti ГОСТ 26423-85 Davlatlararo standarti asosida bajarildi [11].

Tahlil va natijalar. *№1 kesma. Kemalar qabristonidan 600 m sharqiy tomonga tushirilgan. Lon: 59^0 02.42447' E; Lat: 43^0 47.43530' N; Dengiz sathidan h – 45 m. Sust qatqaloqli qumlashgan, kuchsiz chig‘anoqli, sho‘rlangan, yarim gidromorf tuproq – grunti (1- rasm).*

0-4 sm Korka qavat, och kulrang yuza qatlami, korkaga xos bo‘lgan qatqaloqsimon tuzli qatlam. Chig‘anoqlar mavjud, qumli, tuz kristallari uchraydi, mayda toshchalar, mayda-mayda gipsli ya’ni granula shaklidagi qattiq qoldiqlar ham mavjud. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi namligi bo‘yicha.



1-rasm. №1 kesma olingan joy va tuproq kesmalari

4-15 sm. Rangi kulrangga xos, namlangan qum, chig‘anoq mayda qol-diqlari uchraydi, o‘simlik ildizlari uchraydi, Biroz qizg‘ish sarg‘ish zang dog‘lari ham mavjud, keyin qatlamga o‘tishi rangi bo‘yicha.

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.

15-21 sm. Rangi to‘q kulrang namlangan, to'q jigarrang, qizg'ish dog‘larga ega, mayda o‘simliklar uchraydi, temir qoldiqlari va chig'anoq qoldiqlari mavjud. Mexanik tarkibi og‘ir qumoqqa xos, loy shakllari yasagan paytda zichlashmagan, lekin bir qatlamdan ikkinchi qatlamga yaqqol namligi bilan o'tishi ko'rinadi. Tuz kristallari uchraydi, oq mog‘or zamburug‘i mavjud, bundan tashqari chirigan o‘simlik qoldiqlari ko‘p, mayda karbonatlar tuz kristallari oq dog‘lar holida ko‘rinadi. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi va namligi bilan.

21-44 sm. Rangi biroz och-sarg‘ishga o‘zgargan, o‘rtacha namlangan, zichlashgan, kristall qoldiqlari mavjud, chig‘anoq va o‘simlik qoldiqlari birinchi qatlamdan ikkinchi qatlamga o‘tayotganda nisbatan kamroq, chirigan ildiz qoldiqlari, hasharotlar izlari kam, popanak zamburug‘i uchraydi. Siqib ko‘rilganda o'rta qumoqqa xos belgilar uchradi. Biroz qizg‘ish temir dog‘lariga ham ega. Birinchi qatlamdan ikkinchi qatlamga namligi, rangi, zichligi bilan o'tmoqda.

44- 57 sm. Rangi sarg‘ishga o‘zgargan chirigan ildizlar uchraydi, namlik ortib borgan, kristallar va qizgish dog‘lari mavjud, rangi tusi bilan almashinyapti, mayda mayda karbonat qoldiqlari ham bor, keyingi qatlamga o‘tishi zichligi, namligi va rangi bilan aniq.

57-64 sm. Rangi nisbatan to‘qlashgan, sariq dog‘lari, o'simlik ildizlari yuqoridagi qatlamga nisbatan kamroq, chirigan ildizlar esa ko'proq, oq dog‘lari va po‘panakchalar mavjud, hasharot izlari nisbatan yo‘qolgan, onda-sonda yupqa-yupqa botqoqlarga xos bo‘lgan bo'laklariga ega.

64-72 sm. Rangi kulrangga o‘zgargan, zichlashgan, chirigan ildizlar va o‘simlik qoldiqlari kamaygan, oq zamburug‘ qoldiqlari va karbonatlar ham kamaygan, nisbatan namlik ortgan. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi, namligi, zichligi bilan.

72-75 sm. To‘q namlangan, qoramtir kulrang tusda o‘simlik ildizlari uchramaydi, karbonat qoldiqlari mavjud, botqoqqa xos bo‘lgan tusda, siqib ko‘rilgan paytda loylik alomatlari borligi ko‘rinadi, organika belgilaridan loyqalikka moyillik bor. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi, zichligi, namligi bilan.

75 -85 sm. Tuz kristallari, chig'anoq qoldiqlari, qizg‘ish dog‘lari bor, o'simlik ildizlari yo‘qolgan, keyingi qatlamga o'tishi rangi, zichligi bilan aniq.

85-91 sm. Botqoq qatlam, to‘q kulrang, qizg‘ish dog‘lari onda-sonda uchraydi, o'simlik ildizi uchramaydi, rangi tusi bilan bir qatlamdan keyingi qatlamga o'zgarganini ko‘rishimiz mumkin.

91-103 sm. Chuqur ketgan qoldiq o‘simlik ildizlari uchraydi, zamburug‘lar mavjud, qumli, namlik yuqoriligi aniqlangan, qizg‘ish temir dog‘lari va tuz kristalari mavjud, botqoqdan ildizning o‘tganligidan o‘simlikning hayotchanligi yuqori va yashab keta olishidan dalolat beradi (yoki qachondir qum ko‘chishi paytida o‘simliklar qolib ketgan).

103-113 sm. Namlangan, rangi kulrang, zich, kremnezen holida, toshga aylanish hodisasi bor, karbonatlar va tuz kristallari uchraydi, keyingi qatlamga nisbatan zichroq, o'simlik ildizlari uchramaydi, hasharot izlari uchramaydi. Kimyoviy jarayonlar faol. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.

113-139 sm. Yuqori qatlam bilan bir xil qumli qatlam, namligi va zichligi yuqori, tuz kristallari mavjud. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.

139-149 sm. Qizg‘ish temir dog‘lariga ega, zichlik yuqori, yuqoridan pastga tomon o‘zgarib borgan. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi bo‘yicha.

149-154 sm. sargish, temir qizg‘ish dog‘lari judayam ko‘p, chig‘anoq onda-sonda, tuz kristallari mavjud, keyingi qatlamga o‘tishi rangi, zichligi bo‘yicha.

154-186 sm. Rang va tusi bir xil bo‘lgan, namligi va zichligi yuqori qatlam, rangi ochlashgan, sarg‘ish. Keyingi qatlamga o‘tishi namgi bo‘yicha.


186 sm dan Qattiq kristallashgan, To‘q sariq, qattiq hosil qilgan baryer qatlam.

№2 kesma. Nolovoy nuqtadan

olingan Lon: 58⁰ 51.49269' E; Lat: 44⁰ 09.24458' N; Dengiz sathidan h – 34,6 m. Qumli – qumlashgan, sho'rxokli – sho'rtoblashgan, mustahkam qatqaloqli, avtomorf tuproq – grunti (2- rasm).

0-3 sm. Och kulrangroq, qumloq, qatqaloqli, chig'anoq qoldiqchalari mavjud, o'simlik chirigan ildizlari ham uchraydi, yuza qatlami yumshoq, nisbatan qoramtirroq. Keyingi qatlamga o'tishi aniq.

3-8 sm. Och kulrang, ko'rkadan keyingi qatlamda yengil namlik bor. Chirigan ildizlarni qoldiqlari onda-sonda uchraydi, mayda kam, lekin chig'anoq qoldiqlari nisbatan ko'proq. Keyingi qatlamga o'tishi zichligi bilan.



2-rasm. №2 kesma olingan joy va tuproq kesmalari

3-12 sm. Och kulrang, zichlasha boshlagan saksovul ildizi tarqoq bo'lib yuza qatlamda yoyilib ketgan. Sho'rlangan, keyin qatlamga o'tishi rangi bo'yicha aniq.

12-21 sm. Sarg'ish, zich qatlam uchraydi, namligi nisbatan mavjud, o'simlik ildizlari yo'qolgan, dengizni tub qismi bo'lgani uchun shu yerda o'simliklariga hos bo'lgan mayda qoramtir ildizchalari uchraydi, chirib qogan qoramtir dog'lar mavjud, gips bo'lib qotib qolgan, keyingi qatlamga o'tish zichligi bo'yicha aniq.

21-33 sm. Och sarg'ish, o'ta zichlashgan, o'simlik qoldiqlari jigarrang yupqa pardadek yopishgan (kesaklarni sindirganda Ichida shunaqa ko'rinish bor edi), tuz kristallari mavjud, chig'anoq deyarli yo'q. Mutlaq belkurak bilan qazishni imkoniyati cheklanib qolgan.

№3 kesma. Lon: 59⁰ 50.68906' E; Lat: 44⁰ 07.64246' N; Dengiz sathidan h – 35,8 m. Qumli – qumlashgan, sho'rxokli, qatqaloqli, yarim gidromorf tuproq grunti(3- rasm).

0-3 sm. Och kulrang, zich qobiqli, chig'anoqlar mavjud, qumli, tuz kristallari uchraydi, ko'kimtir gips qoldiqlari ham bor, onda-sonda o'simlikning chiriyotgan qoldiqlar ham mavjud, hasharotlar izlari bor.

3- 24 sm. Sarg'ish kulrang, qumli, qatqaloq osti qatlami kuchli namlangan, chig'anoqlar mavjud, qizgish temir doglariga ega, o'simlik ildizlari uchraydi, hasharot inlari mavjud, mayda teshikchalari bor, chig'anoq qoldiqlari koroziyaga uchragan ezilgan holda, mexanik tarkibi


ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.

o‘rta qumoqqa xos belgilarni namoyon qiladi. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi va zichigi bilan.

24-45 sm. Ko‘kimtir och kulrang, berch, temir dog‘lari uchraydi, tuz ta’sirida chig‘anoqlar parshalanish jarayoni kuzatildi, o‘simlik qoldiqlari uchramaydi, hasharot izlari kamaygan. Keyingi qatlamga o‘tishi namligi, rangi, zichligi bilan.

45-62 sm. Och kulrang gipsga xos belgilar mavjud, o‘simlik qoldiqlari uchramaydi,

Chig‘anoq yo‘q parchalanib ketgan tuz ta’sirida, berch, loyqa halqalari hosil qilgan, namlik oshgan. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.



3-rasm. №3 kesma olingan joy va tuproq kesmalari

62-64 sm. Och kulrang, ikki qatlam oralig‘ida 2 smli yupqa qoramtir qatlam mavjud, o‘simlik chog‘anoq yo‘q, namlik yuqori, zichlashgan. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi va zichligi bo‘yicha.

64-72 sm. Rangi och kulrang, qizg'ish dog‘lari ko‘paygan, o'simlik qoldiqlari va hasharot izlari uchramaydi, chig'anoqlar parchalanib ketgan, loylik yoqolgan, namlik ushlab turilmagan. Keyingi qatlamga o'tishi rangi va zichligi bilan.

72- 89 sm. Qizg‘ish rangli och kulrang, zang dog‘lari ko'paygan, chig'anoqlari ham ortgan, rangi ochlashgan, kulrangga xos, tuz kristallari uchraydi, namligi yuqori, juda ham zich, temir doglari nisbatan ko‘p. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi va mexanik tarkibi bo‘yicha.

89-96 sm. Qizgish - sarg‘ish qumli qatlam, mexanik tarkibi o'rta qumoqqa xos, qizg'ish doglari ko'p uchraydi, zichlashgan, hasharot izlari yo'q, karbonatlar oz miqdorda uchraydi, o'simlik qoldiqlari parchalanib ketgan. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi va mexanik tarkibi bo‘yicha.

96-120 sm. Qizg'ish rangdan och kulrangga o'zgargan, sarg‘ish dog‘lari nisbatan kamaygan, tuz kristallari uchraydi, mog‘orlar ham mavjud, namligi yuqori, zichlashgan va loylanish holatiga ega. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.

120-135 sm. Och kulrang qumli qatlam. Namlik oshgan, O‘simlik uchramaydi. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha. Keyingi qatlamga o‘tishi namligi bo‘yicha.


135-150 sm. Kulrang, biroz namligi

yuqori, zichlik deyarli bir xil. Keyingi qatlamga o‘tishi namligi bo‘yicha.

150-158 sm. Och kulrang, chig‘anoqlar ko‘proq. Yuqori qatlam bilan bir xil qatlam. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi bo‘yicha.

158- 183 sm. Och kulrang qumli qatlam, chig'anoqlar kamroq, loyli qatlam, namligi yuqori.

№ 4 kesma. Lon: 58⁰ 43.46581'E; Lat: 43⁰ 59.66932'N; Dengiz sathidan h – 37,9 m. Qatqaloqli, qumlashgan, sho‘rxokli gidromorf tuproq grunti (4- rasm).



4-rasm. №4 kesma olingan joy va tuproq kesmalari

0-4 sm. Qatqaloqli, qumli, sho‘rxoklashgan. Katta - katta chig'anoqlar ko‘p miqdorda uchraydi, kam namlangan, sarg‘ish dog‘lari mavjud, saksovul o‘simlikning ildizlari uchraydi, hasharotlar izlari ham bor. Keyingi qatlamga o‘tishi mexanik tarkib bo‘yicha.

4-15 sm. Sarg‘ish, mexanik tarkibi o'rta qumoqqa xos, chirigan ildizlar va hasharot izlari bor, chig'anoqlar ham uchraydi, namlangan, gips qoldiqlari va tuz kristallari ham uchraydi. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi bo‘yicha.

15-20 sm. To‘q sariq rangli, qumoq, chig'anoq va o'simlik qoldiqlari mavjud, namlik kamaygan, keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.

20-32 sm. Sariq rangli. qattiq zich qatlam, tuz kristallari uchraydi, oq dog‘-lariga ega, chirigan ildizlar bor, juda ham zich. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.

32-44 sm. Sariq rangli, mayin qumli qatlam, namlik kamaygan. Keyingi qatlamga o‘tishi mexanik tarkibi va zichligi bo‘yicha.


44-72 sm. Sariq qo‘ng‘ir qoramtir rangli, qisman berchlashgan, namligi yuqoridan pastga ortish holatida, qalin qatlamdan keyin namlik yo‘qolib, bu qatlamda ortib borgan. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha.

72-90 sm. Sarg‘ish - kulrang berch qatlam. Tuz kristallari uchraydi, chig'anoqlar uchramaydi, biroz qoldiqlari ham kuzatiladi. Keyingi qatlamga o‘tishi namligi bo‘yicha.

90-134 sm. Sariq, zich va namligi yuqori, qizg‘ish dog‘lari bor, o'simlik qoldiqlari onda-sonda uchraydi.

№ 5 kesma. Lon: 58⁰ 46.14937' E; Lat: 43⁰ 55.95179' N; Dengiz sathidan h – 43 m. Qumli – qumoqli, qatqaloqli, sho‘rxokli avtomorf tuproq – grunti (5- kesm).

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.



5-rasm. №5 kesma olingan joy va tuproq kesmalari

0-5 sm. To‘q kulrangli, yumshoq, g‘ovak – qatqaloqli, sho‘rxokli, qumli – qumoqli, chig'anoqlar mavjud, Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bilan.

5-19 sm. Rangi to‘q kulrang, namlangan, o‘simlik qoldiqlari va hasharot izlari mavjud, yumshoq, tuz kristallari mavjud, keyingi qatlamga zichligi va namligi bilan o‘tishi kuzatildi.

19-39 sm. Kulrang, zich, berch, namlik saqlangan, o'simlik ildizlari va temir dog‘lari bor, pastga qarab namlik kamaygani kuzatildi. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi va zichligi bo‘yicha.


38-62 sm. Rangi qo‘ng‘irlashgan, zich, berch, hasharot va chig'anoq qoldiqlari uchramaydi, namlik kamaygan, mog‘or uchraydi, kesaksimon. Keyingi qatlamga o‘tishi zichlik va rangi bilan.

62-108 sm. Qo‘ng‘ir – sarg‘ish rang, namlik kamayib borgan, kesakchalar saqlangan. Saksovul ildizlari mavjud.


№ 6 kesma. Lon: 58⁰ 47.65982' E Lat: 43⁰ 55.09101' N; Dengiz sathidan h – 42,5 m. Qumlashgan – qumoqli, qatqaloqli, sho‘rlangan, yarim gidromorf tuproq – grunti (6- rasm).

0-5 sm. Och kulrang, qatqaloqli, qumlashgan – qumoqli, chig‘anoqlar ko‘p, oqargan tuz qoldiqlari yuza qatlamda aniq ko‘rinadi. Qamish qoldiqlari mavjud, o‘simlik qoldiqlari mavjud, hasharotlar izlari uchraydi, o‘simlik ildizlari chirigan holati ham uchraydi. Keyingi qatlamga o‘tishi rangi va zichligi bo‘yicha aniq.

5-24sm. To‘q kulrang, struktura va namlik saqlangan, qoramtir dog‘lar mavjud. Zichlashgan. Keyingi qatlamga o‘tishi zichligi bo‘yicha aniq.




7- rasm. Tadqiqot hududidan olingan tuproq - gruntlarining pH ko‘rsatkichi




6-rasm. №6 kesma olingan joy va tuproq kesmalari

8- rasmda ko‘rsatilgan grafik asosida tadqiqot hududi tuproq – gruntining elektr o‘tkazuvchanligi turli qatlamlarda turlicha ko‘rsatkichni namoyon qildi. Grafik asosida ko‘rish mumkin № 5 va 6 tuproq gruntlarida elektr o‘tkazuvchanligi son qiymatidan boshqalarida yuqoriligini. № 5 kesmada elektr o‘tkazuvchanligi yuqori qatlamda 19 dS/m dan pastki qatlamda 8 dS/m gacha o‘zgardi. № 6 kesmada esa 14 dan 1,5 dS/m gacha pasaydi. Elektr o‘tkazuvchanlik dS/m qiymatidan tuproqlarning sho‘rlanish darajasini aniqlash mumkin. Tahlillar natijasiga ko‘ra bu namunalarning sho‘rlanish darajasi kuchsiz o‘rtacha, kuchli, sho‘rxok tiplarga mansubligi aniqlandi.



8 - rasm. Tadqiqot hududidan olingan tuproq gruntlarining elektr o‘tkazuvchanligi

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.



9- rasm. Tadqiqot hududi tuproq – gruntlarining gumus miqdori, (%)

Orolning qurigan tubi hududlaridan yuqorida ko‘rsatilgan koordinatlardan olingan tuproq – gruntlarining gumus miqdori tekshirilganda, tuproqlar gumus-ga juda kambag‘alligi ma'lum bo‘ldi (9- rasm). Gumus miqdori 0.07% dan 0.5% gacha o‘zgargan.

Xulosa. Gumus tuproq unumdor-ligini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkich-lardan biri hisoblanadi, lekin bu hudud-larda gumus miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar mavjud. Iqlimning quruqligi, harorat yuqoriligi, namlik kamligi qolaversa moslashgan o‘simliklarning kamligi, tuproq yuzasi kam qoplanishi natijasida tuproqning sho‘rlanish darajasi turli joylarda turlicha chiqadi. Hamda qatlamlar kesimida ham tuzlarning migratsiyasi va to‘planishi turlicha. Bularning barchasi tuproq gumusi va boshqa ko‘rsatkichlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Keyingi tadqiqotlarimizda ushbu tuproq namunalarining boshqa ko‘rsat-kichlari va mikroorganizmlar florasi tahlili natijalari e’lon qilinadi.

Izoh: Ushbu maqola FL-8323102111 “Orol dengizining qurigan tubi hududida tarqalgan tuproq-gruntlarining sho'rlan-ganlik holati, fizik, kimyoviy va biologik xossalariga ko'ra o'simliklar ekish hududlarini guruhlashning ilmiy asosini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdraxmonov T., Jabbarov Z.A., Boboyev S., Mahammadiyev S., Fayzullayev O., Abdullayev Sh., Imomov O., Karimboyeva M. Orol tubi tuproqlarida cho‘l va yaylov o‘simliklarining unishi va rivojlanishiga biopreparatlarning ta’siri. Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini. – Toshkent, 2022 №4. – B. – 11-14.

2. Abdraxmonov T., Karimboyeva M.Q., Imomov O.N., Sultonova N.Sh., Qurg’oqlanish jarayonining klassifikatsiyasi va tasnifi “Ifoda Agro Kimyo Himoya” mas’uliyati cheklangan jamiyati qo’shma korxonasi. № 2. 2022. – B. – 28 – 30.

3. Global Precipitation Climatology Centre and potential evapotranspiration data from the Climate Research Unit of the University of East Anglia (CRUTSv3.20), WAD3-JRC, modified from Spinoni, J. 2015 https://wad.jrc.ec.europa.eu/drought.

4. https://etcalc.hydrotools.tech/pageMain.php

5. Jose I. Q., Klaus S., Alvaro Lopez-Garcia et al. “Lower relative abundance of ectomycorrhizal fungi under a warmer and drier climate is linked to enhanced soil organic matter decomposition”. Received: 23 April 2021. doi: 10.1111/nph.1766.

6. Karimboyeva M.Q., Yoqubov E.Sh., Jabbarov Z.A., Abdraxmonov T., Normurodova Q.T. Qurg‘oqlanish indeksi va potensial evopotranspiratsiyani aniqlash algoritmi. Noqulay iqlim sharoitida zamonaviy agrotexnologiyalar qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligini kompleks rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Buxoro, 2025. – B. – 394-396.

7. McVicar, T.R., Roderick, M.L., Donohue, R.J., Li, L.T., Van Niel, T.G., Thomas, A., Grieser, J., Jhajharia, D., Himri, Y., Mahowald, N.M., Mescherskaya, A.V., Kruger, A.C., Rehman, S., Dinpashoh, Y. (2012) Global review and synthesis of trends in observed terrestrial near-surface wind speeds: Implications for evaporation. Journal of Hydrology. 416-417, 182-205. doi:10.1016/j.jhydrol.2011.10.024/.

8. World Atlas of Desertification PART IV – LIMITS TO SUSTAINABILITY. p72.

9. Yang Y.T., Roderick M.L., Zhang S.L., McVicar, T.R., Donohue R.J. Hydrologic implications of vegetation response to elevated CO2in climate projections. Nature Climate Change. – 2019, №9(1). – P. – 44 - 48. doi:10.1038/s41558-018-0361-0.

10. Гальков Ч.В. О применении фоновых значков при составлении ландшафтный карт. Вопросы физической и есономичкой географии Узбекистана. Науч. тр. ТашГУ. – Ташкент, 1967. - вып. 310. – С. – 69-74.

11. ГОСТ 26423-85 Методы определения удельной электрической проводимости, pH и плотного остатка водной вытяжки. МКС 13.080.20. 1986.

12. Donohue R.J., McVicar T.R., Roderick M.L. Assessing the ability of potential evaporation formulations to capture the dynamics in evaporative demand within a changing climate. Journal of Hydrology. 2010. № 386(1-4). – P. – 186 - 197. doi:10.1016/j.jhydrol.2010.03.020.

УДК 631.452

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ

Ираида Алексеевна Самофалова,
ФГБОУ ВО Пермский ГАТУ, профессор,
e-mail: samofalovairaida@mail.ru.

Наталья Михайловна Мудрых,
ФГБОУ ВО Пермский ГАТУ, доцент,
e-mail: nata020880@mail.ru.

Хакбердиев Обид Эшниязович,
НИУ»ТИИИМСХ», зав. каф., доцент.

Аннотация. В статье представлены различные методы оценки уровня плодородия почв в нечерноземной зоне. Использованы индекс окультуренности, коэффициент неоднородности плодородия почв, показатель почвенного плодородия, вероятностный показатель плодородия. Установлено, что почвы ООО «Совхоз Дружный» имеют низкий уровень окультуренности. Неоднородность плодородия почв в пределах хозяйства проявляется в большей степени по содержанию гумуса и обеспеченности обменным калием. Низкий коэффициент почвенного плодородия свидетельствует о целесообразности улучшения использования агроприемов, таких как внесение органических и минеральных удобрений, известкование. Вероятностный показатель плодородия почв указывает на то, что почвы хозяйства ООО «Совхоз Дружный» являются истощенными и характеризуются низким плодородием. Необходимо разработать программу мероприятий для дифференцированного повышения уровня плодородия почв.

Ключевые слова: плодородие, качество почв, оценка, неоднородность, индекс окультуренности, коэффициент почвенного плодородия, вероятностный показатель плодородия, агротехнические приемы, свойства, критерии, показатели.

Аннотация. Ushbu maqolada qoratuproq bo‘lmagan zonada tuproq unumdorligini baholashning turli usullari keltirilgan. Quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi: tuproq ishlov berish indeksi, tuproq unumdorligining har xil jinsligi koeffitsiyenti, tuproq unumdorligi indeksi va ehtimollik unumdorligi indeksi. “Drujniy sovxozi” MChJ tuproqlarida ishlov berish darajasi past ekanligi aniqlandi. Fermer xo‘jaligidagi tuproq unumdorligining o‘zgaruvchanligi chirindi tarkibida va almashinadigan kaliy darajasida eng aniq namoyon bo'ladi. Tuproq unumdorligi indeksining pastligi qishloq xo‘jaligida organik va mineral o‘g‘itlarni qo'llash shuningdek ohaklash kabi takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tuproq unumdorligi ehtimollik ko‘rsatkichi "Drujniy" sovxozi MChJ tuproqlari kup ishlov berilishi va unumdorligi pastligidan dalolat beradi. Tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi zarur.

Kalit so‘zlar: unumdorlik, tuproq sifati, baholash, xilma-xillik, kultivatsiya indeksi, tuproq unumdorlik koeffitsiyenti, ehtimollik unumdorlik ko'rsatkichi, qishloq xo'jaligi amaliyoti, xossalari, mezonlar, ko'rsatkichlar.

Annotation. This article presents various methods for assessing soil fertility in the non-chernozem zone. The following parameters were used: a soil cultivation index, a soil fertility heterogeneity coefficient, a soil fertility index, and a probabilistic soil fertility index. It was established that the soils of «Druzhny Sovkhoz» LLC have a low level of cultivation. Soil fertility heterogeneity within the farm is manifested primarily in humus content and exchangeable potassium availability. The low soil fertility index indicates the need for improved agricultural practices, such as the application of organic and mineral fertilizers and liming. The probabilistic soil fertility index indicates that the soils of «Druzhny Sovkhoz» LLC are depleted and characterized by low fertility. It is necessary to develop a program of measures to differentially improve soil fertility.

Key words: fertility, soil quality, assessment, heterogeneity, cultivation index, soil fertility coefficient, probabilistic fertility indicator, agricultural practices, properties, criteria, indicators.

Введение.

Требования к оценке почв и земель в последние годы возрастают и начинают опережать современное состояние научно-методической и методологической базы, и соответственно, требует активного развития [1, 4, 6, 8, 14]. Кроме того, информационные ресурсы по методам оценки почв и земель очень разрознены. Методы оценки почв и земель, применяемые более 50 лет назад, основывались на параметрах почвы, отвечающих за урожай и биологическую продуктивность. В современных условиях расширились целевые задачи использования земельных участков, в связи с этим, методы качественной и экономической (стоимостной) оценки почв и земель становятся более дифференцированными.

Оценка плодородия пахотных почв является заключительным этапом почвенно-агрохимического обследования. В настоящее время на картограммах представляют агрохимический индекс, с помощью которого невозможно однозначно оценить все многообразие различных сочетаний агрохимических показателей в зависимости от интенсивности использования земли, проявления процессов эрозии [9, 12-16]. Таким образом, в современных условиях необходима обобщенная, комплексная оценка всех показателей свойств почвы, позволяющая отличать по плодородию пахотные земли [1, 12-16].

Общее состояние плодородия почвы оценивается по ряду групповых показателей, среди которых основными являются динамичные (подвижные элементы питания, кислотность), конституционные прямые (минералогический, гранулометрический, органический и химический составы), конституционные косвенные (емкость катионного обмена, сорбционная емкость, буферность) [1, 14].

В агрономической литературе этому вопросу уделено много внимания. В настоящее время существует множество методов оценки плодородия почв.

Считается, что наиболее объективным критерием почвенного плодородия является комплексный показатель – индекс окультуренности ($И_{ок}$) почв, где каждое свойство выражено в относительных величинах и отражает степень соответствия почвы требованиям культурных растений. Индекс окультуренности является комплексным показателем, характеризующим основные агрохимические свойства почв, и рассчитывается как средний из индексов по величине pH, содержанию гумуса, подвижных соединений P2O5, и K2O [5].

Известно, что различная степень неоднородности распределения комплекса показателей свойств почв, определяется как исходным сочетанием природных условий (геоморфология, почвообразующие породы, климат), так и предшествующей в севообороте культурой. Для учета этих различий ученые предлагают применять коэффициент неоднородности плодородия почв. Для определения неоднородности плодородия почв рассчитывают соответствующий коэффициент. Коэффициент неоднородности плодородия отражает особенности распределения факторов плодородия оцениваемой территории [1].

Широко также используется показатель почвенного плодородия. В Российской Федерации расчет показателя почвенного плодородия проводится по утвержденной методике «Правила предоставления и распределения субсидий из федерального бюджета бюджетам субъектов РФ на оказание несвязанной поддержки с.-х. товаропроизводителям в области растениеводства» [10].

Учеными [15] установлено, что приемлемое почвенное плодородие

достигается при обменной кислотности не ниже 5,2–5,4 ед., при содержании подвижных форм калия и фосфора не ниже 125–143 и 170–194 мг/кг соответственно.

Цель исследования – провести оценку плодородия почв хозяйства, используя различные показатели и методики.

Объекты и методы исследования.

Исследования проводили в ООО «Совхоз Дружный», который расположен на юге Пермского края в центральной части Чернушинского муниципального округа (56°29'19.34 с.ш. и 56°13'07.28 в.д.). Высота над уровнем моря 195 м. Согласно природно-сельскохозяйственному районированию [11], территория хозяйства, входит в южно-таежную природно-сельскохозяйственную зону Среднерусской провинции в южный южно-лесной район.

По почвенно-экологическому районированию территория хозяйства входит в зону дерново-подзолистых почв южной тайги Вятско-Камской провинции дерново-подзолистых высокогумусных почв и дерново-подзолистых почв со вторым гумусовым горизонтом, Пермский округ дерново-подзолистых глинистых и тяжелосуглинистых почв на элювио-делювии коренных пород [3]. На территории хозяйства почвообразующие породы представлены покровными глинами и суглинками, элювием пермских глин, делювиальными отложениями. По геоморфологическому районированию территория относится к геоморфологической области (А-III) – денудационная равнина Среднего Предуралья. Территория хозяйства находится на отрогах Тулвинской возвышенности представляет собой ряд округлых волнообразных возвышений, разделенных сетью логов, долин ручьев и речек. Отметки рельефа 70-120 м, углы наклона от 2-4° до 6-7°, вертикальное расчленение 100-150 м, чаще 120 м. Климат континентальный. Годовое количество осадков составляет 561 мм. Большая часть осадков выпадает в теплое время года (с мая по октябрь) – 364 мм. Гидротермический коэффициент составляет в среднем 1,2. Это говорит о том, что осадков выпадает больше, чем испаряется. Территория хозяйства входит в район южно-таежных пихтово-еловых лесов с мелколиственными породами.

Преобладающими почвами в хозяйстве являются дерново-мелкоподзолистые среднепахотные, занимающие 73,3 % площади пашни. Значительную площадь занимают и дерново-слабоподзолистые среднепахотные (19,8 %). Небольшая площадь приходится на долю дерново-карбонатных, дерново-поверхностно-глееватых почв – 6,9 %.

Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan, lalmi va yaylov tuproqlarida tuproq monitoring tadqiqotlarida aniqlangan salbiy holatlar

Yuqoridagi dala va kimyoviy tahlil natijalari ma’lumotlarini qayta ishlash jarayonida, o‘rganilgan statsionar va yarim statsionar ekologik maydon (SEM va YaSEM) tuproqlari avvalgi tadqiqot natijalariga solishtirilganda, juda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmagan. Shunga qara-

masdan, sug‘oriladigan yer maydonlarida antropogen va tabiiy omillar ta’sirida borgan o‘zgarishlardagi, salbiy jarayonlar atroflichi tadqiq etildi. Ayrim hudud tuproq qoplamlarida tahlikali jarayonlar vujudga kelganligi aniqlandi.

1. Viloyat sug‘oriladigan yer maydonlarida gumus va oziqa unsurlarini keskin kamayib borish tendensiyasi aniqlandi. Xususan, Sherobod cho‘llarida joylashgan (taqir-o‘tloqi tuproqlar) Sherobod tumanidagi sug‘oriladigan yer maydonlarini 26689,7 gektari 1% gacha, 9978,2 gektari 1-2% gacha gumus bilan ta’minlanganligi aniqlandi. Tumandagi Talloshkon massivini 4287 ga E.Berdiyev nomli massivda 4862 ga va O‘zbekiston massivida 3961ga. yer maydonlari 1,0% gacha gumus bilan kam ta’minlangan tuproqlar toifasiga kirishi aniqlandi.

2. Sariosiyo tumanidagi sug‘oriladigan yer maydonlarida 1,0% gacha bo‘lgan gumus bilan kam ta’minlangan yerlar 9198,7ga, 2,0% gacha gumus miqdoriga ega yerlar 2934,2 gektarni tashkil etishi tadqiqotlarda aniqlandi. Gumus bilan kam ta’minlangan yerlar tumandagi Y.Oxunboboev nomli (1556,7ga), Z.M. Bobur nomli (1245,3ga) va Dashnobod massiv (1016,9ga)larida aniqlandi.

3. Sherobod tumanidagi taqir-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarda joylashgan sug‘oriladigan yer maydonlarini 33815,0 gektari harakatchan fosfor bilan juda kam ta’minlanganligi aniqlandi. Jumladan E.Berdiyev massivida 4678,4 ga, O‘zbekiston massivida 4504,9 ga, V.Qodirov nomli massivda 4045,7 ga, Talloshkon massivida 4160,4 ga, va N. Murodov nomli massivda 4795,8 gektar sug‘oriladigan tuproqlari kiradi.

4. Sariosiyo tumanida harakatchan fosfor bilan juda kam ta’minlangan 9121,7 ga, kam ta’minlangan 169,5 ga. sug‘oriladigan (tipik bo‘z va bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda) yer maydonlari aniqlandi. Shundan, Dashnobod massivida 1696,3 ga, Z.M.Bobur nomli massivda 1182,9 ga va G.Xidirov nomli massivda 1136,5 gektar yer maydonlari kiradi.

5. Sug‘oriladigan yer maydonlari tuproqlarida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun kerakli bo‘lgan harakatchan kaliy moddalarini ahamiyati juda katta. Keyingi yillarda sug‘oriladigan tuproqda harakatchan kaliyni yetishmasligi kuzatilmoqda. Masalan: Sherobod tumanida 14428,9 ga juda kam, 19829,3 ga kam ta’minlangan sug‘oriladigan tuproqlar bo‘lib hisoblanadi. Sariosiyo tumani sug‘oriladigan yer maydonlar tuproqlarida, jami sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari 12133 gektar, shuning 9449 gektari almashinuvchi kaliy bilan kam ta’minlanganligi aniqlandi.

6. Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan tuproqlarining unumdorligini oshirish va ekologik muhitini sog‘lomlashtirish u yerlarning sho‘rlanish darajasini pasaytirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bu esa, o‘z navbatida yuqorida izohlangan tuproqlarni tizimli asosida sug‘orish, sho‘r yuvish davr va muddatlarini rejalashtirish imkonini beradi. Viloyatda sug‘orish va sho‘r yuvish me’yorida ilmiy asosda amalga oshirilishi zarur.

7. Lalmi tuproqlar haydalma qatlamida gumus va oziqa moddalari umumiy miqdori o‘rtacha 0,4-1,42%, yalpi azot 0,10-0,11% tashkil etadi. Tuproqdagi harakatchan fosfor miqdoriga ko‘ra, o‘rganilgan tuproqlar asosan juda kam va kam ta’minlangan, harakatchan kaliy miqdoriga ko‘ra, kam va o‘rtacha ta’minlangan tuproqlar guruhiga kirishi kimyoviy tahlil ma’lumotlari asosida (Sariosiyo, Boysun, Uzun va Sherobod tumanlarida) aniqlandi.

8. Lalmi tuproqlarda turli darajada eroziyasiga uchragan haydalma yerlar maydoni viloyat bo‘yicha 84,5% tashkil etadi, shundan kuchli yuvilgan tuproqlar 48,69% ni (Boysun tumani), o‘rtacha yuvilgan tuproqlar 36,75% ni va kam yuvilgan tuproqlar 14,56% ga (Boysun, Uzun, Sariosiyo va Denov tumanlari) teng. Lalmi jigarrang tuproqlarda atmosfera yog‘inlari

ko‘proq bo‘lganligidan ular, eroziya jarayonlariga uchragan, ya’ni o‘simliklar qoplami kam joylarda, bu tuproqlar o‘rtacha va kuchli darajada yemirilishga uchragan.

9. Viloyatda tarqalgan tuproqlarning asosiy qismi (sug‘oriladigan zonada) o‘rta mexanik tarkibli bo‘lib, tog‘ jigarang tuproqlar og‘ir mexanik tarkiblidir, ayrim tuproq kesmalari butun kesma chuqurligi bo‘yicha o‘rta va og‘ir mexanik tarkibdan iborat. O‘ta qoniqarsiz suv o‘tkazuvchanlik –50 mm dan kam. Bunga, haddan tashqari zichlashgan (zichligi 1,6 g/sm^3 va undan yuqori) kuchli sho‘rlangan, sho‘rtoblashgan og‘ir qumoqli va loyli mexanik tarkibli tuproqlar Sherobod, Muzrabod, Termiz, Jarqo‘rg‘on va Angor tumanlaridagi tuproqlar kiradi.

Tuproq monitoringi tadqiqotlarida aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etish, tuproq qoplamini unumdorligini oshirish, saqlash va muhofaza etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

- Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari tuproq unumdorligini oshirish, saqlash va yaxshilash maqsadida hamda olib chiqib ketilgan oziqa unsurlari o‘rnini to‘ldirish uchun gektariga 19-21t. organik o‘g‘itlardan solishni taklif etamiz: tadbir-larni Sherobod, Angor, Muzrabod va Termiz tumanlariga qo‘llash mumkin.

- Sug‘oriladigan tuproqlarda gumus miqdori kamayishining oldini olish, uning zahiralarini to‘ldirish, katta miqdorda biomassalar tarkibida olib chiqib ketilayotgan ozuqa moddalarining o‘rnini qoplash, tuproqni organik moddalar bilan boyitish, o‘simliklarni oziqlantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida almashlab ekishni 1:2 va 1:3 (1yil: g‘alla 2 yil g‘o‘za; va 1 yil g‘alla: 3 yil g‘o‘za) tizimini joriy etish zarur. Ushbu tadbirlarni Qumqo‘rg‘on, Denov, Jarqo‘rg‘on va Sariosiyo tumanlarida qo‘llash yuqori samara beradi.

- Sug‘oriladigan yerlarda tuproq organik moddasi(chirindi)ning kamayishi uning agrokimyoviy xossalarining ko‘p ijobiy tomonlarining yo‘qolishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun mahalliy o‘g‘itlarni kompostlar va biogumuslar shaklida solish zarur. Bu tadbirlarni Uzun, Sariosiyo, Denov, Qumqo‘rg‘on va Sho‘rchi tumanlarida joriy etish tuproqda mikrobiologik faollikni rivojlantiradi va tuproqda ko‘proq chirindini vujudga, tuproq unumdorligini oshishiga olib keladi.

- Sherobod (tumanidagi Tallashkon, Murodov nomli massivlar) cho‘llarida sug‘olariladigan taqir-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarni ikkilamchi sho‘rlanishini olish maqsadida, meliorativ tadbirlarni o‘tkazish ya’ni, kollektor va drenajlarni o‘z vaqtida tozalash, sho‘rini yuvish, shamol eroziyasiga uchragan (qumli, qumloqli va yengil mexanik tarkibli) maydonlarga, ihota daraxtzor (tutzor, tol va terakzor) larni barpo etish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi tuproq tahlil ma’lumotlaridan kelib chiqib, taqir-o‘tloqi tuproqlarini gumus va oziqa moddalar bilan boytish maqsadida mahalliy o‘g‘itlarni kompostlar shaklida bir qismini kuzgi shudgordan oldin solish kerak hamda kuzgi shudgorlarni sifatli o‘tkazish zarur.

Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan tuproqlarining sug‘orish va agrotexnik tadbirlar ta’sirida haydov osti va undan pastki qatlamlarining o‘ta zichlashishi kuzatilib, bu qatlamlarni bartaraf qilish uchun chuqur yumshatish va ko‘p yillik dukkakli ekinlar o‘stirish maqsadga muvofiqdir.

Sug‘oriladigan yer maydonlarida eroziya jarayonlari Sherobod, Angor, Jarqo‘rg‘on,Qumqo‘rg‘onvaSho‘rchitumani yerlarida uchraydi va tuproq yemirilishi oldini olish maqsadida, kuzgi shudgordan oldin organo-mineral o‘g‘itlardan gektariga 15-20t dalalarga kiritish, qiyalik yerlarda tuproq yuvilishini oldini olish maqsadida ko‘ndalang shudgorlash va sug‘orish (egatlararo sug‘orish), dala chetlariga ihota daxtlarini o‘tkazish hamda almashlab ekish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida». – Toshkent, 2022.
3. Qo‘ziyev R., Abduraxmonov N., Ismonov A. va boshqalar. Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent, 2013.
4. O‘zPITI ning «Paxta maydonlarida tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikro-biologik xossalarini o‘rganish uslublari», – Toshkent, 1963.
5. Azimboyev S.A. O‘zbekistonning janubiy qismi tuproqlari va ularni meliorativ holati. – Toshkent, Fan, 1991.
6. Авлиёкулов А. Гидромодулное районирование и режим орошения культур хлопкового севооборота при интенсивном ведении их в Сурхан-Шерабадской долине. – Ташкент, Меҳнат, 1992.
7. Ismonov A. Surxondaryo viloyati agrotuproq xaritasi. – Toshkent, 2010.
8. Qo‘ziyev R., Sektimenko V., Ismonov A. O‘zbekiston tuproqlari kartasi. – Toshkent, 2008.

Z.Jabbarov, Sh.Abdullayev, G.Rakhmatullayeva, N.Abdurakhmonov, A.Ismonov, N.Kalandarov, I.Yuldashev, M.Pulatov, O‘.Mamajanova, Sh.Djabborov. Degradation of soils around the Kattakurgan Reservoir and its impact on soil properties. Journal of degraded and mining lands management. Volume 12, Number 5 (October 2025):8957-8967, doi:10.15243/jdmlm.2025.125.8957 ISSN: 2339-076X (p); 2502-2458 (e), www.jdmlm.ub.ac.id, https://jdmlm.ub.ac.id/index.php/jdmlm.

9. Qo‘ziyev R., Sektimenko V., Ismonov A. O‘zbekiston tuproqlari qoplamlari Atlasi. – Toshkent, 2010. 48 b
10. Тетюхин Г.Ф. Исламов А.И. Четвертичное отложение равнин и предгорий юго-западного Узбекистана // Гидрогеология и инженерная геология аридной зоны СССР. Вып. – Ташкент: ФАН, 1966. – С. – 7-23.
11. Кимберг Н.В. Почвы пустынной зоны Узбекской ССР. – Ташкент: «ФАН», 1974. – 287 с.
12. Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligi yerlarida monitoring kuzatuv ma’lumotlari. – Toshkent. 2024.

UDK: 631.417.2:633.51

IQLIM O‘ZGARISHI VA TUPROQ DEGRADATSIYASI SHAROITIDA KREMNIY ASOSLI PREPARATLARNING GUMUS BARQARORLIGI VA G‘O‘ZADA ANTIOKSIDANT HIMOYANI KUCHAYTIRISHDAGI ROLI

Gafurova Lazizaxon Akramovna*,
Mamasoliyeva Malika Adxamovna*,
Mazirov Mixail Arnoldovich**

**Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti,*
***Timiryazev nomidagi RDAU-MQXA*
e-mail: lifebiology08@gmail.com

Annotatsiya. Global iqlim o‘zgarishi va davom etayotgan tuproq degradatsiyasi qurg‘oqchil agroekotizimlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, tuproqlarda biokimyoviy jarayonlar va uglerod barqarorligini izdan chiqarmoqda. Ushbu tadqiqot sug‘oriladigan allyuvial-o‘tloqi tuproqlarda kremniy asosidagi preparatlarning tuproqdagi gumus miqdori va “Buxoro-8” g‘o‘za navining 12 kunlik nihollarida antioksidant fermentlar faolligiga ta’sirini baholadi. Tadqiqot natijalari fermentativ faollikning oshishida ayniqsa, Aminosid-Silicon preparatining eng yuqori ta’sirga egaligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar kremniyli preparatlar tuproq gumusining barqarorligini ta’minlashi hamda g‘o‘zada ferment tizimlarini faollashtirishi orqali qurg‘oqchil hududlarda degradatsiya jarayonlarini yumshatishda istiqbolli adaptatsion yondashuv ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, sho‘rlangan tuproqlar, g‘o‘za, peroksidaza, polifenol oksidaza, superoksidismutaza, gumus, o‘simlik biokimyosi, kremniyli preparatlar, adaptatsion yondashuvlar.

Аннотация. Глобальные изменения климата и продолжающаяся деградация почв оказывают существенное влияние на засушливые агроэкосистемы, нарушая биохимические процессы и устойчивость углерода в почве. В данной работе изучено воздействие кремнийсодержащих препаратов на содержание гумуса в орошаемых аллювиально-луговых почвах, а также на активность антиоксидантных ферментов у 12-дневных сеянцев хлопчатника сорта «Бухара-8». Результаты показали, что наибольшее стимулирующее влияние на ферментативную активность оказывает препарат Аминосид-Silicon. Полученные данные свидетельствуют о том, что применение кремнийсодержащих препаратов способствует стабилизации гумуса в почве и усилению ферментативной активности хлопчатника, являясь перспективным адаптационным подходом для смягчения деградации почв в засушливых регионах.

Ключевые слова: изменение климата, засоленные почвы, хлопчатник, пероксидаза, полифенолоксидаза, супероксиддисмутаза, гумус, биохимия почв, кремнийсодержащие препараты, адаптационные подходы.

Annotation. Global climate change and ongoing soil degradation exert significant pressure on arid agroecosystems, disrupting soil biochemical processes and carbon stability. This study evaluated the effects of silicon-based amendments on soil humus content and antioxidant enzyme activity in 12-day-old seedlings of the cotton variety “Bukhara-8” grown in irrigated alluvial-meadow soils. The results demonstrated that the Aminosid-Silicon produced the most pronounced enhancement in enzymatic activity. The findings indicate that silicon amendments contribute to humus stabilization in soils and stimulate enzymatic activity in cotton plants, representing a promising adaptive strategy to mitigate soil degradation processes in arid environments.

Key words: climate change, saline soils, cotton, peroxidase, polyphenol oxidase, superoxide dismutase, humus, soil biochemistry, silicon amendments, adaptive strategies

Kirish. Tuproq - yer qobig‘ining eng yuqori qatlamida hosil bo‘lgan biologik faol g‘ovak muhit bo‘lib, u o‘simliklar uchun suv va ozuqa moddalarining asosiy manbai, zararli chiqindilarni filtrlash vositasi hamda global ekotizimda uglerod va boshqa elementlarning aylanishida muhim ishtirokchidir [1]. Tuproq o‘simliklarni suv, ozuqa moddalari va mexanik himoya bilan ta’minlovchi dinamik tabiat birliklaridan biri sifatida ham tanilgan [2]. Tuproq tizimining tarkibiy qismlari o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan 14 ta mineral oziq moddaning tabiiy manbai bo‘lib, organik moddalarni saqlash va ozuqa moddalarining ekinlar tomonidan assimilyatsiyasini ta’minlash vazifasini bajaradi [3]. Shu bilan birga, tuproqdan oqilona foydalanish ekologik toza o‘gitlar yordamida biologik va boshqa xossalarni saqlab, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan sifatli va mo‘l hosil olishga xizmat qiladi [3].

Zamonaviy qishloq xo‘jaligida “smart” yoki aqlli o‘gitlar ozuqa moddalarining chiqarilish tezligini, vaqtini va davomiyligini nazorat qiluvchi vositalar sifatida keng qo‘llanilmoqda [17]. Raimondi va boshqalar bunday o‘gitlarni ozuqa moddalarining chiqarilish vaqtini fizik, kimyoviy va biologik yo‘llar bilan o‘simlik ehtiyojlariga moslashtira oladigan nanomateriallar va bioformulyatsiyalar sifatida ta’riflaydilar [13]. Aqlli o‘gitlar nafaqat ekinlarning o‘sishi va rivojlanishini yaxshilaydi, balki an’anaviy o‘gitlarga nisbatan atrof-muhitga ta’sirini kamaytiradi. Ular nano, kompozit va biologik turlarga bo‘linadi [13].

Kremniyli (Si) o‘gitlar esa o‘simliklarning biotik va abiotik stresslarga chidamliligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi [14]. Si ning o‘simliklar tomonidan qabul qilinishi o‘simlik turi, ildiz tizimi va tuproq kimyosiga bog‘liq bo‘lib, u o‘sish sur’ati, mahsuldorlik va ozuqa moddalarini o‘zlashtirishni yaxshilaydi [10,4]. Sho‘rlangan tuproqlarda ham Si o‘gitlarining qo‘llanilishi o‘simliklarning stressga chidamliligini oshiradi va ularni patogen zamburug‘lardan himoya qiladi [12,7]. Shu bilan birga, tuproqning biologik, fizik-kimyoviy va suv tarkibini yaxshilaydi hamda o‘simliklar uchun ozuqa moddalarining mavjudligini oshiradi [1,5].

Tuproqdagi fermentativ faollik mikroorganizmlarning metabolizmi, ozuqa moddalarining minerallashuvi va aylanishida muhim ahamiyatga ega [3,11]. Masalan, katalaza fermenti tuproqdagi kislorod miqdori va organik moddalar bilan bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Fosfatazalar erimaydigan fosfat komplekslarini parchalaydi va ularni o‘simliklar uchun mavjud qiladi, peroksidazalar esa lignin depolimerizatsiyasida rol o‘ynaydi [11]. O‘zbekiston sharoitida sur tuproqlari katalaza fermenti faolligi gumus moddalarning miqdoriga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlangan [18].

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida adaptatsion texnologiyalar – tuproq va ekinlar o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va stress sharoitlariga moslashuvchan ekinlarni yaratish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar tizimi sifatida rivojlanmoqda. Bu texnologiyalar orasida aqlli o‘gitlar [17], kremniyli qo‘shimchalar [14,12], fermentativ faollikni monitoring qilish tizimlari [3,11,18] va tuproq sifatini baholashning ilg‘or metodlari alohida ahamiyatga ega. Ular qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va tuproq unumdorligini uzoq muddat saqlash imkonini beradi. Shu bois, adaptatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda samarali, ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror qishloq xo‘jaligini yaratishning kalit omilidir.

Material va usullar

Tadqiqot Buxoro viloyati Buxoro tumani Kunji Qala massivida joylashgan “Avez, Mirshod, Rustam” fermer xo‘jaliklari dala maydonlarida olib borildi. Hudud tuproqlarining karbonatli va qurg‘oqchil sharoitda ekanligi sababli g‘o‘zaning (Buxoro-8 navi) o‘sishi, biokimyoviy faolligi hamda tuproqning biologik xususiyatlariga bio-preparatlarning ta’siri o‘rganildi. Tajriba 4 variantda tashkil etildi: nazorat,

Aminosid-Aton, Aminosid-Silicon va Bioazot preparatlari. Tuksiz chigitlar 1,5 ga maydonga 52 kg miqdorda ekildi (26 kg nazorat, 26 kg ishlov berilgan urug‘). Egat oralig‘i 60 sm, chigit oralig‘i 4-5 sm, chuqurligi 4-6 sm bo‘ldi. Har bir preparat uchun 25 sotix, nazorat uchun 50 sotix maydon ajratildi. Preparatlar 100 g miqdorda 5 L suvda eritilib 15 kg chigitga qo‘llandi, Bioazot 1:1 nisbatda suyultirildi. Bargdan purkash ishlovi 14-15 iyun kunlari amalga oshirildi.

Preparatlarning o‘simlikdagi superoksiddizmutaza, peroksidaza, polifenoloksidaza va katalaza fermentlari faolligiga hamda tuproqning gumus miqdoriga ta’siri baholandi.

Superoksiddizmutaza faolligi - NBT (nitroblue tetrazolium) qaytarilishini inhibe qilish usuli asosida aniqlandi. O‘simlik ekstrakti riboflavin, metionin, EDTA va NBT tutgan reaksiya aralashmasi bilan 10-15 daqiqa yorug‘likda inkubatsiya qilinib, absorbsiya 560 nm da o‘lchandi. Bir birlik SOD faolligi NBT qaytarilishini 50 % kamaytiruvchi ferment miqdori sifatida belgilandi.

Peroksidaza faolligi - tuproq suspenziyasida pirogallolning H_2O_2 ta’sirida oksidlanish tezligi asosida 460 nm da spektrofotometrik ravishda o‘lchandi.

Polifenoloksidaza faolligi - 0,02 M pirogallol bilan reaksiya natijasida hosil bo‘lgan rang intensivligi bo‘yicha 410 nm da aniqlangan.

Katalaza faolligi - H_2O_2 qoldig‘ining $KMnO_4$ bilan titrlanishi orqali baholandi. Tuproqning gumus miqdori Tyurin usulining modifikatsiyasi asosida, dikromatlar aralashmasida oksidlanish va ortiqcha $Cr_2O_7^{2-}$ miqdorining temir(II) sulfat bilan titrlanishi orqali aniqlandi. Natija gumus miqdori (%) tarzida qayd etildi.

Natijalar va muhokama


Tajriba davomida g‘o‘za nihollarida to‘rt xil fermentlari superoksiddizmutaza, peroksidaza, polifenoloksidaza va katalaza faolligi aniqlanib, turli biopreparatlar ta’siri baholandi (1-rasm). Nazorat variantiga nisbatan barcha preparatlar fermentlar faolligini oshirdi. superoksiddizmutaza faolligi nazoratda 2.12 mg/ml bo‘lgan bo‘lsa, Aminosid-Atonda 2.23 mg/ml, Aminosid-Siliconda 2.34 mg/ml va Bioazotda 2.21 mg/ml ga yetdi. Peroksidaza faolligi nazoratdagi 3.37 mg/ml dan Aminosid-Aton 5.17 mg/ml, Aminosid-Silicon 6.233 mg/ml va Bioazot 5.11 mg/ml variantlarida sezilarli oshdi. Polifenoloksidaza ko‘rsatkichi ham huddi shunday o‘sish tendensiyasini ko‘rsatib, nazoratdagi 4.427 mg/ml ga nisbatan Aminosid-Aton 6.74 mg/ml, Aminosid-Silicon 6.957 mg/ml hamda Bioazot 5.667 mg/ml variantlarida yuqori qayd etildi. Katalaza faolligi esa eng yuqori darajaga Aminosid-Silicon qo‘llanilgan variantda 15.077 mg/ml erishdi, nazoratda esa bu ko‘rsatkich 11.817 mg/ml bo‘ldi. Fermentlar faolligi bo‘yicha eng barqaror SE qiymatlari 0.012-0.058 oralig‘ida bo‘lib, o‘lchovlarning ishonchliligi yuqoriligi tasdiqlandi. Bu natijalar preparatlar ayniqsa kremniy asosli moddalarning antioksidant tizimini kuchaytirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qo‘llanilgan biopreparatlar, ayniqsa kremniy asosli Aminosid-Silicon, g‘o‘za nihollarida antioksidant fermentlar faolligini kuchaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Bu kremniyning o‘simliklarda stressga chidamlilikni kuchaytiruvchi omil sifatida tanilganligi bilan izohlanadi. Antioksidant fermentlarining oshishi o‘simlikda reaktiv kislorod shakllarini neytrallash jarayonlarining faollashganini bildiradi. Ayniqsa peroksidaza, superoksidismutaza va katalaza faolligining keskin oshishi, sho‘rlanish va qurg‘oqchilik kabi abiotik stress sharoitida o‘simlikni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi [3,4].

Aminosid-Siliconning eng yuqori fermentativ faollikni ta’minlashi uning kremniy ionlari orqali hujayra devorini mustahkamlashi, oksidlovchi stressni kamaytirishi va fermentlar genlarining ekspressiyasini rag‘batlantirishi bilan bog‘liq [3]. Bioazot preparati ham fermentlar faolligini oshirdi, bu esa azot

fiksatsiyalovchi mikroorganizmlarning rizosfera faolligini ko‘rsatadi [7].

Umuman, barcha preparatlar nazoratga nisbatan ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, eng yuqori antioksidant faollik Aminosid-Silicon variantida qayd etildi. Bu esa kremniy asosli preparatlardan sho‘rlanish va qurg‘oqchilik sharoitlarida o‘simlikning fiziologik-barqarorligini oshirishda samarali vosita sifatida foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar oldingi ilmiy manbalar bilan hamohang bo‘lib, kremniy qo‘llanilishi o‘simliklarning abiotik stressga javob reaksiyalarini kuchaytirishi ilgari ham qayd etilgan [9].




1-rasm. Buxoro-8 g‘o‘za navi nihollarining antioksidant fermentlar faolligiga preparatlar ta’siri

Ushbu samaradorlik preparat tarkibidagi faol kremniyning mikroorganizmlar hujayra devorini mustahkamlash, stressga chidamliligini oshirish va fermentlar sintezini rag‘batlantirishdagi ijobiy ta’siri bilan bog‘lash mumkin. Tadqiqot davomida preparatlarning tuproqdagi gumus miqdoriga ta’siri o‘rganildi.

O‘rganilgan tajriba hududida qo‘llanilgan preparatlarning biologik faollikni rag’batlantirishdagi bevosita ta’siri natijasida tuproq gumusiga ta’siri tuproqning 0-30, 30-70 va 70-100 sm qatlamda tahlil qilindi (2-rasm). Tabbiy ravishda, tuproqning yuqori qatlamlarida gumus miqdori pastki qatlamlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Jumladan, 0-30 sm qatlamda gumus miqdori nazorat variantida 1,004% ni tashkil etdi. Preparatlar qo‘llanilgan tuproq namunalarida gumus miqdorini ortishi kuzatildi. Xususan, Aminosid-Aton va Bioazot preparatlari bilan ishlov berilgan tuproq namunalarida gumus miqdori 1,012-1,018% oraliqdagi qiymatlarni ko‘rsatdi. Mazkur preparatlarning qo‘llanilishi tuproqning gumus holatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi. Aminosid-Silicon preparati qo‘llangan tuproqdagi gumus miqdori nazoratga nisbatan 0,019% ga oshdi va 1,023% ni tashkil etdi.

Bunday ijobiy o‘zgarish uch yil mobaynida tajriba hududiga qo‘llanilgan mazkur preparatlar bilan birga tajriba hududidagi tuproqlarga me’yordagi mineral va organik o‘g‘itlar ham qo‘llanilgani bu jarayonni yanada kuchaytirgan bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin.

Yana ham ta’kidlash mumkin, tuproqning mikrobiologik faolligining ortishi Aminosid-Silicon preparati (tarkibida 17% kremniy) muhim komponent sifatida xizmat qilganligi bilan ham izohlanishi mumkin. Natijada, preparatning qo‘llanilishi gumus miqdoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatilgan.



*Barcha holatlarda *-p<0.05; **-p<0.01; n=5*

2-rasm. Tuproqining gumus miqdorini o‘zgarishiga preparatlar ta’siri

Ushbu tadqiqot doirasida olingan natijalar shu yo‘nalishga oid boshqa ilmiy ishlar bilan muvofiqlikda ekanligi aniqlandi. Masalan, D. Jones tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kremniyning rizosfera mikroorganizmlarida hujayra devorlarini mustahkamlashi, osmotik stressga chidamliligini oshirishi va populyatsiyani kengaytirish orqali mikrobiotsenoz tarkibini faol holatga o‘tkazishi haqida ma’lumotlar keltirilgan [1]. Z. Pang tomonidan o‘rganilgan tadqiqotlarda ham faol kremniy ta’sirida superoksidismutaza, peoksidaza, katalaza, kabi fermentlar faolligining 20-45% gacha ortishi kuzatilgan. Ushbu fermentlar o‘simlik ildizlaridan ajraladigan eksudatlar va organik moddalarni parchalashda ishtirok etib, mikroorganizmlar uchun qulay oziq manbalarini shakllantiradi. Bu esa, yakunda gumus fraksiyalarining shakllanishiga zamin yaratadi [6]. Gumus miqdorga kremniyni ijobiy ta’siri haqida Silva (2021) Braziliya agroekotizimida 3 yil davomida o‘tkazilgan tajribada gumus miqdori 0,18% ga oshganligini aniqlagan. Shuningdek, T Kraus va boshqalar (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotda kremniy va biostimulyatorlar ta’sirida gumifikatsiya intensivligi 1,6 baravargacha kuchayganligi qayd etilgan [2,14].

Umuman olganda, 0,018% miqdoridagi gumus o‘sishi ilmiy jihatdan asoslanadigan va izchil dalillar bilan tasdiqlanuvchi natija hisoblanadi. Preparat ta’sirida olingan ushbu (1,023%) qiymat biroz oshgan bo‘lsa-da, hudud tuproqlarning gumus bilan yetarli darajada ta’minlanganligini ifodalash uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bu esa, keyingi yillarda takomillashgan agrotexnologiyalar va biologik stimulyatorlar (kremniy preparatlar) asosida ishlov berishni davom ettirish zaruratini belgilaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘llanilgan biopreparatlar, ayniqsa kremniy asosli Aminosid-Silicon, g‘o‘za nihollarida antioksidant tizimning faolligini sezilarli darajada oshirdi. Superoksidismutaza, peoksidaza, polifenoloksidaza katalaza fermentlarining nazoratga nisbatan barqaror va izchil o‘sishi o‘simliklarda reaktiv kislorod shakllarini neytrallash jarayonlari faollashganini, ya’ni abiotik stressga qarshi fiziologik chidamlilik oshganini tasdiqladi. Eng yuqori ko‘rsatkich Aminosid-Silicon variantida qayd etilishi uning tarkibidagi faol kremniyning hujayra devorlarini mustahkamlashi, oksidlovchi stressni kamaytirishi va antioksidant fermentlar ekspressiyasini rag‘batlantirishi bilan bog‘liq.

Biopreparatlar, jumladan Bioazot, rizosfera mikroorganizmlari faolligini kuchaytirgani tufayli tuproq gumusining ko‘payishida ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Gumus miqdorining 0-30 sm qatlamda sezilarli oshishi preparatlar tuproqning

biologik faolligi, organik moddalarning parchalanishi va gumifikatsiya jarayonlarini rag‘batlantirganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Aminosid-Silicon qo‘llangan variantda gumusning eng yuqori o‘sishi qayd etilib, kremniyning mikroorganizmlar metabolizmi va tuproq organik moddalari aylanishiga bevosita ta’siri tasdiqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kremniy asosli preparatlar nafaqat g‘o‘za nihollarining antioksidant tizimini faollashtiradi, balki tuproqning biologik unumdorligi va gumus holatini yaxshilash orqali agroekotizimning barqarorligini ham oshiradi. Shuning uchun Aminosid-Silicon kabi preparatlar Buxoro viloyatining sho‘rlanishga moyil va qurg‘oqchil sharoitlarida g‘o‘za yetishtirishda istiqbolli agrobiologik vosita sifatida tavsiya etililadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmed, S., et al. (2023). Silicon fertilizers and their effects on plant growth, soil properties, and nutrient availability. Journal of Plant Nutrition and Soil Science.

2. Boorboori, R., et al. (2021). Long-term studies on silicon fertilization: Recommendations for crop production. Agricultural Research Review.

3. Cele, P., & Maboeta, M. (2016). Soil enzyme activity as a bioindicator of soil health and management practices. Applied Soil Ecology, 98, 153–161.

4. Devanna, N., et al. (2021). Impact of silicon fertilizers on soil structure and plant stress tolerance. Journal of Soil Science and Plant Nutrition.

5. Huang, J., et al. (2020). Dual role of silicon in plant and soil interactions. Plant and Soil, 453, 15–29.

6. Katz, O., et al. (2021). Factors influencing H4SiO4 concentration in soils: pH, mineralogy, and organic matter content. Geoderma, 394, 115050.

7. Keeping, M., Miles, R., & Rutherford, R. (2017). Silicon-mediated pathogen resistance in plants. Plant Pathology Journal, 66(4), 625–635.

8. Lal, R. (2016). Soil health and sustainable agriculture. International Soil Science Review, 121(3), 1–14.

9. Malik, N., et al. (2021). Silicon fertilizers improve plant growth, mineral balance, and crop yield. Agronomy Journal, 113(5), 3450–3464.

10. Mandlik, R., et al. (2020). Uptake and transport of silicon in plants: Influence of species, root architecture, and soil chemistry. Plant Physiology Reports, 25, 112–127.

11. Ndabankulu, L., et al. (2022). Role of soil enzymes in nutrient cycling and organic matter turnover. Soil Biology and Biochemistry, 168, 108630.

12. Ning, P., et al. (2016). Application of silicon fertilizers to mitigate salt stress in crops. Crop Science, 56(2), 1232–1245.

13. Raimondi, L., et al. (2021). Definition and classification of smart fertilizers: Nanomaterials and bioformulations. Journal of Agricultural and Food Chemistry, 69, 12345–12359.

14. Rangwala, S., et al. (2018). Silicon fertilizers and plant responses to biotic and abiotic stresses. Plant Science, 275, 128–138.

15. Shahane, D., & Shivay, Y. (2021). Soil nutrient management for sustainable agriculture. Journal of Plant Nutrition, 44(12), 1893–1906.

16. Sun, H., et al. (2019). Silicon fertilization and its role in soil-plant interactions. Frontiers in Plant Science, 10, 1500.

17. Tayade, R., et al. (2022). Smart fertilizers for sustainable crop production: Controlled nutrient release. Environmental Chemistry Letters, 20, 845–861.

18. Toxirov, B. B. (2023). Fermentative activity of soils in Uzbekistan: Catalase as an indicator of soil health. Uzbek Journal of Agricultural Science, 15(2), 45–56.

19. Zargar, S., et al. (2019). Silicon fertilizers improve nutrient use efficiency and crop productivity. Agriculture, Ecosystems & Environment, 279, 1–10.

UO‘T: 631.416.9

QO‘RIQ VA SUG‘ORILADIGAN BO‘Z TUPROQLARDA MAKROELEMENTLARNING TABAQALANISHI

Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich,
b.f.d., professor,
e-mail: avazbek1002@mail.ru
Xaydarova Mashxura Musinovna,
mustaqil tadqiqotchi

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vodiysining bo‘z tuproqlar mintaqasida tarqalgan qo‘riq va sug‘oriladigan tuproqlarning genetik qatlamlaridagi makroelementlar miqdorlari aniqlangan hamda ularni migratsiyasi va tabaqalanishi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Qo‘riq va sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar va ularning genetik qatlamlari o‘rtasida makroelementlarni tabaqalanishidagi farqlar ochib berilgan. Shuningdek ushbu elementlarning tuproq qatlamlarida tabaqalanishini ko‘rsatuvchi geokimyoviy spektrlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘riq, sug‘oriladigan, bo‘z tuproq, akkumulyatsiya, migratsiya, tabaqalanish, geokimyoviy spektr.

Аннотация. В работе определено содержание макроэлементов в генетических горизонтах целинных и орошаемых сероземов, распространенных в сероземном регионе Ферганской долины и приведены аналитические данные по их мигратsии и распределении. Выявлены различия в распределении макроэлементов между целинными и орошаемыми сероземами и их генетическими горизонтами. Разработаны геохимические спектры, отражающие распределению этих элементов в почвенных слоях.

Ключевые слова: целинный, орошаемый, серозем, аккумуляция, мигратsiя, распределения, геохимический спектр.

Annotation.This paper determines the macroelement content in the genetic horizons of virgin and irrigated calcisols common in the calcisols region of the Fergana Valley and presents analytical data on their migration and distribution. Differences in the distribution of macroelements between virgin and irrigated calcisols and their genetic horizons were identified. Geochemical spectra reflecting the distribution of these elements in soil layers were developed.

Key words: virgin, irrigated, calcisol, accumulation, migration, distribution, geochemical spectrum.

Kirish. Bugungi kunga kelib, jahonda tuproqshunoslikning dolzarb muammolari bo‘lgan qo‘riq va sug‘oriladigan tuproqlarning agroekologik holati, degumifikatsiyasi, gumuslilik holati, kimyoviy tarkibi, geokimyoviy xossalari kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababdan qo‘riq va sug‘oriladigan tuproqlarni tadqiq qilish, ulardagi kimyoviy, fizik, fizik-kimyoviy jarayonlarni va boshqa xossa-xususiyatlarini atroflicha o‘rganib borish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tuproqlarda kimyoviy elementlarni taqsimlovchi va qayta taqsimlovchi jarayonlar shakllanadi va bu jarayonlar elementlarning migratsiyasida ma’lum rolni o‘ynaydi. Ammo hozirgacha aksariyat elementlarni tuproqdagi roli va miqdori, ularning harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbalarda juda cheklangan, ko‘pincha juda kam sondagi elementlar uchun ba’zi ma’lumotlar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tuproqlardagi kimyoviy elementlarni migratsiya, akkumulyatsiya va differen-siatsiya jarayonlarini o‘rganishda A.I.Perelman [1] tomonidan ishlab chiqilgan

geokimyoviy bar'yerlarning ahamiyati katta bo'lib, qisqa masofada kimyoviy elementlarning migratsiya jadalligini keskin kamayishi va uning natijasida konsentratsiyasining ortishi tushuniladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan bo'z tuproqlarning xossalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular A.P.Vinogradov [2], V.V.Dobrovolskiy [3], G'.Yuldashev [4], A.T.Turdaliyev [5, 6], M.M.Haydarov [7, 8], Sh.Y.Eshpulatov [9], I.I.Musayev [10] kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Xususan, XX-asrda bo'z tuproqlarning xossalarini transformatsiyasida antropogen omil, sug'orishlar sabab ular sug'oriladigan tuproqlardan yangi voha tuproqlari tomon transformatsiyalanmoqda. Bu jarayonda qo'riq bo'z tuproqlardagi o'zgarishlar, ular tarkibidagi gumusni 24,8%, azotni 25,1% ga kamayishiga va stabillashuviga olib kelgan. Erkin aminokislotalarning profili bo'yicha taqsimlanishi tuproq tarkibidagi gumus differensiyasi bilan yaqin bo'lib chuqurlik tomon kamayib borishi kuzatiladi [7].

To'q tusli, tipik va och tusli bo'z tuproqlarning morfogenetik tuzilishidagi o'zgarishlariga, energetik holatiga bog'liq ravishda antropogen omillar ta'sirida agrokimyoviy, agrofizikaviy, biogeokimyoviy xossalari o'zgarishi isbotlangan [8].

Boshqa tadqiqotchilar tomonidan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar tarkibidagi makro-, mikroelementlar, og'ir metallar, metalloidlarning akkumulyatsiyalanishi va migratsiyalanishi natijasida tuproqlarni og'ir metallar va metalloidlar bilan ifloslanishi ilmiy asoslangan [10].

Dala tadqiqotlari V.V.Dokuchayevning genetik-geografik, profil-geokimyoviy, morfogenetik va statsionar usullari bo'yicha olib borildi. Tuproqlar tarkibidagi makroelementlarning yalpi miqdorlari O'zRFA Yadro fizikasi institutida neytron-aktivatsion analiz usulida aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Ma'lumki, tuproqlarda kimyoviy elementlarning migratsiya va akkumulyatsiya xususiyatlari asosan ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Ichki omillarga ionlarning valentligi, atom massasi, tartib raqami, ion radiusi, Kartledj potensiali, energetik konstantasi va boshqalar kiradi.

Tashqi omillarga esa tuproq sho'rlanganligi, oksidlanish-qaytarilish jarayonlari, gumus miqdori, singdirilgan kationlar tarkibi va tuproq bilan bog'liq bo'lgan boshqa xossa-xususiyatlari kiradi.

Shu sababdan ham qo'riq hamda sug'oriladigan tuproqlarda va ularning turli tiplarida kimyoviy elementlarning miqdorlari har-xil yoki bir-biriga yaqin bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni quyidagi jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Qo'riq va sug'oriladigan bo'z tuproqlarda makroelementlar miqdori, %

Kesma t/r	Chuqurlik, sm	Na	K	Ca	Fe	Rb	Sr	Ba
Qo'riq to'q tusli bo'z tuproqlar								
1x kesma	0-7	0,81	2,23	2,20	3,28	0,014	0,012	0,091
	7-17	0,65	1,90	4,07	2,89	0,012	0,028	0,081
	17-43	0,61	1,60	4,70	2,60	0,011	0,056	0,063
	43-73	0,79	2,32	2,97	3,45	0,015	0,018	0,130
	73-101	0,69	2,07	3,94	3,27	0,012	0,031	0,100
Qo'riq tipik bo'z tuproqlar								
3x kesma	0-6	0,79	2,05	3,98	2,57	0,012	0,043	0,086
	6-23	0,78	2,07	3,89	2,57	0,012	0,042	0,098
	23-70	0,76	1,87	3,60	2,14	0,011	0,04	0,09

Kesma t/r	Chuqurlik, sm	Na	K	Ca	Fe	Rb	Sr	Ba
Qo‘riq och tusli bo‘z tuproqlar								
5x kesma	0-5	0,86	1,83	3,39	2,40	0,011	0,043	0,11
	6-27	0,96	2,03	3,27	2,62	0,012	0,058	0,12
	27-43	1,20	1,82	3,25	2,14	0,010	0,053	0,097
	44-89	1,44	2,01	3,54	2,54	0,012	0,073	0,13
	89-114	1,66	1,89	3,24	2,75	0,013	0,082	0,13
Sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z tuproqlar								
2x kesma	0-30	2,68	2,23	0,53	3,46	0,013	0,025	0,10
	30-42	0,88	2,06	0,87	3,52	0,014	0,010	0,10
	42-70	0,90	2,20	2,06	3,35	0,012	0,027	0,086
	70-100	0,74	1,60	4,75	2,54	0,009	0,037	0,077
	100-135	0,64	1,40	4,67	2,27	0,008	0,039	0,10
Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar								
4x kesma	0-26	0,75	1,68	2,86	2,63	0,012	0,049	0,098
	26-40	0,85	2,06	3,44	2,75	0,012	0,045	0,093
	40-67	0,84	2,09	2,84	2,87	0,014	0,041	0,12
	67-100	0,86	2,08	3,09	2,59	0,011	0,033	0,095
Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar								
6x kesma	0-36	1,06	1,86	3,77	2,71	0,013	0,074	0,12
	36-42	0,96	1,80	3,64	2,53	0,012	0,012	0,11
	42-86	0,96	1,85	3,78	2,75	0,013	0,067	0,13
	87-113	0,93	1,87	3,92	2,70	0,012	0,057	0,13
	113-120	0,92	2,20	3,57	2,99	0,014	0,073	0,14

Laboratoriya tahlillari natijalari keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, qo‘riq va sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar hamda ularning genetik qatlamlarida eng yuqori miqdorlar Ca ga to‘g‘ri keladi va u qo‘riq bo‘z tuproqlarda 2,20-4,70 % gacha, sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda 4,75 % gacha ortib boradi. Rb va Sr lar esa eng kam miqdorlarni qayd etadi (0,008-0,074 %). Ca va Sr larni to‘q tusli bo‘z tuproqlarning yuqori qatlamlarida keskin kamayib ketganligi ko‘rinadi, ya’ni ushbu elementlarni tuproqni yuqori qatlamidan pastga tomon yuvilishi kuzatiladi. Qo‘riq tuproqlarda bu jarayon yuzaroqda (0-17 sm), sug‘oriladigan tuproqlarda esa chuqurroqgacha boradi (42-70 sm). Tipik va och tusli bo‘z tuproqlarda esa deyarli bir tekisda tabaqalangan.

Fe elementi ham yuqori miqdorlarda uchraydi va u qo‘riq va sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z tuproqlarda akkumulyatsiyalanadi hamda eng yuqori miqdori 3,52 % gacha yetadi. Tipik va och tusli bo‘z tuproqlarda esa deyarli bir xilda tabaqalanadi (2,14-2,99 %).

Umumiy holatda Ca va Fe to‘q tusli bo‘z tuproqlarda boshqa tiplarga nisbatan yuqori miqdorlarda ekanligi aniqlandi.

K ning tuproq qatlamlaridagi tabaqalanishida juda katta farqlar kuzatilmaydi, yani uning miqdori 1,40-2,32 % atrofida tebranadi. Na esa umuman olganda, och tusli bo‘z tuproqlarda boshqa tiplarga nisbatan yuqoriroq miqdorlarda namoyon bo‘ladi. Ammo sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z tuproqlarning haydov qatlamida uni akkumulyatsiyalanganligini ko‘rishimiz mumkin (2,68 %).

Ba ning ham och tusli bo‘z tuproqlarda boshqa tiplarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarda tabaqalanganligi aniqlandi va uning miqdori 0,063-0,14 %

oralig‘da tebranadi.


Alohida ajralib turgan holatlardan yana biri, Na va Sr miqdorlari to‘q tusli bo‘z tuproq< tipik bo‘z tuproq<och tusli bo‘z tuproq tartibida ortib boradi.

I.I.Musayev tadqiqotlarida sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarda makroelementlar uchun fon miqdorlari islab chiqilgan: $Fe_{3,063}>K_{1,825}>Na_{0,697}>Ba_{0,061}>Sr_{0,037}>Rb_{0,009}$ [10].


Bizning tadqiqotlarimizda esa sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarda $Ca_{3,736}>Fe_{2,736}>K_{1,916}>Na_{0,966}>Ba_{0,126}>Sr_{0,057}>Rb_{0,013}$, qo‘riq och tusli bo‘z tuproqlarda $Ca_{3,338}>Fe_{2,490}>K_{1,916}>Na_{1,224}>Ba_{0,117}>Sr_{0,062}>Rb_{0,012}$ ketma-ketlikda kamayib bordi.

Sug‘oriladigan tuproqlar sharoitida kimyoviy elementlarning xossa-xususiyatlariga bog‘liq holda ularning migratsiya, differensiatsiya, akkumulyatsiya darajalari hamda biologik singdirish koeffitsiyentlari intensivligini antropogen omil hisobiga boshqarish mumkin [11].


Makroelementlarning tuproq tiplari va uning qatlamlari orasidagi miqdorlarini tabaqalanishini, ya’ni makroelementlarni ushbu tuproq kesmalarining genetik qatlamlari o‘rtasidagi farqlarini 1, 2-geokimyoviy spektrlar orqali ham yaqqol ajratish mumkin.




1ª-rasm. Qo‘riq bo‘z tuproq qatlamlarida Na, K, Ca va Fe miqdorlari



1ᵇ-rasm. Qo‘riq bo‘z tuproq qatlamlarida Rb, Sr va Ba miqdorlari



2ª-rasm. Sug‘oriladigan bo‘z tuproq qatlamlarida Na, K, Ca va Fe miqdorlari



2b-rasm. Sug‘oriladigan bo‘z tuproq qatlamlarida Rb, Sr va Ba miqdorlari

Ushbu diagrammalardan ko‘rinadiki, to‘q tusli bo‘z tuproqlarda Ca elementini spektrida katta farqlar mavjud. Ba va Sr ning ham geokimyoviy spektrlarida sezilarli farqlar kuzatiladi.

Makroelementlarni tuproqlarda akkumulatsiyalanishi yoki migratsiyasini aniqlash maqsadida litosfera klarkiga nisbatan klark konsentratsiyalari (KK) ishlab chiqildi va ular quyidagi qatorlarda kamayib boradi. **Qo‘riq:** to‘q tusli bo‘z tuproqlarda - Ba1,42> Ca1,21>Rb0,85=Sr0,85>K0,81>Fe0,67> Na0,28;

tipik bo‘z tuproqlarda - Ba1,40> Ca1,29>Sr1,23>K0,80>Rb0,78>Fe0,52> Na0,31; och tusli bo‘z tuproqlarda -Sr1,82>Ba1,81>Ca1,13>Rb0,77>K0,7 6>Fe0,54>Na0,49.**Sug‘oriladigan:** to‘q tusli bo‘z tuproqlarda - Ba1,39> Ca0,99>Sr0,95>Rb0,74>K0,73>Fe0,63> Na0,44;

tipik bo‘z tuproqlarda - Ba1,56> Sr1,24>Ca1,03>Rb0,82>K0,79>Fe0,59> Na0,33;

och tusli bo‘z tuproqlarda - Ba1,94> Sr1,67>Ca1,26>Rb0,85>K0,76>Fe0,59> Na0,38.

KK miqdorlaridan ko‘rinadiki, qo‘riq to‘q tusli bo‘z tuproqlarda Ba va Ca, tipik hamda och tusli bo‘z tuproqlarda Ba, Ca va Sr lar konsentratsiyalanadi.

Sug‘oriladigan to‘q tusli bo‘z tuproqlarda esa faqatgina Ba, tipik hamda och tusli bo‘z tuproqlarda Ba, Sr va Ca larning klark konsentratsiyalari 1 dan yuqori, ular ushbu tuproqlarda akkumulatsiyalanadi.

Boshqa makroelementlarning KK lari 1 dan kichik bo‘lib, ular ushbu tuproqlarning genetik qatlamlarida turli darajada tabaqalanadi.

Xulosa. Qo‘riq va sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda, ularning genetik qatlamlarida kimyoviy elementlar tuproq-iqlim sharoitlariga, oksidlanish-qaytarilish reaktsiyalarining tezligiga va boshqa omillarga bog‘liq holda turlicha tezlikda migratsiyalanadi hamda har xil miqdorlarda akkumulyatsiyalanadi.

Tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlarning differensiatsiya, migratsiya xususiyatlarini va tabaqalanishini tadqiq qilish orqali olingan ma’lumotlardan tuproqlar monitoringida, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish va ularni oziqlantirish jarayonlarida foydalanish tuproq unumdorligini oshirishda, ekinlar hosildorligi va sifatini oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Перельман А.И. Геохимия. – М.: 1989. – 419 с.

2. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных элементов в почвах. – М.: РАН. – 2021. – 298 с.

3. Добровольский В. В. Геохимическое землеведение: Учебное пособие / – М.: Владос, 2008. – 208 с.

4. Юлдашев Г. Ю., Хайдаров М. М. Изменение морфологических и агрохимических свойств темных сероземов Чаткальского хребта //Научное обозрение. Биологические науки. – 2019. – №. 3. – С. 42-46.

5. Турдалиев А.Т., Абакумов Е.В., Мусаев И.И. Суғориладиган оч тусли бўз тупроқларнинг морфологик белгиларидаги ўзгаришлар. International scientific-practical conference actual issues of agricultural development: Problems and solutions june 6-7.

6. Турдалиев А. Т., Мусаев И. И., Мамажонов Г. Г. У. Изменение морфологических характеристик и агрохимического свойства орошаемых светлых сероземов //Научное обозрение. Биологические науки. – 2023. – 2023. – Т.: 4. – С. – 86-91.

7. Хайдаров М.М. Основы применения гуминовых веществ в светлых сероземах // Scientific Bulletin of Namangan State University. 2020, №2(8), – С. – 87-93.

8. Хайдаров М.М., Турдалиев А.Т., Саминов А.А.У. Энергетические особенности аминокислот в светлых сероземах // Гуманитарные науки. – 2017. – №. 6. – С. –249-252.

9. Эшпулатов Ш., Юлдашев Г. Химические и геохимические свойства почв светлых сероземов. – Т.: 2010. – С. 89-97.

10. Musayev I.I., Turdaliyev A.T. Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarda makroelementlarning geokimyoviy xususiyatlari // FarDU. Ilmiy xabarlar. 2024. №3. 227-230 b.

11. Musayev I.I. Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar va uzumning biogeokimyoviy xossalarini o‘zgarishi // B.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissartatsiya. 2024. 120 b.

UO‘T: 631.45

SUG‘ORILADIGAN GIDROMORF VA YARIM GIDROMORF TUPROQLARNING DEGRADATSIYA JARAYONLARI VA EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich,
b.f.d., professor,
e-mail: nodirjonabdurahmonov@gmail.com
Pulatov Muxitdin Kamoliddinovich,
k.i.x.,
e-mail: dr.presidentx@gmail.com
Qalandarov Nazimxon Nazirovich,
b.f.f.d, katta ilmiy xodim

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Farg‘ona hududlarida keng tarqalgan sug‘oriladigan o‘tloqi-saz, o‘tloqi va cho‘l-o‘tloqi tuproqlarida sodir bo‘layotgan degradatsiya jarayonlari hamda ularning meliorativ holati keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan sug‘oriladigan tuproqlarda sodir bo‘ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlar doimiy o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lib, gumus va tuzlar miqdori hamda ularning zahirasi tuproq turiga ko‘ra keskin farqlanishi aniqlandi. Ikkilamchi sho‘rlanish tuproqlarning meliorativ holatini yomonlashtirayotgan asosiy omillar hisoblanadi. 1999–2023 yillar davomida C:N nisbatining ortishi tuproq ekologik holatining yaxshilanib borayotganligini ko‘rsatadi. Meliorativ choralarni tizimli qo‘llash, organik o‘g‘itlarni qo‘llash, drenaj faoliyatini tiklash va sho‘r yuvish ishlarini samarali tashkil etish Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan tuproqlarida degradatsiya jarayonlarini kamaytirishning asosiy yo‘llari ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: unumdorlik, gumus, tuzlar zahirasi, gidromorf, yarim gidromorf, ekologik holat.

Аннотация. В данной статье изучены процессы деградации, происходящие в орошаемых почвах Центральной Ферганы, а также их влияние на мелиоративное состояние и плодородие почв. Результаты исследования показали, что физические, химические и биологические процессы, протекающие в лугово-болотных, луговых, переходных луговых и пустынно-луговых почвах, отличаются высокой динамичностью, а содержание гумуса и солей, а также их запасы значительно варьируют в зависимости от типа почвы. Установлено, что запасы солей и процессы вторичного засоления являются основными факторами, ухудшающими мелиоративное состояние почв. Повышение отношения C:N в 1999–2023 годах свидетельствует об улучшении экологического состояния почв. Отмечено, что системное применение мелиоративных мероприятий, использование органических удобрений, восстановление работоспособности дренажной сети и эффективная организация промывочных работ являются основными путями снижения процессов деградации в орошаемых почвах Центральной Ферганы.

Ключевые слова: плодородие, гумус, запасы солей, гидроморфные почвы, полугидроморфные почвы, экологическое состояние.

Annotation. This article examines the degradation processes occurring in the irrigated soils of the Central Fergana region and their impact on soil meliorative conditions and fertility. The study showed that physical, chemical, and biological processes in meadow-marsh, meadow, transition-meadow, and desert-meadow soils are highly dynamic, while the content and reserves of humus and salts vary significantly depending on soil type. Salt accumulation and secondary salinization were identified as key factors worsening soil meliorative status. The increase in the C:N ratio during 1999–2023 indicates an improvement in the ecological condition of the soils. It is stated that the systematic application of meliorative measures, the use of organic fertilizers, the restoration of drainage functionality, and the effective

organization of leaching practices are the main ways to reduce degradation processes in the irrigated soils of Central Fergana.
Key words: fertility, humus, salt reserves, hydromorphic soils, semi-hydromorphic soils, ecological condition.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2021-yil 1-yanvar holatiga jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug‘oriladigan yerlar esa 4331,7 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi. So‘nggi 15 yil mobaynida aholi sonining o‘sishi, suv ta’minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o‘tishi natijasida sug‘oriladigan yer maydonlari qisqarishi mumkin [1].

Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo‘jaligi tuproqlardan samarali foydalanish orqali ko‘zlangan hosilni yetishtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan tuproqlardan samarali foydalanish uchun tuproqlarning xossa-xususiyatlarini aniqlash, unumdorligini oshirish orqali ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, degradatsiya jarayonlari ta’sirini kamaytirish, unumdorligini tiklash global darajada yechilishi zarur bo‘lgan eng ustuvor vazifadir.

17. Hassani, A.; Azapagic, A.; Shokri, N. Predicting Long-Term Dynamics of Soil Salinity and Sodicity on a Global Scale. Proc. NatlAcad. Sci. USA 2020, 117, 33017–33027. [CrossRef]

18. Li, J.; Pu, L.; Zhu, M.; Zhang, J.; Li, P.; Dai, X.; Xu, Y.; Liu, L.; Liu, L. Evolution of Soil Properties Following Reclamation in Coastal Areas: A Review. Geoderma 2014, 226–227, 130–139. [CrossRef]

19. An, J.; Chang, H.; Han, S.H.; Khamzina, A.; Son, Y. Changes in Basic Soil Properties and Enzyme Activities Along an Afforestation Series on the Dry Aral Sea Bed, Kazakhstan. For. Sci. Technol. 2020, 16, 26–31. [CrossRef]

20. Kim, J.; Song, C.; Lee, S.; Jo, H.W.; Park, E.; Yu, H.; Cha, S.; An, J.; Son, Y.; Khamzina, A.; et al. Identifying Potential Vegetation Establishment Areas on the Dried Aral Sea Floor Using Satellite Images. Land Degrad. Dev. 2020, 31, 2749–2762. [CrossRef].

21. Хожиев Ш.Т., Косимов И.О., Гаибназаров Б.Б. Задачи, решение с помощью порошковой дифроктометрии. Сборник материалов II международной научно-технической конференции “Актуальные вопросы естественных наук” 19 мая, 2021г. Нукус. – С. – 159-162.

22. M. Yu. Tashmetov, F. K. Khallokov, N. B. Ismatov, I. I. Yuldashova, I. Nuritdinov, S. Kh. Umarov. Study of the influence of electronic radiation on the surface, structure and Raman spectrum of a TlInS2 single crystal // Physica B: Condensed Matter. Volume 613, 2021, 412879

23. Axmatov T.J., Porfireva R.T., Gaysin L.J. Ximicheskaya texnologiya neorganicheskix veshestv. – T.: 2. Kn. 1. — Pod. Red. Axmatov T.J. – M.: Visshaya shkola, 2002. — ISBN 5-06-004244-8. –S. –369–402.

24. Аманова Г.И., Абдирахимова С.Ш., Зиявитдинов Ж. Ф., Олимжонов Ш.С., Хожиев Ш.Т. Адаптация солеустойчивых растений Lycium ruthenicum и Nitraria schoberi к солевому стрессу в условиях in vitro с использованием извлеченных солей из почв высохшего дна Аральского моря // Актуальные проблемы развития Биоорганической химии г. Ташкент, 13-14 ноября 2023г. – С. – 381-383.

25. Аманова Г.И., Олимжонов Ш.С., Зиявитдинов Ж.Ф., Хожиев Ш.Т., Тажибоев Ғ.А., Шеримбетов С.Г. Жанубий Оролқумда тарқалган Nitraria schoberi L. ўсимлигини in vitro шароитида кўпайтириш ва шўрланган тупроқ-шароитига мослаштириш // Вестник КГУ им. Бердаха. № 1 (68) 2025 г. – С. – 34-37.

UDK 631.431, 631.416

MIRZACHO‘L VOHASI SHAROITIDA TURLI AGROSENOZLAR UCHUN TUPROQ BONITIROVKASI NATIJALARI

Turdimetov Shaxobiddin Muxitdinovich,
biologiya fanlari doktori (DSc), professor,
e-mail: turdimetov1970@mail.ru
Xudayberdiyeva Zarina Asqar qizi
tayanch doktorant
e-mail: xudayberdievazarina0@gmail.com

Annotatsiya. Mirzacho‘l vohasi tuproqlari sharoitida mosh va makkajo‘xori ekinlarining hosildorligi va hosil sifatiga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada tuproq suvli so‘rim natijalari tahlil qilingan. Sho‘rlanish darajasining makkajo‘xori va mosh doninig naturasi, undagi oqsil va uglevodlar miqdoriga bog‘liqligi (korrelyatsiyasi) o‘rganilgan. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra sho‘rlanish darajasi bilan yuqoridagi belgilar bilan korrelyatsiyasi ikkala ekinda turlicha kattaliklarga ega bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: mosh, makkajo‘xori, sho‘rlanish darajasi, quruq qoldiq, xlor, sulfat, natriy, kalsiy, magniy, don naturasi, oqsil, uglevod.

Аннотация. Приведены данные о факторах, влияющих на урожайность и качество маша и кукурузы в почвенных условиях Мирзачульского оазиса. В статье проанализированы результаты водной вытяжки почвы. Изучена взаимосвязь степенью засоления с натурой зерна кукурузы и маша, количеством в них белка и углеводов. Согласно полученным данным, корреляционная связь между степенью засоления и вышеуказанными характеристиками имеет разную величину у обеих культур.

Ключевые слова: маш, кукуруза, степень засоления, сухой остаток, хлор, сульфат, натрий, кальций, магний, натура зерна, белок, углеводы.

Annotation. This article presents data on the factors affecting the yield and quality of mung bean and corn grown under the soil conditions of the Mirzacho‘l Oasis. The results of soil water-extract analyses are examined. The study investigates the correlation between soil salinity levels and several grain quality indicators, including grain nature, protein content, and carbohydrate content in both crops. According to the obtained results, the degree of correlation between salinity and these traits varies significantly between mung bean and corn.

Key words: mung bean, corn, salinity level, dry residue, chloride, sulfate, sodium, calcium, magnesium, grain nature, protein, carbohydrates.

Kirish. Tuproq sifatini baholashda qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligiga ta’sir qiluvchi asosiy tuproq xossalari hisobga olinadi. Ushbu xossalar mintaqaning tuproq iqlim sharoitiga ko‘ra ham turlicha bo‘ladi. O‘zbekistonda tuproq bonitirovkasi (sifat bahosi) ni aniqlash respublikada yetakchi ekin bo‘lgan g‘oza ekini uchun ishlab chiqilgan. Turli ekinlarning biologik xossalari ham turlichadir, shuning uchun ham tuproq unumdorligiga bo‘lgan talabi ham turlicha bo‘ladi. Biz Mirzacho‘l vohasi sharoitida tuproq unumdorligini mosh va makkajo‘xori ekinlarining hosildorligiga ta’sirini o‘rganish va tuproqni bonitirovkalash tamoyillarini ishlab chiqish uchun maxsus kuzatuvlar olib bordik.

Adabiyotlar sharhi. Tuproq sifat bahosini aniqlashda Turkiyalik olimlar Hamza Negiş va Cevdet Şeker [1] tuproq sifat indeksini tuzishni taklif etishgan.

Ikki yil davomida 108 ta tuproq kesmalari qo‘yilgan va namunalar tahlil qilingan. TSI -ni aniqlash uchun 12 ta tuproq xossalari tanlab olingan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, tuproq sifatini baholash uchun 4 ta fizik, 5 ta kimyoviy va 3 ta biologik xususiyatdan foydalanish mumkinligi aniqlangan.

N.Rawal, N.Bhandari, S.Subedi, D.R.Chalise, D.Khadka [2] bug‘doy ekini uchun tuproq unumdorligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishgan. Tuproq unumdorligini oshirish uchun mahalliy o‘g‘itlardan foydalanish tavsiya etilgan.

K.Nabiollahi, E.Heshmat, A.Mosavi, R.Kerry, M.Zeraatpisheh, R.Taghizadeh-Mehrjardilar [3] Eronda ikkita tuproq tartibidan (Inseptisol va Entisol) olingan 100 ta tuproq namunalari (0–20 sm chuqurlik) uchun jami 18 ta tuproq sifati ko‘rsatkichlari tanlab olingan. Bunday ko‘rsatkichlarga tuproq xossalaridan pH, tuproq strukturasi, gumus, kation almashinuv qobiliyati, elektr o‘tkazuvchanligi, tuproq mikrobial nafas olishi, tuproq g‘ovakliligi, hajm, og‘irlik va h.k.larni kiritish mumkin.

Mirzacho‘l vohasi tuproqlarinig xossalari, rivojlanishi, evolutsiyasi, tuproq unumdorligi va uni turli ekinlarning hosildorligiga ta’siri yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazilgan [4-8], lekin mosh va makkajo‘xorining hosili miqdori va sifatiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Tadqiqot ob'yekti va uslublari. Tadqiqot obyekti sifatida kuzgi bug‘doydan bo‘shagan yerlarga ekilgan mosh maydonlari va makkajo‘xori ekilgan maydonlar tanlab olindi. Ushbu maydonlar Mirzacho‘l vohasining sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida joylashgan bo‘lib, turli darajada sho‘rlangan tuproqlardan iboratdir. Mosh va makkajo‘xori ekilgan yerlardan “kalit maydonchalar” tanlab olindi. Ushbu maydonchalarga tuproq kesmalari qo‘yildi, tuproqning morfologik belgilarining yozmalari qayd etildi. Tuproq namunalari olinib tahlil qilindi. Mosh va makkajo‘xorining (don uchun) hosildorligi aniqlandi. Dondan namunalar olinib ularning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil o‘tkazildi. Tuproq xossalar bilan ekinlarning hosildorligi hamda, hosil sifati bo‘yicha korrelyatsiya koeffisiyentlari hisoblangan. Shuningdek, bonitirovka shkalasi va bonitirovka koeffisiyentlari hisoblangan. Eng yuqori hosildorlik 100 ball yo 1.00 bonitirovka koeffisiyentlari deb hisoblangan. Qolgan ko‘rsatkichlar ushbu miqdorga nisbatan foizlarda hisoblab topilgan.

Izlanishlarda dala tadqiqotlari, kimyoviy tahlil va kameral ishlar Tuproq-shunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida umumqabul qilingan uslubiyotlar asosida amalga oshirildi, shuningdek, genetik, tarixiy-taqqoslash, kimyoviy-analitik usullardan foydalanildi.

Ilmiy ishning maqsadi. Sirdaryo viloyatida ekin maydoni sifatida g‘oza, kuzgi bug‘doydan keyingi o‘rinlarda turadigan mosh va makkajo‘xori ekinlari uchun tuproq sifat bahosini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat. Tuproq xossalari, mosh hamda makkajo‘xori ekinining hosilining miqdori va sifati o‘rtasidagi korrelyativ bo‘g‘liqliklar o‘rganilgan. Ushbu ekinlar misolida tuproq bonitirovka xaritalarini tuzish, rejalashtirilgan hosildorlikni ilmiy asoslash imkoniyati yaratiladi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotlar Mirzacho‘l vohasining bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida olib borilgan. Ushbu tuproqlarning mexanik tarkibi yengil, o‘rta va o‘g‘ir tuproqlardan iborat bo‘lib, “yirik chang” zarrachalari ustunlik qiladi. Tuproqning sho‘rlanish darajasi va tipiga oid ma’lumotlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot ob'yekti tuproqlarining suvli so‘rim tahlili natijalari

Kesma №	Qatlam chuqurligi, sm	Quruq qoldiq, %	HCO_3	Cl	SO_4	Ca	Mg	Na	Sho‘rlanish		Jami
									tipi	darajasi	%
11-25	0-29	0,068	0,029[1]	0,005	0,024	0,001	0,005	0,005	s	sho‘rlan-magan	0,064
			0,48[2]	0,15	0,50	0,50	0,40	0,23			
	29-49	0,066	0,027	0,005	0,024	0,001	0,005	0,004	s	sho‘rlan-magan	0,062
			0,44	0,15	0,50	0,50	0,40	0,19			
	49-91	0,066	0,026	0,005	0,024	0,001	0,005	0,004	s	sho‘rlan-magan	0,061
			0,42	0,15	0,50	0,50	0,40	0,19			
	91-121	0,282	0,020	0,011	0,168	0,048	0,016	0,010	S	sho‘rlan-magan	0,262
			0,32	0,30	3,50	2,40	1,28	0,44			
6-25	0-29	0,420	0,020	0,009	0,256	0,076	0,018	0,014	s	kuchsiz sho‘rlangan	0,383
			0,32	0,25	5,33	3,79	1,48	0,63			
	29-50	0,254	0,027	0,007	0,146	0,034	0,018	0,012	s	sho‘rlan-magan	0,230
			0,44	0,20	3,04	1,70	1,48	0,50			
	50-78	0,736	0,020	0,016	0,456	0,120	0,035	0,032	s	kuchsiz sho‘rlangan	0,669
			0,32	0,44	9,50	5,99	2,86	1,41			
	78-117	0,562	0,021	0,025	0,330	0,070	0,035	0,036	s	kuchsiz sho‘rlangan	0,505
			0,34	0,69	6,87	3,49	2,86	1,55			
	117-140	0,504	0,023	0,014	0,320	0,078	0,031	0,023	s	kuchsiz sho‘rlangan	0,477
			0,38	0,39	6,67	3,89	2,57	0,98			
2-25	0-28	1,228	0,022	0,007	0,744	0,274	0,023	0,012	s	O‘rtacha sho‘rlangan	1,070
			0,36	0,20	15,50	13,6777	1,88	0,51			
	28-72	1,184	0,021	0,007	0,740	0,272	0,024	0,009	s	O‘rtacha sho‘rlangan	1,063
			0,34	0,20	15,41	13,57	1,98	0,40			
	72-99	1,240	0,023	0,011	0,780	0,266	0,036	0,009	s	O‘rtacha sho‘rlangan	1,120
			0,38	0,30	16,25	13,27	2,96	0,40			
	99-131	1,246	0,020	0,009	0,800	0,278	0,034	0,014	s	O‘rtacha sho‘rlangan	1,144


1-%, 2-mg/ekv

Suvli so‘rim tahlili natijalariga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, 11-25-kesmada quruq qoldiqning miqdori 0,03 % ga yetmaydi, xlorning miqdori zaharlilik darajasidan ancha past, ko‘pgina hollarda 0,005 % ni tashkil etgan.


6-25-kesmada quruq qoldiqning miqdori haydalma qatlamda 0,420 % , haydalma ostki qatlamda 0,254, keying qatlamlarda 0,504-0,736 %. Karbonatlar miqdori 0,20 % bo‘lib, kuchsiz ishqoriylikka ega. Xlor anionining miqdori 0,007-0,016 % ni tashkil etgan. Sulfatlarning miqdori 0,30-0,40 % ni tashkil etgan. Sho‘rlanish tipi sulfatli, darajasi-kuchsiz sho‘rlangan.

2-25-kesma o‘rtacha sho‘rlanishga ega bo‘lib, sho‘rlanish tipi sulfatli. Quruq qoldiq miqdori barcha chuqurlikda 1,0 % dan ortadi, karbonatlar miqdori 6-25-kesmadagi ko‘rsatkichlar bilan deyarli bir xil. Lekin sulfatlarning miqdori biroz yuqori ko‘rsatkichga ega-0,74-0,80 % .


Quyida quruq qoldiq bilan makkajo‘xori va mosh donining sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklar keltirilgan (1-rasm).




Quruq qoldiq miqdori va makkajo‘xori doni naturasi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqlik r=-0,88




Quruq qoldiq miqdori va makkajo‘xori donidagi oqsil miqdori o‘rtasidagi korrelyatsiya r=-0,81




Quruq qoldiq miqdori va makkajo‘xori donidagi uglevodlar miqdori o‘rtasidagi korrelyatsiya r=-0,98



Quruq qoldiq miqdori va mosh doni naturasi o‘rtasidagi korrelyatsiya r=-0,48



Quruq qoldiq miqdori va mosh donidagi oqsil miqdori o‘rtasidagi korrelyatsiya r=-0,89



Quruq qoldiq miqdori va mosh donidagi uglevod miqdori o‘rtasidagi korrelyatsiya r=-0,37

1-rasm. Quruq qoldiq miqdori va makkajo‘xori hamda mosh donining sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bo‘gliqliklar.

Mosh va makkajo‘xori donining sifat ko‘rsatkichalari va quruq qoldiq o‘rtasidagi teskari korrelyatsiya borligi aniqlandi. Ya’ni quruq qoldiq miqdorining ortib borishi bilan donning sifat ko‘rsatkichlarining pasayib borayotganligini kuzatish mumkin. Quruq qoldiq miqdori va uglevodlar (kraxmal) miqdori o‘rtasidagi bo‘gliqlik makkajo‘xori doni bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan-r=-0,98, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha esa mosh ekini past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan-r=-0,37. Aksincha, mosh donidagi oqsil miqdori va quruq qoldiq o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqlik yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi (r=-0,89).

Xulosa. Tuproq sho‘rlanish darajasi, ekinlarning hosildorlik miqdori va sifati o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklar turli ekinlar uchun turlicha kattalikka ega bo‘ldi. Korrelyativ bog‘liqliklarning yuqori bo‘lishi, ushbu belgilarning qanchalik ta’siri kuchli ekanligidan dalolat beradi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra mosh donining oqsil miqdori va makkajo‘xori donining kraxmal miqdoriga sho‘rlanish darajasi kuchli ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamza Negiş& Cevdet Şeker (2020) Estimation of Soil Quality of under Long Term Sugar Beet-wheat Cropping System by Factor Analysis, Communications in Soil Science and Plant Analysis, 51:4, 440-455, DOI: 10.1080/00103624.2020.1718689.

2. Rawal N., Bhandari N., Subedi S., Chalise D.R, Khadka D. Assessment of soil fertility management practices of wheat in western terai of Nepal. J. Inst. Agric. Anim. Sci. 33-34:105-114 (2015).

3. Nabiollahi K., Heshmat E., Mosavi A., Kerry R., Zeraatpisheh M., Taghizadeh-Mehrjardi R. Assessing the Influence of Soil Quality on Rainfed Wheat Yield. Agriculture 2020, 10, 469; DOI:10.3390/agriculture10100469.

4. Turdimetov Sh., Khudoyberdiyeva Z., Tadjibayev A. Quality Assessment of Gypsum Soils of Mirzachol Oasis. Journal of Population Therapeutics and Clinical Pharmacology, 2023. 30(12), pp. 295–301.

5. Turdimetov Sh., Urazalieva M., Esonboeva N. Properties and quality assessment of hydromorphic soils of mirzachol oasis. Eur. Chem. Bull. 2023,12 (Special Issue 1, Part-B), 3992-4000.

6. Turdimetov Sh.M. Tuproq sifat bahosi. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti. 2024. 230 b.

7. Turdimetov Sh.M. Xudoyberdiyeva Z.A. Kuzgi bug‘doy ekilgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi. – GulDU axborotnomasi. – 2024. №2. – B. – 73-76.

8. Абдурахмонов Н.Ю., Собитов У.Т., Курдашев К.Д. Агрофизические свойства в различной степени гипсированных орошаемых лугово-сероземных почв. // Научно-издательский сентр «Академия естествознания». Журнал «Научное обозрение Биологические науки». – Москва, - № 1. - 2024. – С. 5-11.

UDK: 631.8.83.84.85.89.

G‘O‘ZA PARVARISHIDA AZOT, FOSFOR VA KALIYLI O‘G‘ITLARNI BIR VAQTDA QO‘LLASHNING ILMIY ASOSLARI

Ko‘ziyev Jaxongir Madaminovich,
bo‘lim mudiri,
qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc)
e-mail: mmjahongir81@gmail.com

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda g‘o‘za parvarishida azot (N), fosfor (P) va kaliy (K)li mineral o‘g‘itlarning bir vaqtda kompleks qo‘llanilishi tizimi o‘rganildi. Dala tajribalarida NPK o‘g‘itlarini turli miqdorlarda (N150P105K75; N250P175K125; N350P245K175) va fenologik fazalarga muvofiq taqsimlash orqali ildiz rivojlanishi, fotosintez faoliyati va generativ organlar shakllanishi tahlil qilindi. Natijalar kompleks NPK qo‘llash elementlar o‘rtasidagi sinergiyani (integral o‘g‘itlash effekti) ta’minlab, azot, fosfor va kaliyning o‘zlashtirilishini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ekish va shonalash fazalarida teng balansda qo‘llanilgan NPK o‘z vaqtida va uzluksiz oziqa muhitini yaratishi, mineral o‘g‘itlarning samaradorligini oshirishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirildi. Tadqiqot natijalari respublika sharoitida sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproq sharoitida g‘o‘zaning oziqlanish tizimini maqbullashtirish uchun ilmiy asoslangan yondashuv sifatida qo‘llanilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: g‘o‘za, NPK, mineral o‘g‘it, kompleks qo‘llanish, fenologik fazalar, sinergizm, oziqlanish samaradorligi.

Аннотация. В данном исследовании изучена система одновременного комплексного внесения азота (N), фосфора (P) и калия при возделывании хлопчатника. Проведен анализ применения NPK в различных количествах (N150P105K75, N250P175K125, N350P245K175), успешное распределения в фенологические фазы способствующего развитию корневой системы, формированию фотосинтетической деятельности и формированию генеративных органов. Комплексное применение NPK обеспечили синергию (эффект интегрального применения удобрений), повысили усвоение азота, фосфора и калия в ощутимат степени. Вместе с этим, приведены сведения по созданию своевременного и непрерывного питательного режима, при посеве, в фазу бутонизации хлопчатника и повышению эффективности минеральных удобрений. Полученные результаты исследований служат в качестве научного подхода по оптимизации питательного режима почв при возделывании хлопчатника в условиях орошаемых типичных серозёмов Республики.

Ключевые слова: хлопчатник, NPK, минеральные удобрения, комплексное внесение, фенологические фазы, синергизм, эффективность питания.

Annotation. This study investigates a system of simultaneous integrated application of nitrogen (N), phosphorus (P), and potassium (K) in cotton cultivation. An analysis was conducted on the use of NPK fertilizers at different application rates (N150P105K75, N250P175K125, N350P245K175), with successful distribution across phenological growth stages, which contributed to the development of the root system, enhancement of photosynthetic activity, and formation of generative organs. The integrated application of NPK ensured a synergistic effect (integral fertilizer application effect) and significantly increased the uptake of nitrogen, phosphorus, and potassium. In addition, information is provided on the establishment of a timely and continuous nutrient supply regime at sowing and during the cotton budding stage, as well as on improving the efficiency of mineral fertilizers. The obtained research results serve as a scientific basis for optimizing soil nutrient management in cotton cultivation under the conditions of irrigated typical serozem soils of the Republic.

Key words: cotton, NPK, mineral fertilizers, integrated application, phenological stages, synergism, nutrient use efficiency.

Kirish. Dunyo bo‘ylab qishloq xo‘jaligi sohasida intensivlashuv va resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash sharoitida g‘o‘zaning oziqlanish tizimini maqbullashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, azot (N), fosfor (P) va kaliy (K) ning bir vaqtda qo‘llanilishi g‘o‘zaning fiziologik talablarini kompleks qondirish, elementlar o‘zaro sinergiyasini ta’minlash va oziqa elementlarining o‘zlashtirilish koeffitsiyentini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, g‘o‘zada N va P ildiz-barg munosabatlari orqali bir-birini to‘ldirib, fotosintez, energiya almashinuvi va ildiz rivojlanishini kuchaytiradi [1]. Shu bilan birga, kaliyli o‘g‘itlar sug‘oriladigan sharoitda suv aylanishini, osmotik barqarorlikni va stresslarga chidamliligini ta’minlaydi. Agar kaliy g‘o‘zaga bir vaqtda N va P bilan birgalikda qo‘llanilsa turli stresslarga bardoshliligi oshishi bilan bir qator tadqiqotchilar tomonidan qayd etiladi [2].

So‘nggi yillarda o‘g‘itlash tizimi rivojlangan davlatlarda o‘tkazilgan tad-qiqotlarda NPKning bir vaqtda qo‘llash g‘o‘zaning makroelementlarga bo‘lgan talabini fazalar bo‘yicha to‘liq qamrab olishini, oziqa elementlarining o‘zaro ta’sirini muvofiqlashtirishini va hosilning shakllanish davrida o‘simliklarni o‘sishi, rivojlanishi va hosil tugish jarayoni uchun zarur bo‘lgan oziqa elementlar dinamikasining uzliksiz, barqaror bo‘lishini qayd etilmoqda [3].

Bugungi kunda g‘o‘za hosili va sifatini ta’minlashda o‘g‘itlarning umumiy hissasi: Mineral o‘g‘itlar – ayniqsa azot (N), fosfor (P) va kaliy (K) – g‘o‘zaning o‘sishi, hosil shakllanishi va tola sifati uchun asosiy elementlar hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilgan tahlillar, ya’ni hosilga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy intekator bu mineral o‘g‘itlar ekanligi, ya’ni g‘o‘za hosilining 50-70% ini tashkil etishi yoki hosil sezilarli tarzda pasayishi qayd etilmoqda [4].

NPK o‘zaro ta’sir qobiliyati (sinergizm va balans) samaradorlikni belgilaydi: NPK elementlari bir-biri bilan biokimiyoviy hamkorlikda harakat qiladi.

– Azot bargning organik moddalarini va hosil potensialini belgilaydi;

Fosfor – ildiz rivojlanishi, mikroelementlar almashinuvi va suv stressiga (water stress), ya’ni tuproqda suv yetishmasligi yoki suvning noto‘g‘ri tarqalishi sababli o‘simlikda yuzaga keladigan fiziologik stressga bardoshligini oshiradi;

Kaliy – hujayra membranalaridagi suv harakatini boshqaruvchi osmotik bosimni tartibga solib, tuproqda suv kamayganda ham hujayraning suvni ushlab turish qobiliyatini hamda, hosil (tola) sifatini va N samaradorligini oshiradi. Shu tariqa, bir vaqtda va teng balansda NPK berish ko‘p tadqiqotlarda yakka element bilan solishtirganda yuqori hosil shu bilan bir qatorda yuqori natijalarga erishish mumkinligi qayd etilmoqda.

Integral (integrated) o‘g‘itlash – tuproq unumdorligini va resurs tejamkorligini oshiradi:

Integratsiyalashgan o‘g‘itlash (INM (mineral+organik+biologik, umumiy oziqa samaradorligi) /IPNS (har bir faza uchun kerakli NPK + mikroelementlar, hosil va sifatini maqbullashtirish)) - kimyoviy elementlar (NPK) bilan organik moddalarni hamda, mikrobiologik preparatlarni integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi – tuproqda uzluksiz oziqa muhitini ta’minlashga, natijada, nafaqat hosilni oshirish, balki tuproq sog‘lomligini yaxshilaydi (Cation Exchange Capacity (CEC), gumus va organik moddalar tuproqning kation almashinuv qobiliyati (CEC)ni oshiradi), natijada, mineral NPK o‘g‘itlarini o‘zlashtirilish koeffitsiyentining oshirish hisobiga nafaqat resurslarni tejash va hosil samaradorligini saqlash imkoni yaratiladi, balki azot chiqindilari, ya’ni parnikov gazlar (GHG) emissiyasi (chiqishi) ni ham kamaytiradi, bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlaydi [5].

“Tuproq-o‘simlik-o‘g‘it” tizimida resurs

samaradorligi. Kaliyning yetarli bo‘lishi azotni o‘simlikka qabul qilishni yaxshilaydi, N samaradorligi oshishi ko‘p eksperimentlar tadqiqotlarda qayd etilmoqda. Demak, N bilan K ni birga qo‘llash N sarfini kamaytirib, mahsuldorlikni saqlab qolish yoki oshirish imkonini beradi – bu esa iqtisodiy va ekologik jihatdan muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari: so‘nggi yillardagi dala tajribalari va dala kuzatuv tadqiqotlarida NPK yoki NPK+organik o‘g‘it qo‘llash natijasida hosil va sifat oshganini ko‘rsatmoqda (tadqiqotlarda nazoratga nisbatan 20-40% va ba’zi integratsiyalangan hollarda 40% dan yuqori olingan). Masalan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlarda NPK+organik/mikrobni birlashtirish natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi 25-45% gacha oshganligi qayd etilmoqda [6].

Li et al. [7] tomonidan sug‘oriladigan sharoitda kompleks NPK mineral o‘g‘itlarining g‘o‘zada oziqa elementlari o‘zlashtirilishi va hosildorlikka ta’sirini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘g‘itlarni birgalikda va balanslashgan holda qo‘llash elementlar o‘rtasida samarali sinergiyani yuzaga keltiradi. Ikki yillik dala tajribalarida NPK kompleksi NP yoki NK kabi ikki elementli hamda, yakka elementli variantlarga nisbatan ancha ustunlikka ega bo‘lib, azot, fosfor va kaliyni o‘zlashtirish darajasi NPga nisbatan 22-28%, NKga nisbatan 25-33% va faqat N, P yoki K qo‘llanilgan variantlarga nisbatan 30-40% ga yuqori bo‘lgan. Bu natijalar ostida bir nechta fiziologik mexanizmlar yotadi: azotning xlorofill sintezi va fotosintezni faollashtirishi hisobiga energiya talab qiluvchi reaksiyalar kuchayadi, fosfor hamda kaliyning talab va o‘zlashtirilishi oshadi; fosfor ildiz sistemasining chuqur va tarmoqlangan holda rivojlanishini ta’minlab, kapillyar zonalardan oziqa moddalarini samarali o‘zlashtirishga imkon yaratadi; kaliy esa osmotik tartibga solish funksiyasi orqali bargdagi stomalarning ochilishi va yopilishini maqbullashtirib, suv bug‘lanishi, gaz almashinuvi shuningdek, fotosintez jarayonlarini barqaror saqlaydi. Stomalarning barqaror faoliyati floema orqali moddalar tashilishi va barg to‘qimalarida suv oqimining yaxshilanishiga olib kelib, N va P kabi elementlarning ildizdan barg va generativ organlarga tez, samarali yetkazilishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham NPK kompleks qo‘llanilganda hosildorlik umumiy holatga nisbatan 8-12%, NP yoki NK variantlariga nisbatan 5-9% va yakka elementli o‘g‘itlashga nisbatan 10-18% yuqori hosil olinganligi ilmiy asoslangan. Umuman olganda, tadqiqotda kompleks o‘g‘itlash tuproqda oziqa elementlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni faollashtirishi, fiziologik jarayonlarni maqbullashtirishi va g‘o‘zaning mineral oziqlanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi [8].

Yuqorida keltirilgan ilmiy natijalardan kelib chiqib, sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida g‘o‘zaning oziqlanish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va tabiatdagi ekologik yukni kamaytirish uchun NPK o‘g‘itlarini bir vaqtda qo‘llashni ilmiy asoslash dolzarb, shu bilan bir qatorda raqobatbardosh tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Bu dolzarblik respublika tuproqlarining mavjud agrokimyoviy holati bilan ham tasdiqlanadi: rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, sug‘oriladigan tuproqlarning 69% i gumus bilan 1% dan past darajada, 93% i harakatchan fosfor bilan va 68% i almashinuvchi kaliy bilan o‘rtachadan past darajada ta’minlangan. Bunday kam ta’minlangan tuproqlar sharoitida fosforli va kaliyli o‘g‘itlarni faqat kuzgi shudgorda emas, balki vegetatsiya davrida ham qo‘llash talab etiladi. Shu bois, ushbu tadqiqotda respublika sharoiti uchun bir vaqtning o‘zida azot, fosfor va kaliyli mineral o‘g‘itlarni kompleks qo‘llash texnologiyasi yaratildi. Mineral o‘g‘itlar yuqori energiya sarfi va harajatlar bilan ishlab chiqarilishini hamda, tuproqda oziqa elementlari

balansini barqaror saqlash zarurligini hisobga olgan holda, analitik va texnologik yondashuv asosida maxsus kompleks o‘g‘itlash moslamasi ishlab chiqildi. Bu yechim tuproqshunoslik, agrokimyo va qishloq xo‘jaligi texnik jihatlarini birlashtirgan holda o‘g‘itlash tizimini maqbulllashtirish, kimyolashtirish va mexanizatsiya jarayonlarini diversifikatsiya qilish imkonini yaratdi.

Shu tarzda, tuproqdagi oziqa tanqisligini bartaraf etish, g‘o‘zaning NPKni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish va barqaror hosildorlikka erishish uchun mineral o‘g‘itlarni kompleks (bir vaqtda va balanslashgan) qo‘llash eng maqbul va ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvlardan biri deb aniqlandi. Masalan, respublika sharoitida g‘o‘zaning o‘sib rivojlanishi iqlim va tuproq haroratiga bog‘liq holda o‘rtacha quyidagicha qayd etildi. Shuningdek, mazkur jadvalda tuproqqa qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlarni g‘o‘zaga ta’sir etish davomiyligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ham tanishish mumkin (1-jadval).

G‘o‘zaning oziqa elementlariga, ya’ni ekishdan to gullashgacha bo‘lgan bosqichlarida doimiy ta’minlash maqsadida mazkur tizim ishlab chiqildi. O‘tkazilgan dala tajribalarida mineral o‘g‘itlar – ekish bilan birga (yillik o‘g‘it miqdorini N15%P15%K15%) hamda, shonalash (N30%P20%K20%) fazalarida kompleks qo‘llanildi. Bunda, mineral o‘g‘itlardan ammiakli selitra, mochevina, ammofos va kaliy xloridli o‘g‘itlardan foydalanildi.

1-jadval

G‘o‘zaning o‘sish fazalari va davomiyligi

Ekishdan unib chiqqungacha	Unib chiqqandan 2-3 chin barg	Unib chiqqandan shonalashgacha	Shonalashdan gullashgacha	Gullashdan pishishgacha
10-15 kun	15-20 kun	25-35 kun	25-30 kun	50-60 kun
Tuproqqa qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlarni g‘o‘zaga ta’sir etish davomiyligi				
O‘g‘it turi	Tuproqdagi asosiy jarayon	O‘zlashtirilish boshlanishi		
Azot				
Nitrat (NO_3^-)	Tuproqda uzoq saqlanadi, bakteriyalar bilan nitratga aylanadi	5-7 kundan keyin		
Ammoniy (NH_4^+)	Tuproqda tez harakatlanadi, suv bilan oson tarqaladi	1-2 kundan keyin		
Mochevina	Gidrolizdan so‘ng ammoniyga aylanadi, keyin nitratga o‘tadi	5-10 kun (tuproq haroratiga bog‘liq)		
Fosfor				
$H_2PO_4^-$ (digidrofosfat)	Eritmadagi $H_2PO_4^-$ shakli tuproqda tez fiksatsiyalanadi	3-5 kun		
HPO_4^{2-} (gidrofosfat)	Ammoniy yordamida fosforning harakatchanligini ortiradi	5-10 kun		
P_2O_5 (o‘g‘itlardagi shakl)	Fosforning parchalanishi, sust kislota muhitida yaxshiroq eriydi	10-20 kun (tuproq rN va namligiga bog‘liq)		
Kaliy				
K^+ (erkin kaliy ioni)	Suvda oson eriydi, tez harakatlanadi. O‘simliklar tomonidan bevosita o‘zlashadi.	1-3 kun		
Almashinuvchan kaliy (K– eksch.)	Kolloidlar bilan bog‘langan, lekin oson almashinadi. Asosiy agronomik kaliy.	5-7 kun		
K_2O (o‘g‘itlardagi shakl)	Tuproqda K^+ shaklidagi aylashinuvchi shakli faollashadi.	5-10 kun (namlik va tuproq turiga bog‘liq)		

Azo‘tning tuproq sharoitiga bog‘liqligi:

Namlik: O‘rtacha namlikda, ya’ni 60-70% azot tezroq o‘zlashtiriladi. Namligi kam, ya’ni quruq tuproqda esa 7-10 kunga kechikadi.

Harorat: 12°C bo‘lganda yuqori bo‘ladi, nitratlanish faol kechadi. Past haroratda (10°Cdan past) 10-14 kunga kechikadi.

pH; sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqda pH≈7,3–8,4 → ammoniy azoti nitratga aylanadi, shuning uchun boshlanishi 3-5 kunga kechikadi.

G‘o‘zaning vegetatsiya fazalariga bog‘liqligi:

Ildiz rivojlanishi (2-4 chin barg fazasi); azot tez o‘zlashtiriladi, o‘sish boshlanishi, ya’ni 1-2 kundan keyin sezila boshlaydi.

2-4 chin bargdan to gullash fazasigacha azotning eng talabchang davri bo‘lib, 2-3 kunda ta’siri seziladi.

Pishish va hosil yig‘ish fazasida esa azotga bo‘lgan talab pasayadi, keyingi kunlarda deyarli o‘zlashtirmaydi.

Fosforning tuproq sharoitiga bog‘liqligi:

Namlik; tuproq namligi 60-70% bo‘lganda fosfor tez harakatlanadi va 3-5 kunda o‘zlashtirila boshlaydi. Tuproq namligi yetarli bo‘lmaganda esa fosforning eruvchanligi kamayib, ta’sir boshlanishi 7-10 kungacha kechikadi.

Harorat; 12-25°C oralig‘ida fosforning harakatchanligi va eruvchanligi maqbul bo‘ladi hamda, o‘simik fosfat $H_2PO_4^-$ shakli tez o‘zlashtiriladi. Past haroratda (10°Cdan past) harakatchan fosforning ta’siri 10-14 kungacha kechikadi.

pH: tipik bo‘z tuproqlarda (pH≈7,3-8,4) fosforning fiksatsiyasi yuqori, shuning uchun HPO_4^{2-} shakli orqali fosforning o‘zlashtirilishi 5-10 kundan keyin boshlanadi.

G‘o‘zaning vegetatsiya fazalariga bog‘liqligi:

Ildiz rivojlanishi (2-4 chin barg fazasi): fosforning talabchanligi yuqori, ta’siri esa tezroq his qilinadi.

Shonalash va gullashgacha; fosfor ildiz vegetativ–generativ almashinuvni qo‘llab-quvvatlaydi, 5-10 kun ichida maksimal ta’siri namoyon bo‘ladi.

Pishish va hosil yig‘ish fazasi; fosforga bo‘lgan talab pasayadi, ammo, tuproqdagi fosfor zaxirasini yaxshilaydi.

Kaliyning tuproq sharoitiga bog‘liqligi:

Namlik; tuproqda namlik 60-70% bo‘lganda, erkin K^+ ioni tez harakatlanadi va 1-3 kunda o‘zlashtirila boshlaydi. Tuproq namligi yetarli bo‘lmaganda esa kaliy o‘zlashtirilishi 5-7 kunga kechikadi.

Harorat; kaliy uchun 12°Cdan yuqori harorat maqbul hisoblanadi. Past haroratda 7-10 kunga o‘simlik o‘zlashtirishi kechikadi.

pH; pH≈7,3-8,4 tuproqlarda kaliyning almashinuvchan shakli oson o‘zlashtiriladi. Kolloidlarga bog‘langan kaliy 5-7 kundan so‘ng faollashadi, fiksatsiyalangan K_2O esa 5-10 kun ichida K^+ shakliga aylanadi.

G‘o‘zaning vegetatsiya fazasiga bog‘liq ta’siri:

Ildiz rivojlanishi (2-4 chin barg fazasi): K^+ oziqa muhitini ta’minlab, suvni o‘zlashtirish va fiziologik balansni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shonalash va gullash fazasi: kaliy fotosintez va tola sifati uchun muhim, ta’siri 2-7 kundan keyin sezila boshlaydi.

Pishish va hosil yig‘ish fazasi: kaliy hosilning tola va energiya sifatini barqaror saqlashda uzoq ta’sir ko‘rsatadi (50-60 kungacha) [9, 10, 11].

Dala tajribasida g‘o‘zaning mineral oziqa elementlarga bo‘lgan ehtiyojini turli o‘g‘it me’yorlari asosida baholash maqsadida NPK o‘g‘itlarini uch xil miqdorda (N150P105K75; N250P175K125; N350P245K175) hamda, o‘g‘itsiz nazorat varianti asosida o‘rganildi. Ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, har bir o‘g‘it kombinatsiyasi bo‘yicha azot, fosfor va kaliy yil davomida belgilab qo‘yilgan agrotexnik talablarga muvofiq bosqichma-bosqich taqsimlangan. Xususan, fosfor va kaliyning 65% i shudgor ostiga berilib, ularning asosiy qismi ildizlar shakllanishi va dastlabki o‘sish davrida o‘zlashtirilishini ta’minlagan. Ekish bilan bir vaqtda azot,

fosfor va kaliyning 15% dan qo‘llanildi va uning ta’siri aniqlandi. Keyingi 3-4 chin barg, shonalash va gullash fazalarida azot asosan 25-30% dan qismlarga bo‘lib berilishi esa g‘o‘zaning intensiv o‘sishi va generativ organlar shakllanishi davrida oziqa yetishmasligining oldini olishga qaratildi. O‘g‘it me’yori oshgan hollarda (ayniqsa N350P245K175 variantda) barcha elementlar miqdorining har bir fenologik faza bo‘yicha mutanosib ravishda ko‘paygani g‘o‘zaning yuqori hosildorlik salohiyatini rivojlantirish uchun maqsadli oziqa rejimi yaratilganini ko‘rsatadi. Mazkur 2-jadvalda o‘tkazilgan dala tajriba tizimida NPK o‘g‘itlarining o‘sish fazalari bo‘yicha maqbul taqsimoti keltirilgan bo‘lib, g‘o‘zaning fiziologik talablariga mos ravishda oziqlanishini ta’minlashga xizmat qildi.

2-jadval

Dala tajriba tizimi

№	Yillik mineral o‘g‘itlarning me’yori	Mineral o‘g‘itlarning yillik taqsimlanishi, kg/ga									
		Shudgor ostiga		Ekish bilan birga			3-4 chin barg	Shonalash			Gullash
		P	K	N	P	K	N	N	P	K	N
		65%	65%	15%	15%	15%	25%	30%	20%	20%	30%
1.	O‘g‘itsiz nazorat	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2.	$N_{150}P_{105}K_{75}$	68	49	23	16	11	38	45	21	15	45
3.	$N_{250}P_{175}K_{125}$	114	81	38	26	19	63	75	35	25	75
4.	$N_{350}P_{245}K_{175}$	159	114	53	37	26	88	105	49	35	105

O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda g‘o‘zaning oziqa elementlariga bo‘lgan talabi fenologik fazalar bo‘yicha keskin farqlanadi, ammo amaliyotda mineral o‘g‘itlar asosan ekishda yoki ikki marotaba (ekish va gullashda) oziqlantiriladi. Bizning tadqiqotda esa birinchi bor azot, fosfor va kaliyni ekish bilan birga va shonalash fazasida kompleks holda qo‘llashning agronomik va fiziologik afzalliklari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ekish paytida berilgan NPK, ayniqsa, fosfor va kaliy, ildiz tizimining erta rivojlanishi, fotosintetik apparatning shakllanishi hamda, o‘sishini yaxshi rivojlanishiga xizmat qiladi. Shonalash fazasida kompleks o‘g‘it qo‘llash esa ilmiy manbalarda ham qayd etilgan [12, 13, 14], g‘o‘zaning “energetik burilishi”, ya’ni vegetativ massani shakllanishidan generativ organlarni barqaror to‘ldirish bosqichiga o‘tish davridagi eng yuqori oziqa talabi bilan to‘la mos keladi. Shu sababli ekish va shonalashda kompleks NPK qo‘llash g‘o‘zaning barcha fazalarida uzluksiz va muvozanatli oziqa muhitini shakllantiradi, mineral o‘g‘itlarning yo‘qotilishini 20-35% ga kamaytiradi va elementlar o‘zlashish koeffitsiyentini sezilarli oshiradi.

Respublikamizning o‘g‘itlash tizimida NPK o‘g‘itlarining fenologik ehtiyoj asosida kompleks ikki bosqichli qo‘llanishi ilgari keng o‘rganilmagan va deyarli qo‘llanilmagan. Shu bois ushbu yondashuv mamlakatimiz sharoitida birinchi marta ilmiy-amaliy jihatdan asoslanib, erta vegetatsiyada ildiz rivojini, shonalash va gullashda esa chigit-tola to‘ldirish jarayonlarini birdek qo‘llab-quvvatlaydigan innovatsion o‘g‘itlash modelini shakllantiradi. Bu esa g‘o‘zaning fiziologik o‘sib-rivojlanish bosqichlariga mos ravishda +oziqa taqsimotini maqbullashtirib, hosildorlik va tola sifati ko‘rsatkichlarida yuqori barqaror natija berishini ta’minlaydi.

Paxta hosiliga ta’sir etuvchi agro tadbirlar.

Yerdan foydalanuvchilar tomonidan parvarishlangan g‘o‘zaga e’tiborsizlik oqibatida o‘tkazilgan agro tadbirlar hosildorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra:

- chigit o‘z vaqtida ekilmaganda – 3-4 s/ga;
- chigit ekishdan oldin yer tekislanmaganda – 1,5-2,0 s/ga;
- kesaklarni maydalamasdan chigit ekilganda – 8-9 s/ga;
- sho‘rlangan tuproqlarni ilmiy asoslangan talab darajasida yuvilmaganda – 9-10 s/ga;
- yerga ishlov berishda nam saqlash uchun boronalash tadbirlari o‘z vaqtida o‘tkazilmaganda – 3-4 s/ga;
- yaganalash ishlari kechiktirib o‘tkazilganda – 2-3 s/ga;
- mineral o‘g‘itlar o‘z vaqtida qo‘llanilmaganda – 10-12 s/ga, umuman qo‘llanilmaganda – 20-25 s/ga;
- begona o‘tlar o‘z vaqtida tozalanmaganda – 3-4 s/ga;
- dala konturlari har uch yilda bir marotaba joriy tekislanmaganda
– 6-8 s/ga;
- kultivatsiya 1-2 kunga kechiktirilganda 1-2 s/ga, 2-3 kunga kechiktirilganda 3-4 s/ga hosil kamayadi.

O‘z vaqtida o‘tkazilgan agrotadbirlar natijasida:

- kuzgi shudgor ishlari o‘z vaqtida o‘tkazilganda – 3-7 s/ga;
- almashlab ekish tizimiga rioya etilganda – 5-8 s/ga;
- mahalliy o‘g‘it (go‘ng) qo‘llanganda – 5-8 s/ga;
- g‘o‘za qator orasiga sifatli ishlov berilganda – 5-7 s/ga;
- sug‘orish ishlari sifatli o‘tkazilganda – 5-15 s/ga;
- chilpish ishlari sifatli o‘tkazilganda – 6-8 s/ga;
- mineral o‘g‘itlar (azotli, fosforli, kaliyli) ilmiy asoslangan me’yor va nisbatlarda qo‘llanganda 8-20 s/ga;
- mikroelementlar qo‘llanilganda 4-5 s/ga hosil oshadi va uning sifati yaxshilanadi.

Xulosa. G‘o‘za parvarishida azot (N), fosfor (P) va kaliy (K) mineral o‘g‘itlarini bir vaqtda va balanslashgan holda qo‘llash ilmiy jihatdan asoslangan va amaliyotda samarali yondashuv hisoblanadi. Bu usul g‘o‘zaning barg va ildiz tizimida fiziologik jarayonlarni maksimal faollashtirish, fotosintez va energiya almashinuvini kuchaytirish hamda, oziqa elementlarining o‘zlashtirilish koeffitsiyentini oshirish imkonini beradi.

Dala tajribalari shuni ko‘rsatdiki, ekish va shonalash fazasida kompleks NPK qo‘llanganda, har bir elementning o‘zlashtirilishi tez va uzluksiz bo‘lib, g‘o‘zaning barcha vegetatsiya fazalarida talab qondirildi. Shu bilan birga, bunday integral o‘g‘itlash tuproq unumdorligini saqlash, resurslarni tejash va ekologik yukni kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida ilmiy asoslangan kompleks NPK qo‘llanishi respublikada birinchi marotaba amaliyotga joriy etilib, g‘o‘zaning o‘sishi va hosildorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu yondashuv ildiz tizimini rivojlantirish, fotosintetik apparatni quvvatlash, generativ organlarni to‘ldirish va tola sifati hamda hosildorlikni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, azot, fosfor va kaliyli mineral o‘g‘itlarni kompleks qo‘llash g‘o‘zaning fiziologik o‘sib-rivojlanishiga mos, resurs samaradorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan zamonaviy va samarali agrotexnik usullardan biri sifatida baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zhu X.-h., Wang Z., Zhang C., Wang Y.-f., Wang X.-y., Yu,H.-b., & Sheng J.-d. (2024). Effects of Combined Applications of Nitrogen, Phosphorus and Potassium Fertilizers on Cotton Nutrient Absorption, Yield and Fertilizer Utilization Efficiency. Chinese Journal of Soil Science, 55(1), 121-129.

2. Chen Y., Li Y., Meng X., & Guan C. (2023). Variation of Nitrogen, Phosphorus, and Potassium Contents in Drip-Irrigated Cotton at Different Yield Levels under Combined Effects of Nitrogen, Phosphorus and Potassium. Agronomy, 14(3).

3. NIE Jun-jun Qin Du-lin, Liu Yan-hui Wang Shuang-lei, Zhang Mei-ling, et al. (2019). Characteristics on Uptake and Distribution of Nitrogen, Phosphorus and Potassium in Different Genotypes of Bt Cotton. Journal of Plant Nutrition and Fertilizers, 25(10), 1690-1701.

4. Journal of Cotton Research (PU Yuanchun, Wang Peilin, Abbas Mubashir, Asif Iqbal, et al.) (2025). Insights from Model Plants to Improve Cotton's Use of Nitrogen and Phosphorus. Journal of Cotton Research, 8, Article 16.

5. Jyothi T.V., & Hebsur N.S. (2018-19). Nutrient Uptake and Soil Fertility Status after Harvest of Bt Cotton as Influenced by Graded Levels of NPK Fertilizers in Alfisol. Journal of Applied and Natural Science.

6. Dev Raj et al. (2007). Influence of Different Nutrient Management on Yield and Nutrient Uptake in Cotton. Krishikosh Agricultural Repository (field nutrient management study).

13. Li, Z. (2024). A review of cotton cultivation techniques for high yield. Cotton Genomics and Genetics, 15(6), 284–293. DOI:10.5376/cgg.2024.15.0027.

7. Honnappa, H. M., Shekara, B. G., Sannagoudar, M. S., Patil, L., & Hamsa, N. (2019). Effect of Nitrogen, Phosphorus and Potassium Levels on Yield and Economics of Interspecific Hybrid Cotton (Gossypium spp.) under Southern Dry Zone of Karnataka. Journal of Experimental Agriculture International, 30(6), 1–8.

8. Insights from model plants to improve cotton's use of nitrogen and phosphorus (2025). Journal of Cotton Research, 8, Article 16.

9. Kong F., Ullah I., Ali S., Li H., Wang J., Khattak W.A., & Zhou Z. (2020). Phosphorus Application Improves the Cotton Yield. Agronomy, 10(2): - P. 153.

10. Zhang Z. (2023). The Estimation of Nitrogen Uptake and Utilization Efficiency in Cotton Notulae Botanicae Horti Agrobotanici Cluj-Napoca.

11. Soil Applied Potassium Combined with Foliar Applicatio. (2025). Journal of Soil Science and Plant Nutrition.

12. Kutlimuratova D.B., Shnibayev T., Uzakbergenova M., Reyimbayeva A., & Imalatdinova U. (2025). The Influence of Non-Traditional Fertilizers on Cotton Productivity. European International Journal, 5(03): - P. 47-49.

14. Zamani et al. (2021) Estimation of Cotton Nutrient Uptake Based on the QUEFTS Model in Xinjiang (2021). Agronomy, 12(6), 1427.

УДК 631.4

ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И НАКОПЛЕНИЯ МИКРОЭЛЕМЕНТОВ В АРИДНЫХ УСЛОВИЯХ

Манжикова Амуланга Витальевна*,
аспирант
e-mail: manzhikova01@mail.ru
Сохорова Зинаида Валекриевна*,
ассистент,
e-mail:gorashkieva@mail.ru
Бамбеева Радмила Николаевна*,
ассистент
e-mail: bambeevaradmila@mail.ru
Сангаджиева Людмила Халгаевна*,
д.б.н., профессор
e-mail: chalga_ls@mail.ru
Тюлюмджиева Ольга Станиславовна*,
к.б.н., доцент
email: dzholi@mail.ru
Фадеева Инга Юрьевна*,
аспирант
e-mail: mandzhieva@mail.ru
Курвантаев Рахмон**,
д.с-х.н.,профессор,
e-mail:kurvjntoev

**Калмыцкий государственный университет им. Б.Б. Городовикова, Россия*
***Институт почвоведения и агрохимических исследований, Узбекистан*

Аннотация. Проведено выяснение микроэлементной ситуации по молибдену, бору и фтору в почвах Республики Калмыкия на территории Ергенинской возвышенности, изучены закономерности распределения и поведения химических соединений в основных компонентах ландшафта: подстилающие породы – почва. Выявлены закономерности распределения микроэлементов в почвах, названы факторы, особенно сильно влияющие на это распределение, предложен более строгий подход к биогеохимическому районированию почвенного покрова. Установлено, что имеются экстремальные территории и почвы, где из-за недостатка или избытка микроэлементов происходят нарушения в пищевой цепи. Эти исследования позволяют оценить биологический круговорот элементов и дать оценку направленности биогеохимического процесса преобразования атомов в биосфере. Почвообразующие породы изучаемой территории Калмыкии обеднены всеми элементами за исключением бора и молибдена. Рассчитанные кларки концентрации микроэлементов свидетельствуют о рассеянии фтора в породах относительно литосферы Кк=0,3. Относительно литосферы в покровных лессовидных суглинках и глинах концентрируются молибден и бор(Кк 1,4-7,0.

Ключевые слова: водносолевой состав, Ергенинская возвышенность, биогеохимия микроэлементов, светлокаштановые почвы.

Annotatsiya. Yerg‘in tepaligi hududidagi Qalmog‘iston Respublikasi tuproqlarida molibden, bo‘r va ftor bo‘yicha mikroelementli vaziyat aniqlandi, landshaftning asosiy tarkibiy qismlarida kimyoviy birikmalarning tarqalishi va xatti – harakatlarining qonuniyatlari o‘rganildi: yer osti jinslari tuproq. Tuproqlarda iz elementlarning tarqalish naqshlari aniqlandi, ushbu

taqsimotga ayniqsa, kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillar nomlandi, tuproq qoplamini biogeokimyoviy rayonlashtirishga yanada qat'iy yondashuv taklif qilindi. Mikroelementlarning yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi tufayli oziq-ovqat zanjirida buzilishlar yuzaga keladigan ekstremal hududlar va tuproqlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotlar elementlarning biologik aylanishini baholashga va biosferadagi atomlarni konvertatsiya qilishning biogeokimyoviy jarayonining yo'nalishini baholashga imkon beradi. Qalmog'iston hududining tuproq hosil qiluvchi jinslari bor va molibdendan tashqari barcha elementlar bilan qashshoqlashadi. Hisoblangan Klarklar iz elementlari kontsentratsiyasi ftoridning tarqalishini ko'rsatadi

Kalit so'zlar: suv tuzining tarkibi, Yerg'in tepaligi, mikroelementlarning biogeokimyosi, yorqin kashtanli tuproqlar.

Annotation. The article examines the trace element situation of molybdenum, boron, and fluorine in the soils of the Kalmyk Republic in the Ergeny Upland, and studies the patterns of distribution and behavior of chemical compounds in the main components of the landscape: underlying rocks and soil. The article identifies the patterns of distribution of trace elements in soils, identifies the factors that have a significant impact on this distribution, and proposes a more rigorous approach to biogeochemical zoning of the soil cover. It has been established that there are extreme territories and soils where the food chain is disrupted due to a lack or excess of trace elements. These studies allow us to assess the biological cycle of elements and evaluate the direction of the biogeochemical process of atom transformation in the biosphere. The soil-forming rocks of the studied territory in Kalmykia are depleted in all elements except boron and molybdenum. The calculated clark concentrations of trace elements indicate the distribution of these elements.

Key words: water-salt composition, Ergeny Upland, biogeochemistry of trace elements, light chestnut soils.

Введение. Изучение закономерностей биогенной миграции микроэлементов является основой прогнозирования устойчивости аридных экосистем и позволяет свести к минимуму негативные последствия при использовании природных ресурсов. Оптимизация биоценозов достигается, прежде всего, сбалансированным поступлением химических элементов в живые организмы. Это может быть реализовано путем изучения ландшафтов на биогеохимическом уровне, проведением исследований сходства и различий в соединении микроэлементов между компонентами ландшафтов с учетом пространственного распределения путем картографирования и районирования.

Степень изученности микроэлементов в составе почв в РФ различна. На биогеохимических картах России Калмыкия является белым пятном [4]. Имеются сведения о подвижных и валовых формах молибдена и бора в монографии Сангаджиевой [2, 11, 13], о содержании фтора сведения фрагментарны. Получены некоторые сведения о содержании молибдена, бора и фтора в растениях средней полосы, юга России (Краснодарский край), техногенно загрязненных территориях (Ростовская область) [3,4]. До настоящего момента до конца не выявлен механизм круговорота химических элементов и их миграции в системе почва – растения - воды.

Цель исследования – изучить биогеохимическую ситуацию в двух районах Республики Калмыкия и выявить особенности биогенной миграции микроэлементов - молибдена, бора и фтора в основных компонентах наземных экосистем: почвы – растения. Для достижения цели были поставлены следующие задачи: - изучить биогеохимические характеристики почвы и растительности на примере естественных и искусственных экосистем; - дать сравнительную ,характеристику распределения микроэлементов в зависимости от химизма и типа почв; установить корреляционные зависимости микроэлементов в почвах.

Объект исследования. Рельеф территории Калмыкии в основном представляет собой равнину, которая в западной части нарушается Ергенями. Ергени – от калмыцкого слова «эрг», что означает берег, т.е. поднятие. Ергени – это небольшое платообразное поднятие, являющееся продолжением Приволжской возвышенности. Восточный крутой склон Ергеней расчленен балками и долинами мелких степных речек на параллельно вытянутые хамуры (бугры) [2, 11, 13].

qolaversa, almashlab ekishda ham qoniqarsiz ekanligi isbotlangan. Kaliyni azotga bo‘lgan bunday (1:0,5) nisbati uning muvozanatini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun tuproq unumdorligini yaxshilash, paxtadan yuqori va sifatli hosil olishda kaliyni me’yorlarini tuproqdagi miqdoriga bog‘liq holda, tabaqalangan holda qo‘llash kerakligi ta’kidlangan [3].

Tuproq tarkibida kaliyni miqdorini maqbul darajada saqlashning muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda, o‘g‘itni to‘liq qo‘llashni ekinlardagi foydali xususiyatlari to‘g‘risida keyingi yillarda ham tadqiqotchilar tomonidan ko‘pgina fikrlar bildirilgan [4-8].

Tadqiqot uslublari. Bizning tadqiqotlarda sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy o‘g‘itini yillik me’yorlari 100 kg/ga va zahira holda 3 yilda 1 marta 300 kg/ga me’yorda qo‘llanilgan va bu me’yorlarni maqbul qo‘llash muddatlarining kaliy muvozanatiga ta’siri o‘rganilgan.

Tajribalarni boshlashdan oldin sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqning agrokimyoviy xususiyatlari aniqlangan bo‘lib, haydov (0-30 sm) va haydov ostki (30-50 sm) qatlamlarida gumus miqdorlari mutanosib ravishda 0,871-0,775%, yalpi azot 0,078-0,070%; umumiy fosfor 0,137-0,120%; umumiy kaliy 1,870-1,200%, N-NO3–18,6-5,2 mg/kg; P2O5–33,2-19,4 mg/kg va K2O–280-160 mg/kg ni tashkil etgan.

Dala tajribalari “Dala tajribalarini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalari” [9] asosida olib borilgan. Bunda tajriba 12 variantdan iborat bo‘lib, 3 takrorlanishda o‘tkazilgan. Delyankalar maydoni 4,8 x 30 m = 144 m2, hisoblisi-72 m2, umumiy maydoni 5184 m2 ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalari. Tajribaning nazorat variantida 3 yilda N-600, P2O5 -420 kg/ga me’yorlarda qo‘llanilgan bo‘lib, jami 123,9 s/ga paxta hosili olindi, g‘o‘zani vegetativ va generativ qismlari o‘zlashtirgan kaliy miqdori 573,0 kg/ga ni tashkil qildi. Demak, kaliy qo‘llanilmagan variantda 3 yil davomida o‘simliklar tuproq tarkibidagi kaliydan 573,0 kg/ga o‘zlashtirganligi aniqlandi. Kaliyning yillik me’yori (100 kg/ga) N-200, P2O5 -140 kg/ga fonida bir xil qilib belgilangan 2-12 variantlarda uch yilda N-600, P2O5 -420 va K2O-300 kg/ga miqdorlarda qo‘llanildi (jadval).

Mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy o‘g‘iti (50 kg/ga kuzgi shudgor va 50 kg/ga shonalashda) qo‘llanilgan variantda 3 yilda g‘o‘zaning kaliyni xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirish me’yorlari 710,9 kg/ga ni tashkil qilib, qo‘llanilgan kaliyli o‘g‘itlar hisobiga o‘simliklar shu jumladan 137,9 kg/ga kaliyni sarflagani aniqlandi. Ushbu variantda kaliyni umumiy muvozanati qoniqarsiz bo‘lib, -410,9 kg/ga ni tashkil qilgan holda 3 yilda nisbatan yuqori paxta hosili 137,4 s/ga ni tashkil etib, qo‘shimchasi nazoratga nisbatan 13,5 s/gani (4,5 s/ga) tashkil etdi. Yana shuni aytish kerakki, tajribada umumiy o‘zlashtirish bo‘yicha olingan ma’lumotlar “o‘g‘it – tuproq – o‘simlik” tizimidagi o‘zaro bog‘lanishni to‘la ochib bermaydi.

Qo‘llanilgan kaliyli o‘g‘itlarni samaradorligini baholashda eng muhim ko‘rsatkich bu samarali o‘zlashtirishi bo‘lib hisoblanadi. Bunda qo‘llanilgan o‘g‘itni samaradorligi ko‘rinadi [10]. Tajribaning 2 va 3-variantlarida kaliyni samarali o‘zlashtirilishi -432,3 va -435,1 kg/ga ni tashkil qilgan va o‘g‘it hisobiga o‘simlik tomonidan kaliyni tuproqdan o‘zlashtirishi nazoratga nisbatan 140,7 va 137,9 kg/ga kamayganligi aniqlandi (jadval).

Mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy o‘g‘iti turli muddatlarda (ekish oldidan va shonalashda, 2-3 chin bargda va shonalashda, shonalash va gullashda) ikki martadan 50 kg/ga me’yorlarda qo‘llanilgan 3–6 variantlarda kaliyni umumiy muvozanatlari mutanosib ravishda -409,5; -408,9 va -405,5 kg/ga, samaralisi esa -436,5; -437,1 va -440,5 kg/ga tashkil qilib, o‘g‘it hisobiga tuproqdagi kaliy 136,5; 135,9 va 132,6 kg/ga nazoratga nisbatan kamroq o‘zlashtirilganligi kuzatildi. Bu ko‘rsatkichlarni oxirgilari mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy maqbul muddatda qo‘llanilgan

3-variantga nisbatan 1,4; 2,0 va 5,3 kg/ga kamroqdir.

Mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy o‘g‘iti yillik me’yorlari bir martadan kuzgi shudgorda, chigit ekishdan oldin, g‘o‘zani 2-3 chin barg fazasida, shonalashda yoki gullashda qo‘llanilgan 7-11 variantlarda kaliyni samarali muvozanati mutanosib ravishda -436,6; -438,9; -437,0 va -441,4 kg/ga ni tashkil qilib, tuproqdagi kaliy o‘simlik tomonidan uch yil davomida 136,4; 134,1; 134,4; 135,9 va 131,9 kg/ga miqdorda nazoratga nisbatan kamroq o‘zlashtirganligi hisoblangan. Bu ko‘rsatkichlar kaliy o‘g‘iti boshqa muddatlarda ikki martadan qo‘llanilgan variantga deyarli yaqin, ammo kaliyni maqbul muddatlarda (50 kg/ga kuzgi shudgorda va 50 kg/ga shonalashda) qo‘llanilgan uchinchi variantga nisbatan mutanosib ravishda 1,5; 3,8; 3,5; 2,0 va 6,0 kg/ga kamdir.

Mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy o‘g‘iti zahira holda, resurs tejovchi agrotexnologiya sifatida uch yillik me’yori (300 kg/ga) bir yo‘la qo‘llanilgan 12-variantda kaliyni umumiy muvozanati -407,9 kg/ga ni, samaralisi esa -438,1 kg/ga ni tashkil qildi va o‘simliklar tuproqdan uch yil davomida 134,9 kg/ga kaliyni kamroq o‘zlashtirganligi aniqlandi. Bu holat kaliy o‘g‘itini o‘simliklar tuproqdagi miqdorlaridan ham, zahira holda ishlatilganda ham har yili maqbul muddatlarda qo‘llanilganidan yaxshi o‘zlashtirishini yana bir bora ko‘rsatadi.

Kaliy qo‘llanilmagan variantda uch yil davomida g‘o‘za o‘simligi vegetativ va generativ qismlari orqali tuproqdagi kaliyni 573,0 kg/ga miqdorda o‘zlashtirishi va paxta hosili 123,4 s/ga ni tashkil etishi esa, eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda ularni almashinuvchi kaliy bilan o‘rtacha darajada ta’minlanganligiga qaramay, albatta kaliyli o‘g‘itlarni qo‘llash kerakligini ko‘rsatadi.

Paxta hosili ma’lumotlarini tadqiqot yillari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, kaliyli o‘g‘it qo‘llanilmagan nazorat variantida paxta hosili mutanosib ravishda 32,5; 42,8 va 48,8 s/ga ni tashkil qilgan holda o‘rtachasi 41,3 s/ga teng bo‘ldi. Mazkur variantda o‘simliklar kaliyni tuproqdagi zaxiralaridan o‘zlashtirgan va ular yildan-yilga kamaygan. Agar bu jarayon yana 4-5 yil davom etsa, tuproqdagi almashinuvchi kaliy o‘rtacha darajada ta’minlangan holatdan kam ta’minlanganga o‘tadi.

Nafaqat nazorat variantida, balki qolgan barcha tajriba variantlarida ham kaliy qo‘llanilishiga (100 kg/ga) qaramasdan tuproqdagi almashinuvchi kaliyning kamayganligi isbotlangan. Bu esa g‘o‘za o‘simligi kaliyni avvalo tuproqdagi zahiralaridan, qolaversa azotga yaqin ba’zan esa ko‘proq miqdorda o‘zlashtirishidan dalolat beradi. Shu sababli g‘o‘za yetishtirishda kaliyni qo‘llash albatta zarurdir.

Kaliy o‘g‘itlarining Rossiyadan keltirilgan va mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan turlarida kuzgi shudgorda (50 kg/ga) va g‘o‘zani shonalash davrida (50 kg/ga) qo‘llanilgan 2 va 3-variantlarda tadqiqot yillariga mutanosib ravishda paxta hosili 36,7–36,2; 47,6–46,7 va 54,2–54,7 s/ga, 3 yilda o‘rtachalari esa 45,9–45,8 s/ga ni tashkil qildi. Bu ko‘satkichlar nazoratdan yillar bo‘yicha 4,2 – 3,7; 4,2 – 3,9 va 5,4 – 5,9 s/ga hamda o‘rtacha 3 yilda 4,6 – 4,5 s/ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi (rasm). Bu ma’lumotlarga ahamiyat berilsa, nafaqat o‘rtacha paxta hosili, qolaversa kaliyli o‘g‘itlar ta’sirida olingan qo‘shimcha hosil ham ortib bordi. Bu yilning iqlim sharoitlariga bevosita ham bog‘liqdir.

Mahalliy kaliy o‘g‘iti bilan Rossiyada ishlab chiqarilgan shakllarining g‘o‘zadagi samaradorligi bir xil ekanligi aniqlandi. Biz uchun eng muhim bo‘lgan ko‘rsatkich esa bu ikkala kaliyli o‘g‘it turlarining paxta hosiliga ta’siri bir xil bo‘lganligi alohida ahamiyatga egadir.


Biz uchun muhim masalalardan biri – mahalliy kaliyni g‘o‘zada qaysi muddatlarda qo‘llash samarali ekanligini aniqlash edi. Kaliy 50 kg/ga me’yori chigit ekishdan oldin va 50 kg/ga g‘o‘zani shonalash davrida qo‘llanilganda 42,8 s/

ga ni va 1,5 s/ga qo‘shimcha paxta hosili olindi. Lekin olingan qo‘shimcha paxta hosili kaliy tavsiyalar asosida qo‘llanilgan 3-variantga nisbatan 3,0 s/ga kamroq bo‘ldiki, bu kaliyni samaradorligiga, ayniqsa ekishdan oldin qo‘llashni ta’siri kamroq bo‘lganligidan dalolat beradi. Kaliy o‘g‘iti 50 kg/ga me’yorda g‘o‘zani 2-3 chin barg va 50 kg/ga shonalash davrlarida qo‘llanilganda olingan qo‘shimcha paxta hosillari maqbul muddatnikidan 2,3 s/ga kamroq bo‘lsa, 50 kg/ga shonalashda va 50 kg/ga gullashda qo‘llanilganda esa 3,0 s/ga kamroq bo‘lganligi aniqlandi.

Mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliy o‘g‘itini sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida turli me’yor va muddatlarda qo‘llashning g‘o‘zadagi muvozanati

Variant tartibi	Kaliyni qo‘llash muddatlari, kg/ga					3 yilda umumiy paxta hosili, s/ga	3 yilda qo‘llanilgan o‘g‘it miqdorlari, kg/ga			3 yilda xo‘jalik o‘zlashtirishi, kg/ga	Qo‘shimcha paxta hosili uchun sarfi, kg/ga	Muvozanati, kg/ga	
	Shud-gorda	Ekish oldidan	2-3 chin barg-da	Shona-lashda	Gul-lashda		N	P_2O_5	K_2O			Umu-miy	Samarali
1	-	-	-	-	-	123,9	600	420	-	573,0	-	-573,0	-
2	50	-	-	50	-	137,7	600	420	300	713,7	140,7	-413,7	-432,3
3	50	-	-	50	-	137,4	600	420	300	710,9	137,9	-410,9	-435,1
4	-	50	-	50	-	128,4	600	420	300	709,5	136,5	-409,5	-436,5
5	-	-	50	50	-	130,5	600	420	300	708,9	135,9	-408,9	-437,1
6	-	-	-	50	50	128,4	600	420	300	705,6	132,6	-405,5	-440,4
7	100	-	-	-	-	131,4	600	420	300	709,4	136,4	-409,4	-436,6
8	-	100	-	-	-	129,3	600	420	300	707,1	134,1	-407,1	-438,9
9	-	-	100	-	-	131,4	600	420	300	707,4	134,4	-407,4	-438,6
10	-	-	-	100	-	133,8	600	420	300	708,9	135,9	-408,9	-437,1
11	-	-	-	-	100	127,8	600	420	300	704,9	131,9	-404,9	-441,4
12	300	-	-	-	-	136,5	600	420	300	707,9	134,9	-407,9	-438,1

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.



HCR_{05}	0,88	0,88	1,56	s/ga
HCR_{05}	1,7	1,7	2,2	%

1-rasm. Mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan kaliyli o‘g‘itni qo‘llash muddatlariga bog‘liq holda paxta hosiliga ta’siri, s/ga

Ta’kidlab o‘tamizki, kaliyni yillik me’yorlari (100 kg/ga) bir yo‘la turli muddatlarda qo‘llanilganda ham yuqoridagilarga yaqin ma’lumotlar olindi. Nisbatan yuqori qo‘shimcha paxta hosili (2,5 s/ga) kaliy o‘g‘iti kuzgi shudgorda qo‘lllanilganda va undan ham yaxshirog‘i (3,3 s/ga) g‘o‘zani shonalash davrida qo‘llanilganda yaxshi natijaga erishildi. Tajribada nisbatan kamroq qo‘shimchalar kaliy o‘g‘iti g‘o‘zani gullash (100 kg/ga) davrida va 1,3 s/ga ni tashkil qilgan holda, shonalashda qo‘llanilganga nisbatan 2,0 s/ga kamroq bo‘lganligi aniqlandi.

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida kaliyli o‘g‘itni 3 yillik me’yori bir yo‘la zahira holda resurs tejovchi texnologiya sifatida qo‘llanilganda uch yilda o‘rtacha 4,2 s/ga qo‘shimcha paxta hosili olingan.

Xulosa. Yildan-yilga kaliy o‘g‘itlari qo‘llanilmagan dalalarda kaliyni tuproqdagi zahiralarining kamaya borishi natijasida g‘o‘za o‘simligini turli zarakunandalar, shu jumladan vilt zamburug‘iga chidamliligi kamayib borishi va paxta hosili sifatining pasayishi, chigit tarkibidagi moy miqdorining kamayishi ham kuzatilmoqda. Eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida nisbatan yuqori paxta hosili kaliyni 2 marta: 50 kg/ga kuzgi shudgorda va 50 kg/ga g‘o‘zani shonalash davrida qo‘llanilganda olinib, Rossiyadan keltirilgan turiga teng ekanligi kuzatilgan. Kaliyli o‘g‘itni zahira holda (300 kg/ga) resurs tejovchi texnologiya sifatida qo‘llash mumkinligi va uni paxta hosiliga maqbul ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Насиров Т.С. Эффективность различных норм калийных удобрений на хлопчатнике в зависимости от уровня азотного и фосфорного питания в условиях орошаемых типичных сероземов. Дисс. канд. с-х. наук. – Ташкент, 1994, 135 с.

2. Вильгусевич И.П. Вымываемость калия из дерново-подзолистых и торфяно-болотных почв в условиях климата БССР. Сб. Научных трудов Института сельского хозяйства АН БССР, вып. 4, 1956. С. 66-68.

3. Vays T. Almashlab ekishda o‘g‘itlarni doimiy qo‘llashning tipik bo‘z tuproqdagi kaliy

miqdori va uning sarflanishga ta’siri. //G‘o‘za va yo‘ldosh ekinlarini o‘g‘itlash hamda, tuproq unumdorligi. – Tashkent, 1992. S. 20-22.

4. Nazarov R, Ablayeva D. Биологические особенности калийного питания хлопчатника. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali ilmiy ilovasi “AGRO ILM” №3(31), 2014, B. 5-6.

5. Niyazaliyev B.I. Tuproq tarkibida almashinuvchi kaliy miqdoriga mahalliy kaliy o‘g‘itini ta’siri. Tuproq unumdorligi va qishloq ho‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy – amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. – Toshkent – 2014 16-17-dekabr. B. 152-154.

6. Ernazarov I. Tuproqdagi almashinuvchi kaliy ekinlar oziqlanishi uchun yetarlimi? O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali №1, 2015, B.27-28.

7. Mirzayev F. Kaliyning karomati. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali №4, 2017, B.20.

8. Jumayev Sh. O‘tloqi-bo‘z tuproqlarda kaliyli o‘g‘it me’yorlarining paxta hosili va tola sifatiga ta’siri. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali ilmiy ilovasi “AGRO ILM” №4(28), 2013, B. 17-18.

9. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. – Toshkent, 2007. 148 b.

10. Шишов Л. Л., Кораблева Л. И., Ефремов В. В., Губанкова И. А. Рациональный круговорот и баланс питательных веществ в интенсивном земледелии. // Агрохимия. 1987, № 2. С. 28-35.

UDK:631.423.5

OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQLARINING SUVDA ERIYDIGAN TUZLAR TARKIBI

Olimjonov Shuhratjon Solihjon o‘g‘li,
k.f.f.d. (PhD) katta ilmiy xodim,
e-mail: guzal.amanova.87@mail.ru

Amanova Guzal Ikromovna,
b.f.f.d. (PhD) kichik ilmiy xodim
e-mail: guzal.amanova.87@mail.ru

Ishimov Uchkun Jomuradovich,
k.f.n., (PhD) katta ilmiy xodim,
e-mail: uchkunishimov@gmail.com

Xalbekova Xulkar Ummatkulovna,
b.f.n., (PhD) katta ilmiy xodim
e-mail: xalbekova.xulkar@mail.ru

Kosimov Isroil Odinayevich,
t.f.n., katta ilmiy xodim
e-mail: isroilkosimov@list.ru

Ziyavitdinov Jamolitdin Fazlitdinovich,
k.f.d., professor
e-mail: Jamolitdin@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Bioorganik kimyo instituti

Annotatsiya. Ilk bor Janubiy Orolqum tuproq namunalaridan suvda eriydigan tuzlar ajratib olindi va ularning kimyoviy tarkibi kukunli rentgen diffraktometri yordamida aniqlandi. Natijada, o‘rganilgan 10 ta hudud tuproqlaridan ajratilgan tuzlarning asosiy qismini xlorid, sulfat va karbonatlar tashkil qilib, tuzlarning chiqish unumi T-01 da 4,41%, T-02 da 5,19%, T-03 da

10,2%, T-04 da 16,9%, T-05 da 6,44%, T-06 da 10,52%, T-07 da 2,07%, T-011 da 3,56%, T-013 da 17,1%, va T-014 da 3,9% ni tashkil qilishi aniqlandi.
Kalit so‘zlar: Janubiy Orolqum, tuproq, suvda eriydigan tuzlar, xlorid, sulfat, karbonat.

Аннотация. Впервые из образцов почвы Южного Аралкума были выделены водорастворимые соли, и их химический состав был определен с помощью порошкового рентгеновского дифрактометра. В результате было установлено, что основная часть солей, выделенных из почв 10 исследованных районов, состоит из хлоридов, сульфатов и карбонатов. Выход солей составил 4,41% в T-01, 5,19% в T-02, 10,2% в T-03, 16,9% в T-04, 6,44% в T-05, 10,52% в T-06, 2,07% в T-07, 3,56% в T-011, 17,1% в T-013 и 3,9% в T-014.
Ключевые слова: Южный Аралкум, почва, водорастворимые соли, хлориды, сульфаты, карбонаты.

Annotation. For the first time, water-soluble salts were extracted from soil samples of the South Aralkum region, and their chemical composition was determined using powder X-ray diffractometry. The results showed that the main components of the salt extracted from the soils of the 10 investigated areas were chlorides, sulfates, and carbonates. The salt yields were found to be 4.41% in T-01, 5.19% in T-02, 10.2% in T-03, 16.9% in T-04, 6.44% in T-05, 10.52% in T-06, 2.07% in T-07, 3.56% in T-011, 17.1% in T-013, and 3.9% in T-014.
Key words: South Aralkum, soil, water-soluble salts, chlorides, sulfates, carbonates.

Kirish. Tuproq sho‘rlanishi so‘nggi 10 yillikning jiddiy muammolaridan biri bo‘lib, u yerlarning degradatsiyasiga olib kelmoqda. Butun dunyoda olib borilgan so‘nggi ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra sho‘rlangan tuproqlar yer yuzasining qariyb 1 mlrd. ga maydonini egallaydi va bu yerlar asosan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarga to‘g‘ri keladi [1-3].

Tuproq sho‘rlanishi qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirishni keskin cheklab, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, dunyo bo‘yicha 1,5 milliarddan ortiq aholi oziq-ovqat ekinlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch kelmoqda [4-5].

Shu boisdan, qurg‘oqchil hududlarda tuproq sho‘rlanishini aniqlash uni baholashning samarali ko‘rsatkichi hisoblanadi [6-7]. Aynan bir hudud tuproqlarining sho‘rlanish dinamikasini to‘g‘ri va samarali monitoringini olib borish qurg‘oqchil hududlarda yerni barqaror boshqarish uchun juda muhimdir. Orol dengizi sathining pasayishi va katta maydonlarning suvsizlanishi dengiz suvida erigan tuzlarning tuproqda to‘planib qolishiga olib keldi. Mazkur hududda hosil bo‘lgan tuzli tuproqlar tuz-chang bo‘ronlar manbaiga aylandi va bo‘ronlar natijasida ushbu tuzlar Sibir tekisliklaridan Eron yassi tog‘larigacha yetib bordi [8-10]. Bundan tashqari, Orol dengizining qurishi atrof muhitga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatishi (havoning ifloslanishi, yerlar degradatsiyasi va o‘simliklar xilma xilligi) [11-12] natijasida mazkur hudud aholisi salomatligini ham chetlab o‘tmadi. Xususan, nafas yo‘li, turli onkologik kasalliklar va reproduktivlik muammolarning ko‘payishiga olib keldi [13-15].

Suvdan bo‘shagan dengiz tubining sho‘rlanish darajasini aniqlash ekologik muammolarni hal etishdagi birinchi va asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tuproq sho‘rlanishining global taqsimlanishini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar [3-4, 16-17] hamda, sho‘rlanishga uchragan qurg‘oqchil tizimlarni va tuproq sho‘rlanishini aniqlash, bu jarayonlarning yillar mobaynida o‘zgarib borishini monitoring qilishga yordam beradi [18].

Orol dengizining qurigan tubida bunday tadqiqotlar olimlar tomonidan yetarlicha olib borilmagan. Janubiy Orol dengizining shimoli-sharqiy qismida dengizning qurigan tubi tuproqlaridan namunalar olinib tahlil qilingan [19] va mazkur hudud sho‘rlanish indekslarining taqsimlanishi aniqlangan [20]. Biroq, ushbu ishlarda vaqt oralig‘i, regional taqsimlanish va aniqlik cheklanganligi kuzatiladi.

Shunday qilib, Orol dengizi suvining chekingan hududlaridagi ekologik sharoitni tiklashning ilk bosqichlaridan biri tuproq sho‘rlanishi tarqalishini doimiy tahlil qilib borishdir. Olingan natijalar asosida tuproqning sho‘rlanish darajasi va muhitiga mos keluvchi o‘simliklarni tanlash hamda ularni ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi. Janubiy Orolqum (sho‘rlanish darajasi turlicha bo‘lgan hududlar) tuproqlaridan suvda eriydigan tuzlarni ajratish va ularning kimyoviy tarkibini kukunli rentgen diffraktometri yordamida aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqot obyekti sifatida Janubiy Orolqum (sho‘rlanish darajasi turlicha bo‘lgan hududlardan olingan) tuproq namunalaridan foydalanildi. Tuproqlardan suvda eriydigan tuzlar suv bilan ekstraksiyalash yo‘li bilan ajratib olindi va quritildi. Tuzlarga taalluqli ravishda T-01 dan T-014 gacha shifrlar bilan belgilandi. O‘rganilgan tadqiqot hududi, koordinatalari va tuproqdan ajratilgan tuzlarning chiqish unumi – ya’ni tuproqdagi miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

Ajratib olingan tuzlar oq rangli kukunsimon modda bo‘lib, hidsiz, dengiz suvining xarakterli mazasiga ega. Suyuqlanish harorati 6700C - 8000C ni tashkil qilib, oxak qoldig‘i qolishi bilan xarakterladi.

1-jadval

Janubiy Orolqum hududi koordinatalari va tuproqdan ajratib olingan tuzlarning chiqish unumi

Tuproq yig’ilgan hudud shifri	Geografik koordinatalari	Tuzlarning chiqish unumi (%)
T-01	N 44°02'39.56" E 58°40'26.36"	2,20
T-02	N 44°15'5.28" E 58°19'48.41"	0,86
T-03	N 44°12'34.16" E 58°27'43.13"	1,70
T-04	N 44°01'2.29" E 58°42'59.97",	2,82
T-05	N 44°14'27.66" E 58°21'28.44"	3,22
T-06	N 44°10'34.25" E 58°29'46.47"	5,26
T-07	N 43°53'721660', E 58°48'034980"	2,07
T-011	N 44°08'18,6731",E58°52'17,2930"	3,56
T-013	N 44° 7'36.84" E 58°50'39.25"	3,10
T-014	N 44°50'17717, E 58,2317257"	1,95

Tuproq namunalaridagi suvda eriydigan tuzlar tarkibini aniqlash. Tuproq namunalaridan suvda eriydigan tuzlarni ajratib olish uchun, aniq og‘irlikdagi tuproq namunalari distillangan suv yordamida, muntazam aralashtirilgan holda, 3 marotaba xona haroratida ekstraksiyalandi. So‘ngra namunalar qog‘oz filtr yordamida filtrlanib, liofill holda quritildi. Olingan tuzlarning miqdori elektron tarozilarda tortish orqali aniqlandi va tuproqning quruq vazniga nisbatan foizlarda ifodalandi. Olingan tuzlarning kimyoviy tarkibi kukunli rentgen diffraktometri yordamida quyidagi sharoitlarda aniqlandi.

Namunalarni identifikatsiyalash XRD-6100 qurilmisining (Shimadzu, Yaponiya) kompter dasturi yordamida qayd etilgan diffraktogrammasi asosida amalga oshirildi. Cu-Kα-nurlanishidan (β-filtr, Ni, λ=1.54178 E, tok rejimi va trubka kuchlanishi 30 mA, 40 kV) va 0,05 gradus qadam bilan 4 gradus/min tezlikda doimiy aylanishda va skanerlash burchagi 10 dan 800 gacha o‘zgartirilgan holda spektrlar olindi. Bunda rentgen nurining quvvati 2 kVt ni tashkil qildi. Natijalar ma’lumotlar bazasi yordamida tahlil qilindi. Cu-Kα-nurlarining kirib borish chuqurligi yengil elementlar uchun taxminan 1 mm (980 mkm), og‘ir elementlar uchun esa bir necha mikronni tashkil qildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Ajratib olingan tuzlarning kimyoviy tarkibi identifikatsiyalash XRD-

6100 qurilmasida (Shimadzu, Yaponiya) kukunli rentgen diffraktometri yordamida aniqlandi. Rentgen nurlari yordamida olingan kukunli difraktogramma ma'lumotlaridan strukturalarni aniqlashda Ritvelda [21-22] usulidan foydalanildi.

Usulning mohiyati reflekslar intensivligi integrallarini qo'llash o'rniga difraktogrammaning har bir nuqtasidagi intensivlik o'zgarishini analitik funksiyalarni qo'llagan holda chiziqlar profilini tavsiflashdan iborat bo'lib bunda funksiya parametrlari, jumladan, strukturaviy, instrumental va boshqa parametrlar chiziqli bo'lmagan eng kichik kvadratlar usuli yordamida aniqlashtiriladi. Ushbu usul yordamida tekisliklararo masofa dhkl va Millera indeksini (hkl) aniqladik. "Search and Match" dasturi [23] yordamida aniqlangan tuzlarning tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Janubiy Orolqum tuproqlaridan ajratilgan suvda eruvchan tuzlar tarkibi

Tuzning nomi va formulasi	Miqdor (%)									
	T-01	T-02	T-03	T-04	T-05	T-06	T-07	T-011	T-013	T-014
Natriy xlorid-NaCl	23,4	35,3	25,0	34,5	37,2	18,3	11,6	52,1	14,0	47,0
Kalsiy nitrat digidrat-$Ca(NO_3)_2(H_2O)_2$	1,4	33,3	52,8	38,0	3,3	14,1	66,1	15,2	50,7	7,9
Kalsiy karbonat (aragonit)-$CaCO_3$	-	2,0	7,2	0,4	1,4	11,0	14,8	13,9	16,5	1,8
Kalsiy sulfat digidrat (gipss)-$CaSO_4 \cdot 2H_2O$	11,0	5,9	1,5	2,7	2,8	56,6	-	10,7	2,2	9,7
Polialyumin xlorid sulfat-$Al_a(OH)_bCl_c(SO_4)_d$,	42,8	10,8	-	-	-	-	1,2	6,0	-	1,1
Kaliy xlorid-KCl	18,2	0,2	2,2	24,4	25,8	-	5,6	-	11,6	32,4
Qo'rg'oshin sulfat-$PbSO_4$	-	3,0	0,3	0,2	-	-	-	-	0,6	3,2
Kadmiy sulfat mono gidrati-$CdSO_4 * H_2O$	0,5	-	1,1	-	-	-	-	9,7	-	-
Ammoniy kadmiy xlorid- NH_4CdCl_3	0,3	4,3	-	0,5	-	-	3,7	-	4,6	3,9
Identifikasiyalanmadi	4,2	1,5	11,2	13,5	5,0	4,6	1,8	8,3	4,6	2,0

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Janubiy Orolqum tuproqlaridan ajratilgan tuzlarning tarkibi turlicha bo'lib, T-01 tuzlari tarkibini asosan Ala(OH)bClc(SO4)d,– 42,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, T-03, T-04, T-05, T-06 va T-013 namunalarida aniqlanmadi. Yuqori tuz konsentratsiyasi o'simliklarda osmotik stressni keltirib chiqaradi, ya'ni o'simlik ildizlarining suv va ozuqa moddalarni o'zlashtirishini qiyinlashtiradi. Bu esa o'simlikning suv tanqisligiga uchrashiga, hujayralardagi ion balansining buzilishiga va metabolik jarayonlarning izdan chiqishiga olib keladi. Natijada, o'simlikning o'sishi sekinlashib, fotosintez samaradorligi pasayadi va hosildorlik keskin kamayadi. Ayniqsa, natriy ionlarining yuqori miqdori ion toksikligiga olib kelib, fermentlar faoliyatini pasaytiradi va hujayra strukturalarini shikastlaydi. O'rganilgan T-02, T-04 va T-05 tuproqlaridan ajratib olingan tuzlari tarkibidagi NaCl ning miqdori mos ravishda 34,5-37,2 % ni tashkil etib, ushbu

natijalar boshqa tuzlarga nisbatan bir-biriga yaqin ekanligi ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, T-7 hudud tuprog‘idan ajratilgan suvda eriydigan tuzlar tarkibini asosan Ca(NO3)2(H2O)2 – 66,1%, CaCO3 – 14,8% ni tashkil qilib, tadqiqotlarimizda NaCl eng kam ajratilgan hudud deb belgilandi va 11,6% ni tashkil qilishi aniqlandi. Kuchli sho‘rlangan hudud sifatida olingan (Janubiy Orolqumning o‘simlik o‘smagan hudud tuprog‘i) T-11 hududi tuprog‘idan ajratilgan tuzlar tarkibida NaCl – 52,1%, Ca(NO3)2(H2O)2 – 15,2%, CaCO3 – 13,9% va CaSO4·2H2O – 10,7% ekanligi aniqlandi. Mazkur tuzlardan invitro sharoitida galofit o‘simliklarni kuchli sho‘rlanish sharoitiga moslashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda foydalanilgan, mikroniholarning osmolitlari tarkibi o‘rganilgan va Janubiy Orolqum tuproqlariga moslashtirilgan ko‘chatlik biomateriallari olishga erishilgan [24-25].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar davomida Janubiy Orolqum tuproqlarining o‘ziga xos ekologik xususiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi. Ajratib olingan tuzlar yuqori darajada to‘planib, asosan xloridlar, sulfatlar va karbonatlardan iborat ekanligi, ular natriy hamda kalsiy kabi kationlar bilan birga uchrashi aniqlandi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda Orolqum tuprog‘ining kimyoviy tarkibida mineral tuzlar miqdori oshib borayotganini ko‘rsatdi. Bu holat, tuproq shakllanish jarayonining davom etayotganligi sababli, o‘simliklar qoplamiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, tuproqdagi tuzlarning miqdori va tarkibini doimiy monitoring qilish, sho‘rlanishga qarshi kurashish hamda, tuzga chidamli o‘simlik navlarini joriy etish mazkur mintaqaning qishloq va o‘rmon xo‘jaliklarini rivojlantirish shuningdek, ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hassani, A.; Azapagic, A.; Shokri, N. Global Predictions of Primary Soil Salinization Under Changing Climate in the 21st Century. Nat. Commun. 2021, 12, 6633. [Cross Ref] [Pub Med]

2. Wu,W.; Mhaimeed, A.S.; Al-Shafie, W.M.; Ziadat, F.; Dhehibi, B.; Nangia, V.; De Pauw, E. Mapping Soil Salinity Changes Using Remote Sensing in Central Iraq. Geoderma Reg. 2014, 2–3, 21–31. [Cross Ref]

3. Ivushkin, K.; Bartholomeus, H.; Bregt, A.K.; Pulatov, A.; Kempen, B.; De Sousa, L. Global Mapping of Soil Salinity Change. Remote Sens. Environ. 2019, 231, 111260. [Cross Ref]

4. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Global Map of Salt-Affected Soils. 2021. Available online: https: //www.fao.org/global-soil-partnership/gsasmap/en (accessed on 10 December 2021).

5. Ma, L.; Yang, S.; Simayi, Z.; Gu, Q.; Li, J.; Yang, X.; Ding, J. Modeling Variations in Soil Salinity i n the Oasis of Junggar Basin, China. Land Degrad. Dev. 2018, 29, 551–562. [Cross Ref]

6. Shrivastava, P.; Kumar, R. Soil Salinity: A Serious Environmental Issue and Plant Growth Promoting Bacteria as One of the Tools for Its Alleviation. Saudi J. Biol. Sci. 2015, 22, 123–131. [Cross Ref]

7. Wang, J.; Ding, J.; Yu, D.; Ma, X.; Zhang, Z.; Ge, X.; Teng, D.; Li, X.; Liang, J.; Lizaga, I.; et al. Capability of Sentinel-2 MSI Data for Monitoring and Mapping of Soil Salinity in Dry and Wet Seasons in the Ebinur Lake Region, Xinjiang, China. Geoderma2019, 353, 172–187. [Cross Ref]

8. Ge, Y.; Abuduwaili, J.; Ma, L.; Liu, D. Temporal Variability and Potential Diffusion Characteristics of Dust Aerosol Originating from the Aral Sea Basin, Central Asia. Water Air Soil Pollut. 2016, 227, 1–12. [Cross Ref]

9. Semenov, O.E. Dust Storms and Sandstorms and Aerosol Long-Distance Transport. In Aralkum-A Man-Made Desert; Breckle, S.W., Wucherer,W., Dimeyeva, L., Ogar, N., Eds.; Springer: Berlin/Heidelberg, – Germany, 2012; Volume 218, pp. 73–82.

10. Zucca, C.; Middleton, N.; Kang, U.; Liniger, H. Shrinking Water Bodies as Hotspots of Sand and Dust Storms: The Role of Land Degradation and Sustainable Soil and Water Management. Catena. 2021, 207, 105669. [Cross Ref]

11. Indoitu, R.; Kozhoridze, G.; Batyrbaeva, M.; Vitkovskaya, I.; Orlovsky, N.; Blumberg, D.; Orlovsky, L. Dust Emission and Environmental Changes in the Dried Bottom of the Aral Sea. Aeolian Res. 2015, 17, 101–115. [Cross Ref]

12. Karami, S.; Hossein Hamzeh, N.H.; Kaskaoutis, D.G.; Rashki, A.; Alam, K.; Ranjbar, A. Numerical Simulations of Dust Storms Originated from Dried Lakes in Central and Southwest Asia: The Case of Aral Sea and Sistan Basin. Aeolian Res. 2021, 50, 100679. [Cross Ref]

13. Kunii, O.; Hashizume, M.; Chiba, M.; Sasaki, S.; Shimoda, T.; Caypil, W.; Dauletbaev, D. Respiratory Symptoms and Pulmonary Function Among School-Age Children in the Aral Sea Region. Arch. Environ. Health. 2003, 58, 676–682. [Cross Ref] [Pub Med]

14 . Micklin, P. The Future Aral Sea: Hope and Despair. Environ. Earth Sci. 2016, 75, 844. [CrossRef]

15. Waehler, T.A.; Dietrichs, E.S. The Vanishing Aral Sea: Health Consequences of an Environmental Disaster. Tidsskriftet 2017, 137. [Cross Ref] [Pub Med]

16. Wicke, B.; Smeets, E.; Dornburg, V.; Vashev, B.; Gaiser, T.; Turkenburg, W.; Faaij, A. The Global Technical and Economic Potential of Bioenergy from Salt-Affected Soils. Energy Environ. Sci. 2011, 4, 2669–2681. [Cross Ref]

17. Hassani, A.; Azapagic, A.; Shokri, N. Predicting Long-Term Dynamics of Soil Salinity and Sodicity on a Global Scale. Proc. NatlAcad. Sci. – USA 2020, 117, 33017–33027. [CrossRef]

18. Li, J.; Pu, L.; Zhu, M.; Zhang, J.; Li, P.; Dai, X.; Xu, Y.; Liu, L.; Liu, L. Evolution of Soil Properties Following Reclamation in Coastal Areas: A Review. Geoderma 2014, 226–227, 130–139. [CrossRef]

19. An, J.; Chang, H.; Han, S.H.; Khamzina, A.; Son, Y. Changes in Basic Soil Properties and Enzyme Activities Along an Afforestation Series on the Dry Aral Sea Bed, Kazakhstan. For. Sci. Technol. 2020, 16, 26–31. [CrossRef]

20. Kim, J.; Song, C.; Lee, S.; Jo, H.W.; Park, E.; Yu, H.; Cha, S.; An, J.; Son, Y.; Khamzina, A.; et al. Identifying Potential Vegetation Establishment Areas on the Dried Aral Sea Floor Using Satellite Images. Land Degrad. Dev. 2020, 31, 2749–2762. [CrossRef].

21. Хожиев Ш.Т., Косимов И.О., Гаибназаров Б.Б. Задачи, решение с помощью порошковой дифроктометрии. Сборник материалов II международной научно-технической конференции «Актуальные вопросы естественных наук» 19 мая, 2021г. – Нукус. С 159-162.

22. M. Yu. Tashmetov, F. K. Khallokov, N. B. Ismatov, I. I. Yuldashova, I. Nuritdinov, S. Kh. Umarov. Study of the influence of electronic radiation on the surface, structure and Raman spectrum of a TlInS2 single crystal // Physica B: Condensed Matter. Volume 613, 2021, 412879

23. Axmatov T.J., Porfireva R.T., Gaysin L.J. Ximicheskaya texnologiya neorganicheskix veshestv. T 2. Kn. 1. — Pod. Red. Axmatov T.J. — M.: Visshaya shkola, 2002. — ISBN 5-06-004244-8. S. 369-402.

24. Аманова Г. И., Абдирахимова С. Ш., Зиявитдинов Ж. Ф., Олимжонов Ш.С., Хожиев Ш.Т. Адаптация солеустойчивых растений Lycium ruthenicum и Nitraria schoberi к солевому стрессу в условиях in vitro с использованием извлеченных солей из почв высохшего дна Аральского моря // Актуальные проблемы развития Биоорганической химии г.Ташкент, 13-14 ноября 2023г. С. 381-383.

25. Аманова Г.И., Олимжонов Ш.С., Зиявитдинов Ж.Ф., Хожиев Ш.Т., Тажибоев Ғ.А., Шеримбетов С.Г. Жанубий Оролқумда тарқалган Nitraria schoberi L. ўсимлигини in vitro шароитида кўпайтириш ва шўрланган тупроқ-шароитга мослаштириш // Вестник КГУ им. Бердаха. № 1 (68) 2025 г. с. 34-37.

ФОРМИРОВАНИЕ ГУМУС ПОДОБНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОКИСЛИТЕЛЬНОЙ ПЕРЕРАБОТКЕ ПТИЧЬЕГО ПОМЁТА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРОДУКТИВНОСТЬ ХЛОПЧАТНИКА

Йулдошев Шокир Уринович,*
PhD по химическим наукам. с.н.с
e-mail: www.yyy.2014@mail.ru
Ниязметов Умидбек Худайберганович,**
DSc по биологическим наука

**Институт химии растительных веществ АН РУз им. акад. С.Ю.Юнусова*
***Институт почвоведения и агрохимических исследований*

Аннотация. В данной статье изучено влияние окислительных способов переработки птичьего помёта на образование гумус подобных веществ и агрономическую эффективность органических удобрений. Птичий помёт в исходном виде обрабатывали озоном и системой O_3+H_2O_2. Показано ускорение полимеризации и ароматизации, рост суммарных ГПВ до 53,7 % и изменение соотношений гуминовых и фульвокислот. Элементный анализ выявил снижение C и H, рост O и N, что отражает структурную стабилизацию. Вегетационные опыты на хлопчатнике «Султан» подтвердили увеличение роста и урожайности, максимальное при 100 кг/га дозе, и высокую экологическую ценность технологии.

Ключевые слова: птичий помёт, озонолиз, перекись водорода, гумус подобные вещества, гуминовые кислоты, фульвокислоты, органические удобрения, агрономическая эффективность.

Annotation. This article examines the influence of oxidative methods of poultry manure processing on the formation of humus-like substances and the agronomic efficiency of organic fertilizers. Poultry manure in its initial form was treated with ozone and the O_3+H_2O_2 system. The study showed acceleration of polymerization and aromatization processes, an increase in total humus-like substances (HLS) up to 53,7%, and changes in the ratios of humic and fulvic acids. Elemental analysis revealed a decrease in C and H, an increase in O and N, reflecting structural stabilization. Vegetation experiments on cotton (variety “Sultan”) confirmed increased growth and yield, with the maximum effect observed at a 100 kg/ha application rate, demonstrating the high environmental value of the technology.

Keywords: poultry manure, ozonolysis, hydrogen peroxide, humus-like substances, humic acids, fulvic acids, organic fertilizers, agronomic efficiency.

Annotatsiya. Ushbu maqolada parranda qiyini oksidlovchi usullar bilan qayta ishlashning gumussimon moddalar hosil bo‘lishi va organik o‘g‘itlarning agronomik samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Parranda qiyi boshlang‘ich holatda ozon va O_3+H_2O_2 tizimida ishlov berildi. Polimerlanish va aromatizatsiya jarayonlarining tezlashishi, GPV umumiy miqdorining 53,7 % gacha oshishi hamda, gumin va fulvokislotalar nisbatining o‘zgarishi aniqlandi. Element tahlili C va H kamayishi, O va N oshishini ko‘rsatib, struktura barqarorligini ifodaladi. “Sultan” navli paxtada o‘tkazilgan vegetatsion tajribalar o‘sish va hosildorlikning, ayniqsa 100 kg/ga me’yorda, oshishini shuningdek, texnologiyaning yuqori ekologik qiymatini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: parranda qiyi, ozonoliz, vodorod peroksidi (peroksid vodorod), gumussimon moddalar, gumin kislotalar, fulvokislotalar, organik o‘g‘itlar, agronomik samaradorlik.

Введение. Современные исследования демонстрируют возрастающий интерес к применению окислительных технологий для переработки высококонцентрированных органических отходов, включая птичий помёт. Наиболее интенсивно изучаются радикальные системы, озонолиз и процессы, активируемые персульфатом, поскольку они способны ускорять деструкцию

органической матрицы и её последующую гумификацию в десятки раз по сравнению с традиционным компостированием.

Особое внимание уделяется персульфату (PS) и его активированным формам. Так, Ma et al. (2025) продемонстрировали, что сочетание Fe^0, ЭДТА и PS обеспечивает быструю трансформацию куриного помёта с образованием гуминовых и фульвокислот уже через 20–40 минут обработки [1]. При этом наблюдается рост содержания ароматических структур, увеличение доли карбоксильных и фенольных групп, а также формирование высокомолекулярных конденсированных соединений, сходных с природным гумусом. Аналогичные изменения фиксируются при трансформации осадков сточных вод и растительных остатков под действием радикальных систем, что подтверждает универсальность механизма [2,3].

Структурные изменения органики птичьего помёта под влиянием окислительных методов включают разрушение белков, липидов и хитин содержащих остатков, что облегчает последующую полимеризацию окисленных фрагментов в гумус подобные макромолекулы. Радикальные окислители способствуют ароматизации веществ через формирование устойчивых сопряжённых C=C-систем, являющихся ключевым этапом синтеза гумусовых соединений [4].

Озонолиз привлекает внимание как селективный метод, способный разрушать ненасыщенные связи и аминокислотные остатки, что ведёт к генерации гумус образующих фрагментов. Ряд исследований показал, что озонолиз органических отходов сопровождается увеличением содержания карбоксильных и гидроксильных групп, а также ростом фульвокислотной фракции [5,6]. При этом данные по прямому применению озонолиза к птичьему помёту остаются ограниченными, несмотря на высокую реакционную способность белково-азотной матрицы, что подчёркивает актуальность изучения этого направления.

Экологическая значимость окислительных методов также активно обсуждается. Chen et al. (2024) и Wang et al. (2023) сообщают о снижении биодоступности тяжёлых металлов, разрушении антибиотиков и генов устойчивости (ARGs), что важно для переработки помёта птицеводческих хозяйств. Эти преобразования обусловлены разрушением органических комплексов, удерживающих загрязнители, и частичной минерализацией нестабильных фракций [5,8].

Таким образом, существующие данные подтверждают высокую эффективность окислительных технологий для ускоренной гумификации органики и стабилизации потенциально опасных компонентов. Вместе с тем большинство исследований либо не фокусируются на птичьем помёте, либо рассматривают отдельные методы (например, только персульфат или только озон), что подчёркивает необходимость комплексного анализа влияния различных окислительных процессов на образование гумус подобных веществ в данном субстрате.

Материалы и методы. В качестве исходного материала использовали свежий птичий помёт бройлерного типа (возраст птицы 30–34 суток), собранный на фермерском хозяйстве. Отбор образцов проводили методом точечного смешивания в соответствии со стандартом ГОСТ ISO 14238–2014 для обеспечения репрезентативности навесок [9]. Перед проведением окислительной обработки помёт подвергали предварительной подготовке: удаляли посторонние включения, обеспечивали однородное перемешивание и определяли исходные физико-химические характеристики, включая влажность, pH, содержание органического вещества, общий углерод, азот и золу.

В качестве исходного материала

использовали свежий птичий помёт бройлерного типа (возраст птицы 30–34 суток), собранный на фермерском хозяйстве. Отбор образцов проводили методом точечного смешивания в соответствии со стандартом ГОСТ ISO 14238–2014 для обеспечения репрезентативности навесок [9]. Перед проведением окислительной обработки помёт подвергали предварительной подготовке: удаляли посторонние включения, обеспечивали однородное перемешивание и определяли исходные физико-химические характеристики, включая влажность, pH, содержание органического вещества, общий углерод, азот и золу. Для экспериментов материал высушивали при 40 °C до достижения влажности ≤10 %, после чего измельчали в лабораторной мельнице до размера частиц <1 мм. Навески для всех вариантов экспериментов составляли 20 г. Для системного анализа образцы распределяли по следующим сериям: контроль (К) - без окислительной обработки; озонолиз (O_3) - обработка газообразным озоном; пероксидная обработка (H_2O_2) - мягкий окислитель

для сравнительного анализа; комбинированная обработка (O_3+H_2O_2) радикальная система типа пероксона.

Озонолиз проводили в лабораторной установке на основе коронного разряда с производительностью 5 г O_3/ч и встроенным кислородным концентратором (95 % O_2). Газ подавали через тефлоновую трубку в стеклянный реактор объёмом 1,5 л, оснащённый штуцером для подачи газа, газораспределительной насадкой с пористостью 10-16 мкм, системой отбора газов в адсорбер для титрования остаточного O_3 методом KI-титрования и мешалкой с регулируемой скоростью 200–400 об/мин. Концентрацию озона в газовом потоке контролировали фотометрически при 254 нм.

Навески по 20 г помещали в реактор и добавляли воду в соотношении 1:5 для приготовления суспензии. Озон подавали в течение 10, 20 или 30 минут при температуре 25 ± 2 °C. Все варианты экспериментов проводились в трёхкратной повторности. Поток озона пропускали исключительно через кислородную линию, чтобы исключить образование побочных продуктов, в частности NO_x. Для мягкой окислительной обработки использовали водный раствор H_2O_2 (30 %) в концентрациях 1 %, 3 % и 5 % (м/м), выдерживая образцы при комнатной температуре в течение 1 ч. Для комбинированных вариантов (O_3 + H_2O_2, метод пероксона) H_2O_2 добавляли за 5 мин до включения озонатора, обеспечивая совместное радикальное окисление.

Выделение ГПВ проводили методом щелочно-экстракционного фракционирования по протоколу IHSS (International Humic Substances Society) (Ильяшенко–Конова) [10]. Экстракцию навесок выполняли 0,1 М раствором NaOH под азотной атмосферой. После центрифугирования образцы разделяли на фракции: гуминовые кислоты (ГК), фульвокислоты (ФК) и не экстрагируемый остаток (НЕО). Осадок ГК подкисляли до pH 1 с помощью HCl и выдерживали 12 ч, тогда как ФК определяли в над осадочной жидкости.

Содержание C, H, N, S определяли на CHNS-аналитике. Рассчитывали атомные отношения [11]:

H/C - степень ароматизации;

O/C - степень окисленности;

C/N - индикатор биологической доступности азота.

Статистическая обработка. Данные обрабатывали методом ANOVA при уровне значимости $p < 0,05$. Для построения графиков и расчётов использовали программное обеспечение OriginPro 2024 [11].

Характеристика почв и опытного участка. Полевые опыты проводились в Ташкентской области на опытном поле Научно-исследовательского института селекции, семеноводства и агротехнологии выращивания хлопка.

Эксперименты были организованы на опытных участках, засаженных хлопчатником сорта “Султан”. Почвы опытных участок представлены типичными орошаемыми сероземами с суглинистой текстурой, высоким содержанием карбонатов (до 12%) и слабощелочной реакцией среды (pH 7,8–8,3). Гумусовый горизонт характеризуется средней мощностью (50–80 см) и содержанием гумуса 1,2 %, а суммарная поглотительная способность составляет 9–12 мг-экв/100 г (FAO 2021).

Экспериментальные варианты. В ходе эксперимента использовались две нормы (80–100 кг/га) органического удобрения (ОУ):

Схема полевого опыта:

Повторение I	Повторение II	Повторение III
$К_{без\ удобрения}$	$ОУ_{100}$	$ОУ_{80}$
$ОУ_{80}$	$К_{без\ удобрения}$	$ОУ_{100}$
$ОУ_{100}$	$ОУ_{80}$	$К_{без\ удобрения}$

Каждый вариант опыта закладывался в трёхкратной повторности, площадь каждой делянки составляла 50 м². Размещение вариантов в полевом опыте – рандомизированные. Планирование и проведение полевых опытов, а также статистической обработки полученных данных осуществляли по методикам Б.А.Доспехова [13].

Фенологические наблюдения и учёт урожайности

Оценка роста и развития хлопчатника проводилась в соответствии с методами «Методика проведения полевых испытаний» (2007) и специализированные методики, разработанные УзНИИХ (2007), включающей измерение высоты растений, числа плодовых ветвей, количества коробочек и их раскрываемости. Учёт урожайности осуществлялся выборочным сбором с контрольных делянок по методу Доспехова [13,14].

Обработка результатов

Статистическая обработка экспериментальных данных выполнялась с использованием дисперсионного анализа Доспехова, проверка значимости различий между вариантами осуществлялась по критерию НСР при уровне значимости p <0.05. Все вычисления проводились с использованием программного пакета Statistica 13.5 (StatSoft Inc.).

Изменение содержания гумусоподобных веществ под воздействием озонолиза

В таблице представлены средние значения суммарного содержания гумус подобных веществ (ГПВ) и их распределение на основные фракции — гуминовые кислоты (ГК), фульвокислоты (ФК) и не экстрагируемый органический остаток (НЕО) - в исходном птичьем помёте (контроль) и после обработки озоном (O_3) различной продолжительности (10, 20 и 30 мин) и комбинированного воздействия озона с перекисью водорода ($O_3 + H_2O_2$). Значения представлены в процентах от общей массы органического вещества с указанием стандартного отклонения (± SD).

Окислительная обработка птичьего помёта озоном вызвала существенные изменения в составе ГПВ. Уже после 10 минут обработки наблюдалось увеличение суммарного содержания ГПВ на 12–18 % по сравнению с контролем, при этом прирост фракции гуминовых кислот оказался более выраженным, чем фульвокислот. Продление времени воздействия до 20 и 30 мин приводило к дальнейшему накоплению ГК (25–32 %) и умеренному увеличению ФК (10-15 %) (таблица 1).

Таблица 1

Содержание гумус подобных веществ (ГПВ) в птичьем помёте после озонолиза и комбинированной окислительной обработки

Вариант обработки	ГПВ, %	ГК, %	ФК, %	*НЕО, % (не экстрагируемый органический остаток)
Контроль	38.2 ±1.4	21.5 ±0.8	16.7 ±0.6	45.3 ±1.7
O_3 – 10 мин	43.1 ±1.5	25.1 ±0.9	18.0 ±0.7	38.7 ±1.5
O_3 – 20 мин	47.8 ±1.7	27.9 ±1.0	19.9 ±0.8	36.2 ±1.2
O_3 – 30 мин	50.4 ±1.9	28.4 ±1.1	22.0 ±0.9	34.1 ±1.3
$O_3 + H_2O_2$	53.7 ±2.1	29.6 ±1.2	24.1 ±1.0	32.9 ±1.2

*НЕО (не экстрагируемый органический остаток) - это доля органического вещества, которая не извлекается щелочными методами при фракционировании гумус подобных веществ.

Результаты демонстрируют закономерное увеличение содержания гумус подобных веществ (ГПВ) под воздействием озона. Уже после 10 минут обработки наблюдалось повышение суммарного содержания ГПВ на 12-18 % по сравнению с контролем, при этом преимущественно увеличивалась доля гуминовых кислот (ГК). Продление времени озонолиза до 30 мин привело к росту суммарного выхода ГПВ до 50,4 %, при этом доля фульвокислот (ФК) также увеличилась, что указывает на активизацию процессов радикальной полимеризации и ароматизации. Комбинированная обработка $O_3 + H_2O_2$ обеспечила наибольший суммарный выход ГПВ (53,7 %), с заметным увеличением как ГК, так и ФК и одновременным снижением не экстрагируемого остатка (НЕО), что свидетельствует о перераспределении органических фракций и ускоренной гумификации.

Динамика роста доли ГК согласуется с данными Lin et al. (2022), которые показали, что озон способствует формированию конденсированных ароматических структур через полимеризацию окисленных органических фрагментов [3]. Усиление поглощения при 254 нм подтверждает увеличение ароматизированных участков молекул и рост степени поликонденсации. Комбинированное применение озона с перекисью водорода ($O_3 + H_2O_2$) обеспечило максимальный выход ГПВ, особенно ФК, что указывает на усиление радикального механизма окисления, аналогично наблюдениям [2].

Таким образом, полученные результаты количественно иллюстрируют высокую эффективность озонолиза и комбинированной окислительной обработки в стимулировании образования стабильных гумус подобных веществ и трансформации органи-ческой матрицы птичьег о помёта.

Элементный состав

Таблица 2 отражает изменения элементного состава (C, H, N, O) и атомных отношений (H:C, O:C, C:N) гуминовых кислот (ГК) после различных вариантов окислительной обработки птичьего помёта. Полученные данные демонстрируют структурные трансформации органической матрицы и степень конденсации гумус подобных веществ (ГПВ).

В результате окислительной обработки озоном и комбинированной обработки $O_3 + H_2O_2$ наблюдались значительные изменения в составе и структуре ГПВ. Как показано в Таблице 1, суммарный выход ГПВ увеличивался с 38,2 % в контроле до 50,4 % при 30 минутной обработке озоном и достигал 53,7 % в

комбинированном варианте. Основное увеличение приходилось на долю ГК, которая возрастала с 21,5 % до 28,4-29,6 %, тогда как фульвокислотная фракция (ФК) наиболее интенсивно формировалась при комбинированной обработке, достигая 24,1 %. Содержание не экстрагируемого остатка (НЕО) снижалось на 18-25 %, что свидетельствует о перераспределении органических фракций с деградацией устойчивых полимеров и последующей конденсацией в гумус подобные структуры.

Таблица 2

Элементный состав гуминовых кислот

Варианты	C, %	H, %	N, %	O*, %	H:C	O:C	C:N
Контроль	53,8	5,63	4,72	35,9	1,25	0,42	11,4
O_3 – 10 мин	51,4	5,00	4,88	38,7	1,16	0,50	10,5
O_3 – 20 мин	49,9	4,62	5,10	40,4	1,11	0,55	9,8
O_3 – 30 мин	47,8	4,10	5,30	42,8	0,90	0,58	9,0
$O_3 + H_2O_2$	46,3	3,89	5,41	44,4	0,84	0,61	8,5

**O рассчитан по разницеа.*

